




YARKULOV ALISHER ATAQLULOVICH

1975-yil 1-mayda Samarqand viloyati Nurota tumanida tug'ilgan. 1998-yilda Samarqand davlat universitetini tamomlagan. Mehnat faoliyatini 1998-yilda Qo'shrabod tumani 51-o'rta maktab tarix fani o'qituvchisi sifatida boshlagan. 1998–2011-yillarda Samarqand davlat universitetida Arxeologiya kafedrasi o'qituvchisi, 2014-yildan Madaniy meros agentligida bo'lim boshlig'i, boshqarma boshlig'i va bosh arxeolog lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2022-yilda tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.



ARXELOGIYA MEROSI OBYEKTLARINI MUZEYLASHTIRISH

A.A. YARKULOV

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIY MEROS AGENTLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

YARKULOV ALISHER ATAQLULOVICH

ARXELOGIYA MEROSI OBYEKTLARINI MUZEYLASHTIRISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIY MEROS AGENTLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

YARKULOV ALISHER ATAQULOVICH

**ARXEOLOGIYA MEROSI
OBYEKTLARINI
MUZEYLASHTIRISH**

**Toshkent
“Renessans press”
2023**

UO‘K 902:351.853

KBK 63.4

Ya 74

Yarkulov, Alisher Ataqulovich

Arxeologiya me'rosi obyektlarini muzeylashtirish [Matn] / A.A. Yarkulov. – Toshkent: Renessans press, 2023. – 316 b.

Monografiya arxeologiya merosi obyektlarini muzeylashtirish va ularni boshqarish masalalariga bag'ishlangan.

Kitobda xorijiy tajriba va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sohaga oid ishlar hamda o'z yechimini kutib turgan muammolar haqida keng ma'lumot berilgan.

Asar madaniy meros sohasi xodimlari, arxeologlar va tarixchilar hamda keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

069.01

79.1

Mas'ul muharrir

Isomiddinov Muhammadjon Hasanovich,

Tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Suleymanov Rustam Hamidovich

Tarix fanlari doktori, professor

Ismoilova Jannat Hamidovna

Tarix fanlari doktori, professor

ISBN 978-9943-9669-2-5

© A.A. Yarkulov

© “Renessans press” nashriyoti, 2023.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
I BOB. ARXELOGIYA OBYEKTLARINI KONSERVATSIYALASH VA MUZEYLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI.....	23
I.1. Arxeologiya merosi obyektlarini ilmiy o'rganishning boshlanishi.....	23
I.2. Arxeologiya obyektlarini konservatsiyalash usullari	53
I.3. Arxeologiya obyektlarini muzeylashtirishda jahon tajribasi.....	69
II BOB. ARXELOGIYA OBYEKTLARINI MUZEYLASH- TIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	90
II.1. Arxeologiya merosi obyektlari negizida muzeylar barpo etish.....	90
II.2. Arxeologiya merosi obyektlarini arxeologiya parklariga aylantirish.....	105
II.3. Arxeologiya merosi obyektlari asosida muzey- qo'riqxonalar tashkil etish.....	122
III BOB. ARXELOGIYA MUZEY, PARK VA MUZEY- QO'RIQXONALARI RESURSLARI VA ULARNI BOSHQARISH.....	145
III.1. Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalar resurslari.....	145
III.2. Arxeologiya muzey, park va muzey- qo'riqxonalarda ilmiy-tadqiqot va amaliy loyihalar.....	161
III.3. Muzeylashtirishda arxeologiya merosi obyektlarining ahamiyatini baholash.....	179

III.4. Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalari boshqarish.....	185
--	-----

IV BOB. ARXELOGIYA MUZEY, PARK VA MUZEY-QO'RIQXONALARINING MADANIY MEROS OBYEKT-LARINI MUHOFAZA QILISHDAGI AHAMIYATI.....	212
--	------------

IV.1. Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va saqlash.....	212
---	-----

IV.2. Arxeologiya merosi obyektlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.....	233
--	-----

IV.3. Arxeologiya merosi obyektlarini ommalashtirish va targ'ib qilish.....	250
---	-----

XULOSA.....	280
-------------	-----

ILOVALAR.....	286
---------------	-----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	292
---	-----

SHARTLI QISQARTMALAR.....	315
---------------------------	-----

KIRISH

O'zbek xalqining moddiy madaniy merosi tarixini o'rganish va ularni asrash hamda foydalanish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir.

O'zbekistonda mustaqillik yillaridagi tadqiqotlarda vatanimiz tarixini o'rganishga qiziqish yanada oshdi. Zero, Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "... Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹.

Hozirgi paytda madaniy meros obyektlarini asrash va muhofaza qilish masalasi dolzarb mavzu sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, saqlash va ularni kelajak avlodga bus-butun yetkazishda zamonaviy konservatsiya va muzeylashtirish usullaridan foydalanish, mavjud muammolarni yechimini topishda an'anaviy usullardan tashqari ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda uni mamlakatimizda joriy etish hozirgi kun talabi hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi boshqa sohalarda bo'lgani kabi ko'plab xorijiy davlatlar bilan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish yo'nalishida ham hamkorlik ishlarini amalga oshirmoqda.

Bunda ayniqsa, Yaponiya, Koreya, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Xitoy va Rossiya kabi davlatlar bilan hamkorlik kuchayib bormoqda. Ushbu davlatlar bilan hamkorlik jarayonida turli yangi texnologiyalar kirib kelmoqda, o'quv seminarlar tashkil etilmoqda va o'zaro tajriba almashinuvi natijasida

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29.

egallangan bilimlar madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasini rivojlantirishga hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'naviy islohotlar milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi hamda targ'ib qilinishi va har tomonlama rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar 6 strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "O'zbekiston tarixi" telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4390-sonli qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар 6 стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли ва 2021 йил 6 апрелдаги "Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6199-сонли Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлдаги "O'zbekiston tarixi" телеканалини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4390-сонли қарори

to'g'risida"gi PQ-4068-sonli qarorida bir qator arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish ko'zda tutilgan edi³.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 119-son qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan "2021–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi tomonidan YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxati, Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxati, Jahon xotirasi ro'yxatiga madaniy va tabiiy meroslarni kiritishga ilgari surish bo'yicha milliy reja" qabul qilingan⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 119-son qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan "2021–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi tomonidan YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxati, Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxati, Jahon xotirasi ro'yxatiga madaniy va tabiiy meroslarni kiritishga ilgari surish bo'yicha milliy reja" qabul qilingan. Unda YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish uchun nomzod arxeologiya merosi obyektlari belgilab qo'yilgan.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги "Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4068-сонли қарори, 1-илова, 19-банди.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги "Моддий маданий мерос объектлари ва ЮНЕСКОнинг умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган ҳудудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 119-сон қарорининг 5-илоvasи.

Ushbu obyektlarni Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish uchun ularda qat'iy muhofaza qilish va saqlash tartibi o'rnatilishi bilan birga konservatsiyalash ishlari va alohida boshqaruv amalga oshirilishi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5150-sonli qarorining 2-bandi g) kichik bandida Madaniy meros agentligining vazifalaridan biri sifatida arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, halokat yoqasidagi arxeologiya obyektlarida zudlik bilan tadqiqot o'tkazilishini ta'minlash, arxeologiya obyektlarini konservatsiyalash, muzeylashtirish hamda arxeologiya parklarini yaratish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-261-sonli qarori 5-bandida arxeologiya yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, konservatsiyalash va ularda ochiq osmon ostida muzey tashkil etish hamda uni turizm obyektiga aylantirish choralari ko'rish belgilangan bo'lib, 8-ilovasi bilan tasdiqlangan 2023–2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining manzilli rejasi ishlab chiqilgan⁵.

Tadqiqotning davriy chegarasi etib XVIII asrdan hozirgi kungacha belgilangan bo'lib, asosiy e'tibor XIX asrdan hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi ilg'or davlatlarning madaniy meros

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 майдаги "Музейларда хизматлар соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-261-сонли қарори 5-банди.

obyektlarini asrash va ulardan foydalanish tajribasini o'rganishdan iborat. O'rganilayotgan davrda O'zbekiston hududidagi shu sohada amalga oshirilgan ishlar hamda chet ellarda qanday kechganligini tahlil qilishga qaratilgan.

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash va muzeylashtirish ishlar XVIII asrdan boshlangan bo'lib, hozirgi kunda Yevropaning turli davlatlarida ko'plab arxeologiya muzeylari, park va qo'riqxonolari mavjud⁶.

Bir necha asrlik tajribaga ega bo'lganligi uchun ko'plab shu sohaga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ularning natijasi sifatida qator asarlar, o'quv qo'llanmalari nashr etilgan⁷.

⁶ Концепция развития ФГБУК «Государственный историко-археологический музей-заповедник «Херсонес Таврический» (2016-2026 гг). Севастополь, 2016 г., Мяткина Н.В. История музеев мира. Владимир, 2013., Курьянова Т.С. Актуализация культурного наследия коренных народов в музеях южной Сибири. Томск, Издательский Дом Томского государственного университета, 2015., Cultural heritage as economic value: Economic Benefits, Social Opportunities and Challenges of Cultural Heritage for Sustainable Development. Edited by George Mergos and Nikos Patsavos. Athens, february, 2017., Kevin L. Jones. Caring for archaeological sites Practical guidelines for protecting and managing archaeological sites in New Zealand. Department of Conservation, Wellington, New Zealand, September 2007., Jessica Petrillo. Pompeii & Herculaneum Archaeological Sites: Conservation and Management. Canterbury Christ Church University, 2019., Planning for the conservation of archaeological resources in the city of Kingston. Planning and Development Department City of Kingston,. March 2010., Preserving, managing and enhancing the archaeological sites: comparative perspectives between China and Italy. Edited by Laura Genovese, Haiming Yan & Angela Quattrocchi. CNR Edizioni, 2018 P.le Aldo Moro 7, Roma., Концепция развития ГБУ РК «Бахчисарайский историко-культурный и археологический музей-заповедник». Бахчисарай, 2017., Parks canada Archaeological Recording Manual Excavations and Surveys. Parks Canada, 2005., Young R., Frodsham P., Hedley I., Speak S. An Archaeological Research Framework for Northumberland National Park. Resource Assessment, Research Agenda and Research Strategy.

⁷ Дробышев А.Н. Музеинный парк как форма презентации археологического наследия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии. Кемерово, 2011., Почобут Н.А. Сохранение и изучение

Moddiy madaniy meros yodgorliklarini himoya qilish masalalari o'ziga xos rivojlanish tarixga ega. Insoniyat tarixiga "Uyg'onish davri" nomi bilan kirgan davrda qadimda yaratilgan

археологического наследия музеями БССР (1944–1991 гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Минск, 2016., Антюфеева О.А. Архитектурно-градостроительные принципы экспонирования археологических памятников великого шелкового пути на территории нижнего Поволжья. Диссертация на соискание ученой степени кандидата архитектуры. Москва 2014., Ерёмин Л.В. Музеефикация особо охраняемых территорий историко-культурного значения в республиках южной Сибири (конец XX – начало XXI века). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Томск, 2010., Каулен М. Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. — М.: Этерна, 2012., Медведь А.Н. Музеефикация памятников археологии в России (прошлое и настоящее). М.: Издательство «ГНОМ и Д», 2004., Деменова В. В. Искусство Азии: Китай и Япония. Екатеринбург, Издательство Уральского университета, 2017., Ефремова Е.В. Проблемы музеефикации объектов археологического наследия в России в отечественных исследованиях 1961–2012 гг. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Тюмень, 2016., Hammady R. Virtual Guidance using Mixed Reality in Historical Places and Museums MuseumEye—a HoloLens-based Mixed Reality Guide to the Egyptian Museum in Cairo. A thesis submitted in fulfilment of the requirement of Staffordshire University for the degree of Doctor of Philosophy. May, 2019., Сорокина И.А. Полевые археологические исследования в России в 1946-2006 гг. (по архивным материалам и публикациям). ЗАО "Гриф и К", Тула, 2008., Ануфриев А.В. Шахеров В.П. Шахерова С.Л. Музейное дело и охрана культурных ценностей. Иркутск: Изд-во ИГУ, 2013., Archaeology The Key Concepts. Edited by Colin Renfrew and Paul Bahn. London and New York, This edition published in the Taylor & Francis e-Library, 2005., Огнистая Т.Ю. Музеефикация Генуэзской крепости Каффа. Автореферат по направлению 07.04.01 (270100) – Архитектура. Ростов-на-Дону, 2015., Venkateswaran M. Museum collecting and constructions of identity in indian Punjab, 1947-1970. This thesis is submitted for the degree of Doctor of Philosophy. Faculty of History. Girton College University of Cambridge September 2020., Neykova S. Keep It or Lose It: Preservation Strategies for Archaeological Sites. Vollständiger Abdruck der von der Fakultät für Architektur der Technischen Universität München zur Erlangung des akademischen Grades eines Doktors der Philosophie (Dr. phil.) genehmigten Dissertation. 2019.

sivilizatsiya yutuqlariga bo'lgan qiziqish, ularni o'rganishga alohida e'tibor berila boshladi.

Yevropa davlatlarida dunyoviy davlatlarning vujudga kelishi bilan barcha sohalardagi boshqaruv tizimlarida o'zgarishlar hamda yangi sohalarni boshqarish amaliyotga tadbiq etila boshladi.

Asta-sekinlik bilan moddiy madaniy merosga bo'lgan qiziqish, ularni to'plash va himoya qilish davlatlarning madaniy siyosati asoslarida muhim o'rin egallay boshladi.

Moddiy madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish g'oyasi Uyg'onish davrida antik san'at va kolleksiya to'plash ishlariga qiziqishning ortishi bilan kuchayib boradi. Buyuk Fransuz inqilobi davrida hukumat tomonidan (Konvent) madaniy va tarixiy yodgorliklar umumxalq mulki sifatida odamlar qo'lida to'plangan xususiy to'plamlar birinchi marta milliyashtiriladi (Luvr muzeyini tashkil etish haqida dekret, 1791)⁸. 1795-yilda yodgorliklarni muhofaza qilish davlat xizmati tashkil etiladi. XIX–XX asr boshlarida xalqlarning milliy o'zlikni anglash kuchayishi bilan ko'pgina Yevropa va Amerika davlatlarida madaniy va tarixiy yodgorliklar davlat himoyasiga olinadi (1834-yilda Yunonistonda san'at yodgorliklarini olib chiqib ketishni ta'qiqlash to'g'risidagi qonun qabul qilingan, 1937-yilda Braziliyada Milliy tarixiy va badiiy merosni himoya qilish tashkiloti to'g'risidagi qonun qabul qilinadi), davlat inspeksiyalari tashkil etiladi (Fransiyada 1830, Prussiyada 1843, Braziliyada ta'lim vazirligi homiyligida kotibiyat xizmati SPHAN tashkil etilgan), madaniy meros yodgorliklarini himoya qilish tartiblari (Fransiyada 1830, Prussiyada 1887, 1962-yilda to'ldirilgan,

⁸ Ахметова Е.А. История охраны объектов культурного наследия (памятников археологии). Стр.1

Italiyada 1902, 1909, 1939-yilda to'ldirilgan, Polshada 1918 va 1928-yillarda) va yodgorliklarni muhofaza qilish haqidagi qonunlar qabul qilinadi, ularni ilmiy tizimlashtirish, kataloglashtirish, konservatsiya va ta'mirlash ishlari boshlangan⁹. 1939–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar varvarlarga xos ravishda shaharlar va yodgorliklarni vayron qilishadi. 1940–50-yillarda madaniyat va tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish faoliyati kuchaygan. Bu davrda Yodgorliklarni muhofaza qilish to'g'risida tartib ishlab chiqiladi (Polshada 1945-yilda, 1962-yilda yangilangan, Yaponiyada 1950, Misrda 1951, GDRda 1952-yilda, 1962-yilda yangilangan, Chexoslovakiyada 1958-yilda, Yugoslaviyada 1959-yilda, Braziliyada 1937-yilda) va urush yillarida xarob bo'lgan yodgorliklarni ta'mirlash-tiklash bo'yicha yirik ishlar bajariladi.

Ko'proq qiymatli bo'lgan Madaniy va tabiiy obyektlarni saqlash uchun Xalqaro majburiyatlar olish g'oyasi XX asrning 60-yillarida Misrdagi baland Asvon to'g'onini qurish paytida Nubiyaning qadimgi yodgorliklarini suv bosishi xavfi munosabati bilan paydo bo'ladi. Bu Xalqaro hamjamiyat tomonidan umuminsoniyatga tegishli masala ekanligi qayd etiladi. Bu paytda Misr va Sudanda yodgorliklarni saqlash uchun mablag' yo'q edi. 1960-yilda Birlashgan Millatlar tashkilotining Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (uning shtab-kvartirasi Parijda) (keyingi o'rinlarda YUNESKO) butun dunyo mamlakatlariga yordam haqida murojaat qiladi. Qisqa vaqt ichida yirik miqdordagi mablag' yig'iladi va Nubiya yodgorliklari saqlab qolinadi.

⁹ Рубаник К.П. Международно-правовые проблемы ЮНЕСКО. – М., 1969. – С. 10.

Rossiyada qadimgi yodgorliklarni muhofaza qilish chora-tadbirlari birinchi marta Pyotr I davrida qabul qilingan. Pyotr I tomonidan 1718-yilda qadimgi noyob kam uchraydigan buyumlarni topshirish to'g'risidagi farmoni e'lon qilinadi. "Noyob kam uchraydigan" buyumlarni aniqlash, arxeologiya topilmalarini (birinchi marta arxeologiya qazishmalari Sank-Peterburg yaqinida 1708-yilda Eski Ladogada o'tkazilgan) davlatga topshirish va maxsus tashkil etilgan muzey – Kunstkamera yig'ish asosida to'plangan¹⁰.

Pyotrning bu faoliyati zamonaviy tarixshunoslikda turlicha sharhlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar uning bu ishini madaniy merosni saqlashga bo'lgan davlat nuqtai nazaridan qarashgan. Boshqalari esa Pyotr I ning shaxsiy qiziqishlari bilan bog'lashadi. Nima bo'lganda ham yangi davlatning qadimgi yodgorliklarni saqlash talablarining kelgusidagi qonunchilik siyosati fundamental asoslari yaratildi¹¹.

Rossiyada XIX asr 2-yarmida arxeologiya fani ilmning alohida ko'rinishi sifatida shakllanadi. Lekin arxeologiya tashkiloti faqat poytaxtdagina mavjud edi.

Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish tashkilotining shakllanishi quyidagicha kechgan: 1846-yilda Rus arxeologiya jamiyati, 1859-yilda Imperator arxeologiya komissiyasi, 1864-yilda Moskva Imperator arxeologiya jamiyatlari vujudga kelgan. Arxeologiyaga ixtisoslashgan nashrlar vujudga

¹⁰ Лапшин В.А. Борьба за охрану памятников археологии в России во второй половине XIX – н. XX вв. // Культурное наследие Российского государства: Сб. ст. / РАН Ин-т ист. матер. культуры, ВООПИиК (Ленинградское отделение); Сост. и отв. ред. Кирпичников А.Н. – СПб. – 2002 – Вып 3 – с. 79-82

¹¹ Культурная политика России. История и современность. Два взгляда на одну проблему. – М., 1998 - С.37

keladi: 1859-yilda “Arxeologiya komissiyasi hisobotlari”, 1899-yilda “Rossiya arxeologiyasi materiallari” va boshqalar.

1871-yilda Sankt-Pereburgda o‘tkazilgan II arxeologiya syezdida “Yodgorliklarni muhofaza qilish tartibi” to‘ldiriladi va tasdiqlanadi.

1877-yilda A.B. Lobanova-Rostovskiy rahbarligidagi komissiya tomonidan “Tarixiy yodgorliklarni saqlash haqida qoidalar” tayyorlanadi. 1905-yilda A.A. Bobrinskiy raisligida tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi “Asosiy tartib”ni ko‘rib chiqish qonunchilikda bahs predmetiga aylanadi. Yodgorliklar ko‘chuvchi va ko‘chmas turlarga bo‘linadi.

1911-yilda I.Ya. Gurlyand taqdim etgan “Qadimgi yodgorliklarni muhofaza qilish tartibi” loyihasi Davlat Dumasida ko‘rib chiqiladi.

1911-yilda “Rossiya qadimgi yodgorliklarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi” qonun loyihasi ishlab chiqiladi.

1919–1924-yillarda V.I. Lenin tashabbusi bilan 15 dan ortiq dekretlarda sovet davlatining yodgorliklarni muhofaza qilish tizimining asoslari yaratiladi.

1926-yilda asosiy arxeologiya tashkiloti moddiy madaniyat tarixi davlat akademiyasi deb nomlanadi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat edi:

1. Yodgorliklarni muhofaza qilish asoslarini ishlab chiqish.
2. Qidiruvlar, tizimli qazish ishlarini o‘tkazish va qadimgi, san‘at va xalq turmush tarzi bilan bog‘liq buyumlarni muhofaza qilish va o‘rganish maqsadida to‘plash.

3. Yodgorliklarni restavratsiya qilish, qazishmalarga ilmiy rahbarlik qilish va yodgorliklarni targ'ib qilishni rivojlantirish ishlariga boshchilik qilish¹².

O'zbekiston hududida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishga bo'lgan munosabat XIX asr oxirlaridan Turkiston o'lkasining Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin ulardan turli maqsadlarda foydalanish bilan boshlanadi. Rossiya chorizmi mahalliy boylar, dindorlar va boshqa mahalliy aristokratiyani o'z tomoniga og'dirish maqsadida Samarqanddagi bir qator binolarga "g'amxo'rlik" qilgan bo'ldi¹³. Dastlab Samarqand Registonidagi mozoratga doir yodgorliklarga nisbatan ayrim muhofaza tadbirlarini ko'rdi.

Biroq bu tadbirlar qisqa vaqtga mo'ljallanganligidan, keyinchalik chorizm qadimiy binolarni saqlash ishidan voz kechadi; ayrim joylarda esa chor askarlari tarixiy yodgorliklarni buzib yuborishadi. Jumladan, Samarqand qal'asini tuzatish va u yerga podsho harbiy kuchini joylashtirish vaqtida istilochilar o'nlab qadimiy binolarni, Maqbarai Azizxon, Xonaqoi Ibrohim va boshqalarni buzib tashlaganliklari fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Buzilgan binolarning ichida XIV asrning ikkinchi yarmida Temur qurdirgan Qutbi chahor-dahum binosi Sadriddin Ayniy esdaliklariga ko'ra, juda yuksak iste'dod bilan ishlangan muhtasham bino bo'lgan¹⁴.

¹² Пескарева К.М. К истории создания Российской академии истории материальной культуры. // КСИА АН – 1980 – Вып. 163. - С.26-32.

¹³ Раҳматуллаев Ю.Р. Ўзбекистон меъморчилик обидалари давлат муҳофазасида. Тошкент, 1969, 7-бет.

¹⁴ Раҳматуллаев Ю.Р. Ўзбекистон меъморчилик обидалари давлат муҳофазасида. Тошкент, 1969, 8-бет.

Shunday bo'lsa-da, o'lkada davriy nashrlarning rivojlanishi bilan madaniy meros yodgorliklari, ayniqsa me'morchilik yodgorliklari haqida yozila boshlandi.

XIX oxiri – XX boshlarida nashr qilingan “Turkiston vedomosti”, “Turkiston viloyati” gazetalari sahifalarida arxitektura yodgorliklarining muhofaza ahvoli, ulardagi koshinlarni o'g'irlab ketish hollari va boshqalar yoritib turilgan¹⁵.

O'zbekistonda mavjud tarixiy-me'moriy yodgorliklarning muhofaza qilish va ta'mirlash ishlarining shakllanishi nisbatan kech boshlandi. Ajdodlarimizdan qolgan ulkan madaniy merosning ahamiyatini hisobga olib, saqlanib qolgan monumental me'moriy obidalar XX asr boshiga kelib, ya'ni 1920-yildan boshlab yodgorliklarni muhofaza qiluvchi maxsus davlat organi tasarrufiga o'tkazila boshlandi.

Ushbu organ vazifasini dastlab 1920-yil 30-yanvardan o'z faoliyatini boshlagan Turkiston respublikasining Arxiv ishlari bo'yicha markaziy boshqarmasi qoshida tashkil qilingan tarixiy va san'at yodgorliklarini muhofaza qiluvchi maxsus Qo'mita vaqtincha bajargan edi. Turkrespublika rahbariyatining 1921-yil 23-maydagi maxsus Dekreti asosida Qo'mita mustaqil davlat organiga – Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining Dekreti bilan muzeylar va yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasi (Turkomstaris)ga aylantirildi¹⁶.

¹⁵ Раҳматуллаев Ю.Р. Ўзбекистон меъморчилик обидалари давлат муҳофазасида. Тошкент, 1969, 8-бет.

¹⁶ Миронов А.М. Организационная, научная и практическая деятельность Средазкомстариса (бывш. Туркомстариса) за пятилетие его существования // Известия Средне-Азиатского Комитета, изд. Средазкомстариса. — Ташкент, 1926.

1920-yilda Buxoro amirligi ag'darilgandan keyin, birinchi marta Buxorodagi tarixiy yodgorliklar ro'yxatga olindi¹⁷.

Sovet hokimiyatining ma'muriy-hududiy masalada olib borgan siyosati oqibatlari ushbu qo'mitaning tashkiliy va tuzilmaviy xarakteridagi faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada ushbu tashkilot O'rta Osiyo respublikalarining milliy chegaralanishidan keyin 1925-yildan Turkomstaris Yodgorliklar va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'rta Osiyo qo'mitasi nomini oldi (Sredazkomstaris). Qo'mita yangi tuzilgan O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonda joylashgan yodgorliklarni muhofaza qilish, ulardan foydalanish va qayta ta'mirlash ishlariga mas'ul bo'ldi.

Sredazkomstaris ixtiyoridagi bir qator tashkilotlar qatorida Buxorodagi tarixiy arxitektura yodgorliklarini saqlash ishlari bilan shug'ullangan Zarafshon komissiyasi (Buxkomstaris) ma'lum muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi¹⁸.

1929-yildan esa O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining 501-sonli Qarori bilan Sredazkomstaris o'rniga qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Qo'mitasi qaytadan tuzildi va Uzkomstarisga aylantirildi.

Faoliyatining dastlabki davrida ushbu organning vazifalari doirasi keng bo'lmay, mamlakatning arxeologik yodgorliklarni hisobga olishdan iborat edi. Iqtisodiy ahvolning og'irligi hamda restavratsiya ishlariga tayyor emasliklari tufayli yodgorliklarni muhofaza qilish organlari me'moriy yodgorliklarining butunlay

¹⁷ Раҳматуллаев Ю.Р. Ўзбекистон меъморчилик обидалари давлат муҳофазасида. Тошкент, 1969, 26-бет.

¹⁸ Раҳматуллаев Ю.Р. Ўзбекистон меъморчилик обидалари давлат муҳофазасида. Тошкент, 1969, 26-бет.

vayron bo'lishning oldini olishga qaratilgan zaruriy ta'mir ishlarini amalga oshirish bilan cheklanar edilar. Bu davrda yodgorliklarning restavratsiyasi va konservatsiyasi bilan bog'liq ishlab chiqarishning ilmiy asosini yaratish haqidagi masala endigina ko'tarila boshlagan edi. Shunday bo'lsa-da, o'sha murakkab siyosiy-iqtisodiy sharoitlarda restavratsiya va konservatsiyaning ilmiy metodikasining nazariy poydevori yaratila boshlandi.

Mutaxassislar va olimlarning ko'p yillik kuzatishlari va amaliy tajribalari o'sha vaqtda e'lon qilingan ishlarda o'z aksini topdi. Umuman madaniyat yodgorliklarning tadqiq etishning me'moriy-arxeologik metodi bo'yicha asosiy konsepsiyalar 1920-yillar oxiriga kelib shakllandi va u 1928-yilda chop etilgan – Restavratsiya masalalari to'plamida e'lon qilindi¹⁹.

Ammo olib borilgan dastlabki ilmiy izlanishlar va me'moriy obidalarni muhofaza qilish va ta'mirlash ishlarini ommaviy yo'lga qo'yishda kommunistik partiyaning – umumiy tenglikga erishishni maqsad qilib olgan siyosati to'sqinlik qilar edi.

Sotsialistik o'zgarishlarni nazarda tutgan – revolyutsion ruh – yangi va eski shahar o'rtasidagi tafovutni yo'q qilish hamda ularni tenglashtirishga, shuningdek, din va qadriyatlarga qarshi qaratilgan g'oyalarning, ayniqsa sovet hokimiyatining dastlabki o'n yilliklarida hukmronligi natijasida ko'plab qadimiy shaharsozlik namunalarining buzilishi va tahqirlanishiga olib keldi. Ushbu radikal xarakterga ega bo'lgan g'oyalar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va O'zbekistonning boshqa tarixiy shaharlariga o'nglab bo'lmas zarar yetkazdi.

¹⁹ Крюков К.С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920–1990 гг.) // Строительство и архитектура Узбекистана. – 1990. – № 8.

O'tgan asrning 30–50-yillaridagi sovet modernizmi siyosati natijasida moddiy madaniy merosimiz ko'plab yo'qotishlarga uchradi. Xususan, kichik va o'rta shaharlarning tarixiy qiyofalari o'zgartirildi yoki yo'q qilindi.

Vujudga kelgan vaziyat respublikada madaniy yodgorliklarni saqlash bilan bog'liq tashkilot faoliyatida o'zgarishni talab qilar edi. Respublikaning bir qator jonkuyar, ilg'or ziyolilar qatlami vakillari tashabbusi bilan 1957-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasining 557-sonli Hukumat Qarori bilan – “Moddiy madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha Komitet” tashkil etildi.

Ushbu Komitet qoshida kengash tuzilib, uning tarkibiga Ya. G'ulomov, M. Masson, T. Qoriniyozov, G. Pugachenkova kabi yetuk olimlar kirgan edi. Kengashning qisqa davr ichida faoliyat olib borishiga qaramasdan (1957–1961-yillar davomida faoliyat ko'rsatgan), uning yordamida O'zbekistondagi mavjud madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklarning sezilarli qismini saqlab qolish, ayrimlarida esa ta'mirlash ishlarini rivojlantirish, ularni ilmiy o'rganish, respublikada restavratorlar maktabi ishini yanada jonlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Muhimi shundaki, ushbu tashkilotda faoliyat olib borgan mamlakatning nufuzli olimlari sa'yi-harakatlari besamar bo'lmadi, balki kelgusida respublikada madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan merosni saqlash borasidagi ishlarga ijobiy ta'sir etdi.

Tarixiy yodgorliklarni avaylab saqlashga, o'rganish va qayta tiklash maqsadida 1967-yilning 27-martida O'zbekiston Ministrlar Sovetining qarori bilan “O'zbekiston tarixiy va moddiy

madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyati” tashkil etildi²⁰. Ushbu jamiyat moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash va ularni qayta tiklash sohasida birmuncha ijobiy ishlarni amalga oshirgan.

1968-yil madaniy merosimizni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan ishlar uchun muhim voqea madaniy yodgorliklarni himoya qilish haqidagi qonuni qabul qilingan. Shuni alohida qayd etish kerakki, bu Ittifoq miqyosida qabul qilingan shunday qonundan 8 yil (1976-yil) oldinroq amalga oshirildi.

Davlat muhofazasiga olish, ta'mirlash va konservatsiyalash ishlari hajmlarining ortib borishi yagona boshqaruv organini tashkil etishni talab etardi. Shu maqsadda, 1979-yil 24-fevraldan O'zbekistonda madaniyat yodgorliklarni muhofaza qiluvchi davlat tizimi – O'zbekiston SSR KP Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 149-sonli Qarori bilan Madaniyat yodgorliklari ilmiy-ishlab chiqarish Bosh Boshqarmasi tuzildi (GlavNPU). Keyinchalik, uning tarkibida loyihalash instituti, ilmiy-restavratsiya ishlab chiqarish tashkilotlari, shu jumladan, me'moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish, konservatsiyalash, ularning dekori bo'yicha noyob ishlarni bajarilishiga ixtisoslashgan restavratsiya korxonasi ham tashkil qilindi. Bosh boshqarmaga qo'zg'almas va qo'zg'aladigan madaniyat yodgorliklarini saqlash ishlari, tasviriy va monumental san'atni rivojlantirish, muzey va ko'rgazma ishlarini tashkil qilish yuklatildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yuqorida qayd qilingan salbiy holatlarga barham berish, madaniy merosni asrab avaylash va ularni himoya qilish va ulardan foydalanish to'g'risida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan,

²⁰ Қори-Ниёзий Т.Н. Ўзбекистон ССР моддий маданият ёдгорликларини сақлаш ва ўрганиш. Тошкент, “Фан”, 1971, 4-бет.

tarixiy meros obyektlarni himoyalash va ulardan foydalanish borasida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, yurtimizning bosh qomusida tarixiy, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni saqlash fuqarolarning burchi ekanligi va yodgorliklar davlat himoyasida ekanligi belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga 2001-yilda – “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi, 2009-yilda esa – “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi qonunlar qabul qilinib, ularda madaniy meros obyektlaridan foydalanish, himoya qilishning huquqiy asoslari belgilab qo'yildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ham madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, saqlash va muzeylashtirishga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan²¹.

Monografiyada:

– Birinchidan, o'rganilayotgan mavzuni yoritishda sohaga oid asarlar, qo'llanmalar va hujjatlar ma'lumotlari asosida madaniy meros obyektlarini asrash va foydalanish tarixi yaratildi;

– Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan ilg'or texnologiyalarni sohada joriy qilish orqali doimiy ravishda monitoring qilib borish, asrashga doir ishlarni amalga oshirish, saqlash va ularning xavfsizligini ta'minlash choralari o'rganildi;

²¹ Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021., Хушвақов Н.О. Кеш тарихи ва маданияти (Шахрисабз давлат музей-қўриқхонасида материаллари асосида). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси, Қарши-2022. Ахмедов Ж.З. Фарғона водийсидаги тарихий-маданий ёдгорликларни музейлаштириш (XIX-XXI асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021.

– Uchinchidan, chet el tajribasi oʻrganilishi va amaliyotga joriy etilishi samaradorligini tahlil qilish orqali ilmiy muomalaga kiritildi.

Shuningdek:

– Oʻzbekiston hududida joriy etish mumkin boʻlgan ilgʻor xorijiy tajribalar oʻrganilib, tahlil qilingan.

– rivojlangan mamlakatlar tomonidan qoʻllaniladigan arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash va muzeylashtirish tajribasini sohada joriy qilish orqali doimiy ravishda monitoring qilib borish, asrashga doir ishlarni amalga oshirish, saqlash va xavfsizligini taʼminlash choralarini oʻrganildi;

– ilgʻor xorijiy mamlakatlarning arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash va muzeylashtirish tajribasi oʻrganildi;

– Oʻzbekistonda arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash va muzeylashtirish tajribasini joriy etish jarayoni oʻrganildi;

– chet el tajribasi oʻrganilishi va amaliyotga joriy etilishi samaradorligi tahlil qilindi;

– konservatsiyalangan va muzeylashtirilgan arxeologiya merosi obyektlarini boshqarish prinsiplari ishlab chiqildi.

– konservatsiyalangan va muzeylashtirilgan arxeologiya merosi obyektlarining targʻib qilish natijalari koʻrsatib berildi.

Monografiyadan oliy taʼlim muassasalarida tarix, arxeologiya, muzeyshunoslik va madaniy meros yoʻnalishlarida madaniy meros boʻyicha oʻtiladigan fanlarni oʻqitishda keng foydalanish mumkin.

Monografiya Oʻzbekiston tarixini yozishda, muzeyshunoslik va moddiy madaniy meros tarixini oʻrganishda manba boʻlib xizmat qiladi.

I BOB. ARXEOLOGIYA OBYEKTLARINI MUZEYLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI

I.1. Arxeologiya merosi obyektlarini ilmiy o'rganishning boshlanishi

Arxeologiya fani gumanitar fanlar orasida eng yoshlaridan hisoblanadi. Aslida Yevropada uyg'onish davridan qadimgi asoriatiqalarga qiziqish boshlangan bo'lsa-da, mustamlakachilik davrida ularni turli mamlakatlardan yig'ib, bir joyga to'plash boshlanadi.

XIX asrning boshlariga kelib ularni arxeologiya tadqiqotlari yo'li bilan yig'ish boshlangan. Shu davrdan boshlab arxeologiya fani shakllandi, desak xato bo'lmaydi. Quyida dastlabki hamda eng mashhur bo'lgan arxeologiya tadqiqotlarining ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Mesopotamiyada dastlabki arxeologiya tadqiqotlarini XIX asrning o'rtalarida Botta Xorsoboddagi osur podshosi Sargon saroyining xarobalarini topishga muvaffaq bo'lgan. 1845–1851-yillarda ingliz arxeologi Leyyard o'tkazgan qazishlar natijasida Osuriya poytaxtlari Kalax bilan Nineviya xarobalari ochib o'rganiladi²².

XIX asrning oxirida nemis olimi Kol'devayning qazishmalari yangi Bobil podsholigi to'g'risidagi juda qimmatli ma'lumotlar bergan.

Qadimgi Misr yodgorliklarini o'rganish ishlarini Fransua Shampolyon tomonidan o'rganilishi muvaffaqiyatli chiqqan. Dastlabki keng ko'lamdagi tadqiqot ishlari 1828-yilda tashkil

²² Воробьев-Десятковский В.С., Итс Р.Ф., Липин Л.А., Петровский Н.С. Очерки истории древнего востока. Ленинград, 1956, стр. 74.

etilgan ekspeditsiya tomonidan amalga oshiriladi. U qadimgi Misr yozuvlarini o'qishga muvaffaq bo'ladi²³.

XIX asr o'rtalarida nemis misrshunoslari Lepsius va Brugshlar Misrga arxeologiya ekspeditsiyalari uyushtiradilar. Ular nafaqat Misrni balki unga yondosh bo'lgan mamlakatlarni ham tekshirib ko'radilar. Natijada ular to'plagan materiallar asosida Germaniyada Misr muzeyi ochiladi.

Keyinchalik fransuz olimlari Mariett va Gaston Masperolar Misrda arxeologiya tadqiqotlarini davom ettirishgan.

Ingliz olimi Flinders Petri Misrda juda ko'p qazishma ishlari o'tkazadi. U Fayum vohasidagi O'rta podsholik davri yodgorliklarini, shuningdek, O'rta Yer dengizi bo'ylaridagi yunon manzilgohlarini topib o'rganadi²⁴.

Kichik Osiyoda dastlabki arxeologiya tadqiqotlari 1861-yilda Giyom va Perro tomonidan Bo'g'ozqoyada o'tkazilgan. 1872-yilda Guman va Puxshteyn Kappadokiyan va Shimoliy Suriyani tekshirib ko'rishadi²⁵.

1871–1890-yillarda nemis arxeologi Genrix Shliman hozirgi Turkiya hududidagi Hisorlik tepaligida qazishmalar o'tkazishni boshlaydi²⁶. Bu yerda u butun dunyoga mashhur bo'lgan Troya qoldiqlarini topadi. Natijada hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan arxeologiya sohasidagi kashfiyotlardan biri sifatida baholanib kelmoqda. Shu bilan birga turli yillarda Qadimgi Yunonistonning Miken, Orxomenda va Trinfda 1874–1885-

²³ Воробьев-Десятовский В.С., Итс Р.Ф., Липин Л.А., Петровский Н.С. Очерки истории древнего востока. Ленинград, 1956, стр. 11-13.

²⁴ Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. Тошкент, 1964, 162-166-бетлар.

²⁵ Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. Тошкент, 1964, 376-бет.

²⁶ Суриков И.Е., Ленская В.С., Соломатина Е.И., Таруашвили Л.И. История и культура древней Греции. Энциклопедический словарь. Москва, 2009, стр. 682.

yillarda tadqiqotlar olib borgan. Natijada qadimgi Yunoniston tarixiga oid ko'plab ma'lumotlarni qo'lga kiritadi.

Qadimgi Yunonistonning ilk sivilizatsiyasi boshlangan Krit orolida XIX asrning 90-yillarida arxeolog Artur Evans tomonidan qazishma ishlari olib borilgan. Bu yerda u Kritning Knoss shahridagi Minos saroyini qazib o'rganadi²⁷.

1922-yilda hind arxeologi Rakxaldas Banerdji Sind viloyatidagi Larkan atrofida buddizm ehromini qazib o'rganish chog'ida yirik shahar qoldig'ini topadi. Bu shahar qoldig'i Moxendjo-Daro deb atalgan bo'lib, O'liktepa ma'nosini anglatadi.

O'sha yili boshqa bir hind arxeologi Ray Baxadur Dayaram Saxni g'arbiy Panjobdagi Montgomeri okrugida Xarappa shahri xarobalarini topadi. Har ikkala tadqiqotlar ham Hindiston arxeologiya boshqarmasi bosh direktori Jon Marshall rahbarligi ostida olib boriladi²⁸.

Dastlabki arxeologiya tadqiqotlari asosan mustamlakachi davlat fuqarolari tomonidan olib borilganligi uchun topilmalar o'sha davlatlar tomonidan olib ketilgan hamda hozirgi kunda muzeylarda saqlanmoqda.

Quyida ularning ayrimlaridan misollar keltiramiz. Malika Nefertitining boshi Germaniyaning Berlin muzeyida, Ramzes II statuyasi Italiyaning Turin muzeyida, Eannatum stellasi, Suzadan topilgan Naramsinning g'alaba stelasi Fransiyaning Luvr muzeyida saqlanmoqda²⁹.

²⁷ Суриков И.Е., Ленская В.С., Соломатина Е.И., Таруашвили Л.И. История и культура древней Греции. Энциклопедический словарь. Москва, 2009, стр. 425.

²⁸ Воробьев-Десятовский В.С., Итс Р.Ф., Липин Л.А., Петровский Н.С. Очерки истории древнего востока. Ленинград, 1956, стр. 177.

²⁹ История искусства зарубежных стран. I том. Под редакции А.П. Чубова. Издательство академии художеств СССР, Москва, 1961, стр. 387.

Yevropada madaniy boyliklarni to'plash va ulardan foydalanish sohasi oldinroq boshlanganligi sababli ham bunday ashyolar u yerga "oqib" bora boshlagan.

O'zbekistonda arxeologiya tadqiqotlarining rivojlanishini uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. Rossiya imperiyasi istilosi davri.
2. Sobiq sovet ittifoqi davri.
3. Mustaqillik davri.

Barcha imperiyachi davlatlar singari, Rossiya ham O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin bu yerdagi qadimiy sivilizatsiyalar bilan qiziq boshlaydi. Istilochilar bilan birgalikda turli qatlam vakillari ham kelishadi. Tarkibida albatta turli soha olimlari ham bo'lgan, shu jumladan, arxeolog, sharqshunoslar ham. Ular dastlab aksariyat hollarda xazina izlash bilan shug'ullanishgan. O'zbekiston hududida 1895-yilda Toshkent shahrida Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi tashkil etilishi bilan arxeologiya tadqiqotlari boshlangan deb hisoblasak bo'ladi. Chunki, aynan shu davrdan boshlab qadimgi arxeologiya yodgorliklari, fol'klor, qadimiy qo'lyozmalar hamda asori-atiqalar to'planib o'rganila boshlagan.

Shu bilan birga, ko'plab madaniy boyliklarning tashib ketilishiga ham hissa qo'shganlar.

To'garak a'zolari qatorida V.V. Bartol'd, M.S. Andreev, A.A. Divaev, N.S. Likoshin, N.G. Malliskiy, N.P. Ostroumov, A.A. Semyonov, V.V. Vyatkin va boshqalar bo'lgan. To'garak 1917-yilda tarqalib ketgan³⁰.

Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolarining eng mashhur qazishma ishlari V.V. Vyatkin tomonidan Afrosiyobda

³⁰ Туркистон археология ҳаваскорлари тўғараги. QOMUS.INFO onlayn ensiklopediya. "Т ҳарфи".

o'tkazilgan qazishmalar hamda Ulug'bek rasadxonasining topilishi bo'lgan. Aynan mana shu davrda birinchi o'zbek havaskor arxeologi Akram Asqarov rus arxeologlari bilan ishlab, sohaga kirib keladi³¹.

Sovetlar davrida arxeologiya ancha tarqqiy eta boshladi. Shunday bo'lsada, ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda nisbatan sust rivojlangan. Bu davrda A.P. Okladnikov tomonidan 1938–1939-yillarda Teshiktosh g'orining topilishi arxeologiya fani uchun muhim kashfiyotlardan hisoblanadi³².

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda V.L. Vyatkin, B.P. Denike, M.E. Masson, A.Yu. Yakubovskiy, V.A. Shishkin, S.P. Tolstov va Ya.G'. G'ulomovlar faoliyat olib borishgan³³.

Ikkinchi jahon urushidan keyin tizimli ravishda arxeologiya tadqiqotlari o'sib borganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, o'tgan asrning 70-yillariga kelib, O'zbekiston fanlar akademiyasi Tarix institutidan Arxeologiya institutining ajralib chiqishi alohida ahamiyat kasb etgan.

1959-yildan Arxeologiya tadqiqotlarini yoritib borish uchun O'zbekiston moddiy madaniyati to'plami muntazam chop etila boshlangan. Arxeologiya tadqiqotlari natijasida davlat muhofazasiga olingan arxeologiya merosi obyektlari ro'yxati

³¹ Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси. Самарқанд, 2010, 6-бет.

³² Окладников А.П. Мустьерская стоянка в гроте Тешик-таш в Узбекистане // КСИИМК – Вып. II. – 1939.

³³ Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси. Самарқанд, 2010, 10-бет.

tuzilib, 1973-yilda birinchi marta O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan tasdiqlanadi³⁴.

O'tgan asrning 80-yillarida arxeologiya merosi obyektlarining yangi ro'yxatini shakllantirish uchun O'zbekiston hududlari bo'ylab keng miqyosda qidiruv ishlari amalga oshiriladi. Lekin bu oxiriga yetkazilmay qolgan.

Shunga qaramay, arxeologiya tadqiqotlari natijalari sifatida ko'plab monografiya, risola va maqolalar nashr etilgan.

A. Asqarov, A. Muhammadjonov, O'. Islomov, Yu. Buryakov, M. Qosimov, T. Mirsoatov, R. Sulaymonov, M. Jo'raqulov, A. Abduhamidov, M. Isoqov, M. Mambetullayev, M.H. Isomiddinov, I. Ahrorov, O'. Alimov, T.Sh. Shirinov, A.E Berdimurodov, M.H. Pardayev, J. Mirzaahmedov kabilar faoliyat olib borishgan³⁵.

Ko'rib turganimizdek, XX asrning boshidan oxiriga qadar o'zbek mahalliy arxeologlari shakllanishi davri bo'lgan. Ularning yetishib chiqishi keyingi mustaqillik davri uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik davrida boshqa sohalarda bo'lgani singari O'zbekiston arxeologiyasi ham o'z ishini iqtisodiy qiyinchiliklar bilan boshlaydi. Bu Samarqandda joylashgan Yahyo G'ulomov nomidagi Arxeologiya instituti faoliyatida yaqqol kuzatish mumkin.

Arxeologiya merosi obyektlarini 90-yillar boshida ham ro'yxat shakllantiriladi, ammo yuqori ijroi hokimiyat tomonidan tasdiqlanmasdan qolib ketadi.

³⁴ Об утверждении списков архитектурных, историко-художественных и археологических памятников, принятых на государственную охрану. Совет Министров Узбекской ССР постановление №539 от 21 декабря 1973 года.

³⁵ Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси. Самарқанд, 2010, 11-бет.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-fevraldagi “O‘zbekiston arxeologiya yodgorliklarini saqlash choralari va yodgorliklarni o‘rganishning ahvoli haqida”gi 64-sonli qarori³⁶da O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti tarkibida Toshkent, Urganch, Namangan va Termiz shaharlarida 1992-yildan boshlab institutning mintaqaviy bo‘limlarini ochish, Toshkent, Xorazm, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Arxeologiya instituti mintaqaviy bo‘limlarini laboratoriya xonalari va kolleksiya saqlash xonalari bilan ta‘minlash hamda joylarda arxeologiya bo‘limlarini mahalliy byudjet hisobidan bittadan mashina bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan edi.

Afsuski, ushbu xayrli qadam iqtisodiy qiyinchiliklar sababli o‘z ijrosini topmagan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli “O‘zbekiston moddiy madaniyati” to‘plamini nashr etish ham sekinlashadi. 1991-yildan 2000-yilgacha uning 6 ta soni nashr qilinadi, xolos.

Bu davrda arxeologiya sohasining o‘zini tutib qolishiga Arxeologiya institutining xorijiy hamkorlar bilan mustahkam aloqa o‘rnatganligi katta ahamiyatga ega bo‘lganligini alohida ta’kidlash kerak.

2000-yillardan boshlab “O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar” to‘plami, 2010-yildan “O‘zbekiston arxeologiyasi” jurnallari nashr etilishi arxeologiya tadqiqotlarining rivojlanib borayotganligidan dalolat bo‘lib hisoblanadi.

³⁶ “Ўзбекистон археология ёдгорликларини сақлаш чоралари ва ёдгорликларни ўрганишнинг аҳволи ҳақида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 64-сонли қарори, 1992 йил 13 февраль. Lex.uz

Agar 2012-yilda 35 taga yaqin arxeologiya tadqiqoti o'tkazilgan³⁷ bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 70 taga yetdi.

Arxeologiya institutida "O'zbekistonda Arxeologiya fanini rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Ikki bo'limdan iborat ushbu konsepsiyaning I qismida O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi tizimidagi ahamiyatli o'rnini, dunyo tamadduniga qo'shgan o'lgan hissasi, erishilgan arxeologik kashfiyotlar orqali asoslandi. Shuningdek, mazkur qismda O'zbekiston arxeologiyasining kelgusidagi istiqbolli vazifalari begilangan. Konsepsiyaning II qismida qadimgi davrlardan to temuriylar davrigacha o'zbek davlatchiligi va sivilizatsiyasining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari, davriy chegaralari, taraqqiyot va inqiroz zamonlari, ularni o'rganishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi³⁸.

1. O'zbekistonning qadimgi tosh asri ildizlari va atrof muhit.
2. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlardagi davlatchiligi, moddiy-madaniyati va mafkuraviy hayoti (arxeologiya manbalari asosida).
3. O'zbekistonning o'rta asr davlatchiligi va sivilizatsiyasi arxeologiya manbalari asosida.

³⁷ Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2012 йил. Самарқанд, 2013. 9-сон, 5-бет.

³⁸ Бердимуродов А.Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон археологияси: ютуқлар ва истиқболлар. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 25 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. 15-16 сентябрь, Самарқанд, 2016, 3-бет.

4. Qadimgi hunarmandchilik mahsulotlarini fizik, ximik, arxeologik tadqiqotlar asosida o'rganish va arxeologiya obidalarida kimyoviy konservatsiyalash usullarini tadbqiq qilish³⁹.

Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan muhim yutuqlardan biri bu – qadimiy shaharlarning yoshini aniqlash uchun o'tkazilgan tadqiqotlar bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida Xiva Buxoro va Termiz shaharlarining 2500 yilligi, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700 yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi, Toshkent shahrining 2200 yilligi aniqlab berildi. Shuning o'ziyoq O'zbekiston arxeologlarining mehnati naqadar samarali bo'lganligini ko'rsatadi.

Respublikamizning mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi davrda faoliyatda keng xalqaro aloqalar va ular asosida olib borilayotgan ekspeditsiya va loyihalar muhim o'rin egallaydi (2-rasm).

Bugungi kunda mamlakatimiz olimlari Fransiya, Italiya, Rossiya (Novosibirsk, Sankt-Peterburg), Yaponiya, AQSh, Avstraliya, Germaniya, Koreya, Polsha, Chexiya va Xitoylik mutaxassislar bilan o'n beshdan ortiq xalqaro ekspeditsiyalar tashkil etib, arxeologik tadqiqotlar olib bormoqdalar:

“Qadimda va o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi” loyihasi Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy Markazi (CNRS) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Izlanishlar 1989-yildayoq boshlanib, arxeologik izlanishlar Afrosiyob (Samarqand So'g'dining poytaxti) va Ko'ktepa (eng qadimiy shahar markazlardan biri, antik avtorlar qayd etishgan Basileya deb

³⁹ Ширинов Т.Ш. “Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи, 32-нашри, “Фан”, 2001, 9-бет.

taxmin qilingan) yodgorliklarida olib borilgan⁴⁰. Loyiha rahbarlari O'zbekiston tomondan M.X. Isamiddinov, M.A. Reutova va Fransiya tomondan F. Grene, K. Rapenlardir.

Afrosiyobdagi birgalikdagi izlanishlar natijasida, qadim shaharning anchayin aniq stratigrafiyasi olindi va qadimgi so'g'diy davriga oid qatlamlar aniqlandi. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlar Samarqand shahrining 2750 yillik yoshini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ekspeditsiya tomonidan qo'lga kiritilgan yana bir muhim topilma saroy kompleksi pavilyonida aniqlangan Qoraxoniylar davriga oid devoriy suratlar hisoblanadi. Bundan tashqari ilk o'rta asrlarga oid devoriy suratlar ancha mushhur bo'lsada, ammo islom davriga oid tasviriylar san'at namunalari Markaziy Osiyo mintaqasida yagona hisoblanadi.

Ko'ktepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, u ikki qismdan: hukmdor saroyi va shahristondan iborat bo'lib, shimoliy-g'arbiy qismida otashparastlar ibodatxonasi joylashgan. Shaharning qadimiy asoslari mil.avv. XIII–X asrlarda vujudga kelgan. Shahar ikkita mudofaa devoriga ega bo'lib, mil.avv. III asrda mavjud bo'lgan.

Keyingi yillarda O'zbek-Fransuz ekspeditsiyasining asosiy e'tibori uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar davomida qo'lga kiritilgan topilmalarni tahlil qilish, nashr etish va muzeylashtirishga qaratilgan.

“Qadimgi Baqtriya shaharsozligi va mudofaa tizimlari” mavzusida Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy Markazi (CNRS) bilan hamkorlikdagi tadqiqotlari 1991-yildan boshlab mil. avv. I ming yillik o'rtalarida vujudga kelgan Eski Termiz (Surxondaryo

⁴⁰ Исамиддинов М., Рапен К. К стратиграфии городища Коктепа. Самарканд, 1999, ИМКУ № 30, стр. 68-79.

viloyati) yodgorligi hududida olib boriladi. Loyiha rahbarlari O'zbekistondan T. Annayev, Fransiya P. Lerish bo'lgan.

Eski Termiz yodgorligida O'zbek-Fransuz ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, shaharning qadimiy yadrosi mil.avv. I ming yillik o'rtalarida paydo bo'lib, keyinchalik uning atrofida shahar paydo bo'lgan. Yunon-Baqtriya davriga kelib Termiz arki va uning shimoliy-g'arbiy xududlaridagi yerlar bilan birgalikda, balkim, Chingiztepa hududlarini ham qamrab olgan yirik shahar markaziga aylanadi. Bu davrga kelib Termiz Yunon-Baqtriya davlatining shimoliy chegaralaridagi asosiy tayanch nuqtasiga aylanadi.

Keyingi yillarda O'zbek-Fransuz ekspeditsiyasining asosiy e'tibori uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar davomida qo'lga kiritilgan topilmalarni tahlil qilish, nashr etishga qaratilgan.

"O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy, janubiy va markaziy hududlarining tosh davri arxeologiyasi" mavzusidagi Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy Markazi (CNRS) bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Ekspeditsiya tadqiqotlari 2008-yilda boshlanib, Qizilqumning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan, Oyoqog'itma manzilgohida joylashgan. Loyiha rahbari M. Xo'janazarov, F. Brunet hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlandiki mil.avv. VII–V ming yilliklarga oid geomorfologik qatlamlar ko'rsatishicha, Qizilqum hududida birinchi bor ho'kiz-turlarni, tuya va echkilarni xonakilashtirish jarayonlari boshlangan. Shu bilan birgalikda, qadimda neolit davri o'simlik dunyosining ayrim turlariga oydinlik kiritildi. Birinchi bor neolit davri tosh qurollari trasologiyasi o'rganildi. Yodgorlikning qadimiy topografik xaritasi tuziladi. Oqchadaryo del'tasidagi neolit davri qabilarining iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy bosqichlari aniqlandi

va shu davrdagi neolit davri qabilalarining ekologik sharoitlari o'rganilgan.

“Qadimgi davr dafn marosimlari va shaharsozligining rivojlanishi” mavzusi Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy Markazi (CNRS) bilan hamkorlikda ishlanmoqda. Arxeologik tadqiqotlar 2008-yilda boshlanib, Janubiy O'zbekistonning bronza va ilk temir davri yirik yodgorligi-Jarqo'tonda joylashgan. Loyiha rahbarlari: S. Mustafoulov, M. Xasanov ⁴¹ X. Bendezu.

Tadqiqot maqsadi – Jarqo'ton 3 qabristonida va Jarqo'ton shahri qal'alarida yodgorlikning madaniy qatlamlarini stratigrafik o'rganish bo'lib, shu orqali yangi antropologik materiallarni qo'lga kiritish va ularni yangi antropologik usullar yordamida o'rganishdan iborat.

Arxeologik tadqiqotlarning asosiy yutuqlari quyidagilar:

- Jarqo'ton yodgorligida o'choqli karkas konstruksiyali yarim yerto'la turar-joylar aniqlandi;
- butun Baqtriya hududida bronza davriga oid sopol pishirish o'choqlari topilgan;
- Jarqo'ton-3 yodgorligida qadimgi Baqtriya ilk temir davrining dafn etish marosimlarining bir qancha turlari qayd etildi;
- Baqtriyada temirdan yasalgan aylana shakldagi buyum, antropomorf tasvirli sopol muhr, qo'y tasviri tushirilgan bronza surmadon topildi.

Keyingi yillarda O'zbek-Fransuz ekspeditsiyasining asosiy e'tibori uzoq yillik arxeologiya tadqiqotlari davomida qo'lga

⁴¹ Пардаев М. Х. “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2008-2009 йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар натижаларига бағишланган ҳисобот сессияси” йиғилиши ҳақида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2010, 1-нашри, 191-бет.

kiritilgan topilmalarni tahlil qilish, birgalikdagi monografik ish tayyorlashga qaratilgan.

“Buxoro vohasining o‘zlashtirilishi, moddiy madaniyati va urbanizasiya jarayonlari antik va o‘rta asrlarda”- mavzusi Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy Markazi (CNRS) bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Arxeologik tadqiqotlar 2010-yilda boshlanib, xalqaro ekspeditsiyaning e’tibori Buxoro vohasining yirik shahar markazlari – Poykend va Romitonga qaratilgan⁴². Loyiha rahbarlari – J.K. Mirzaahmedov, Rokko Rante hisoblanadi.

Arxeologik qazishmalar natijasida Poykend shahri Shahrison-1 da kechgan hayot tarzi, moddiy madaniyati va arxitekturasiga oid qiziqarli ma’lumotlar qo‘lga kiritilgan. Xom g‘ishtdan tayyorlangan dastlabki monumental arxitektura namunalariga Markaziy Osiyoda o‘ziga xos bo‘lgan karvonsaroylar misol bo‘lib, ular Buyuk ipak yo‘lining gullab-yashnashini va ushbu trassada joylashgan “savdogarlar shahri” – Poykendning o‘rnini ko‘rsatib beradi.

“Zarafshon vodiysi arxeologik yodgorliklarini kompleks o‘rganish” mavzusi Bolonya Universiteti (Italiya) bilan hamkorlikda tadqiqot o‘tkazilmoqda. Arxeologik izlanishlar 2000-yilda boshlanib tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi Samarqand So‘g‘didagi ilk agro-irrigatsion hududlarni aniqlash, tarixiy topografiyasini o‘rganish va urbanizatsion jarayonlarning dinamikasini ko‘rsatishdan iborat. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon vohasida 1000 ga yaqin yodgorliklar

⁴² Пардаев М. Х. “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2008–2009 йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар натижаларига бағишланган ҳисобот сессияси” йиғилиши ҳақида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2011, 1(2)-нашри, 147-бет.

aniqlanib, ulardan 540 tasi o'rganilgan. Ekspeditsiya materiallari "O'zbekiston arxeologik yodgorliklar katalogi. Samarqand viloyati. Samarqand shahri va uning atrofi", "O'zbekiston arxeologik yodgorliklar katalogi. Samarqand viloyati. Nurobod tumani" nashrlarini tayyorlashda foydalanilgan ⁴³.

"Markaziy Sug'dning dehqon va chorvadorlar aloqa zonalaridagi yodgorliklarni o'rganish" mavzusidagi tadqiqotlar Italiyaning Napoli Universiteti bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Arxeologik tadqiqotlar 2013-yilda boshlanib, izlanishlarning asosiy yo'nalishi Markaziy Osiyoning chorvachilik mintaqalarida joylashgan ziroatkorlar va chorvadorlarning aloqa hududlarida joylashgan yodgorliklarni o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, Samarqand viloyati Pastdarg'om viloyati Chandir qishlog'ida joylashgan Qo'ytepa yodgorligini o'rganish maqsad qilingan⁴⁴. Loyiha rahbarlari M. Pardaev, Jenito Bruno.

Arxeologik izlanishlar natijasida Markaziy So'g'dda antik davrda Darg'om bo'yida chorvadorlar va ziroatkorlarning o'zaro aloqalarini kuzatish imkonini beradi. Qo'ytepa shahri antik davrda ziroatkorlarni ko'chmanchilar hujumlaridan himoya qiluvchi mustahkamlangan chegara punkti bo'lgan.

"Markaziy Osiyo, Mo'g'iliston va Sibirda o'rta paleolit davri muammolari" mavzusi RFA Arxeologiya va etnografiya instituti (Novosibirsk sh.) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Toshkent viloyatida joylashgan Ko'lbuloq manzilgohi va Obirahmat g'orini

⁴³ Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С., Сorieв Х.Я. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1 – том, Самарқанд вилояти, 2 – қисм, Нуробод тумани, Самарқанд, 2015, "Zarafshon".

⁴⁴ Раҳимов К. "Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2015 йилда ўтказилган археологик тадқиқотларга бағишланган ҳисобот сессияси" хусусида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2016, 2(13)-нашри, 99-бет.

o'rganishga qaratilgan arxeologik izlanishlar 1998-yilda boshlangan⁴⁵. Loyiha rahbarlari S.R. Baratov, A.P. Derevyanko.

“Antik va o'rta asrlarda Buxoro Sug'dining shaharsozlik madaniyati” mavzusi Davlat Ermitaj Muzeyi (Sankt-Peterburg) bilan hamkorlikda ishlanmoqda. Hamkorlikdagi ishlar 1981-yilda boshlangan. Ekspeditsiya faoliyati Buxoro So'g'dining yirik shahar markazi-yozma manbalarda “savdogarlar shahri”, “mis shahar” nomlari bilan yaxshi ma'lum bo'lgan Poykendni o'rganishga qaratilgan⁴⁶. Loyiha rahbarlari – J.K. Mirzaaxmedov, A.V. Omelchenko.

Ko'p yillik tadqiqotlar natijasida Poykend yodgorligining arki, Shahristoni va Rabodining katta qismi ochilgan. Shaharning mudofaa tizimi, turarjoy kvartallari, rabot-karvonsaroylari aniqlangan. Poykend o'rta asrlar arxeologiyasi bo'yicha noyob etalon yodgorlikka aylandi, yodgorlik hududida qazishma ishlaridagi topilmalar saqlanuvchi va milliy va xorijlik turistlar tomonidan qiziqish bilan kuzatiluvchi Muzey yaratildi.

“Markaziy Osiyo madaniyati rivojlanish bosqichlari va tarixi” mavzusidagi tadqiqotlar Tezukayama va Kioto Universitetlari (Yaponiya) bilan hamkorlikda. Izlanishlar 2006-yilda boshlanib, Samarqand So'g'dining muhim shaharsozlik markazlari bo'lmish – Dabusiya va Kofirqal'ani o'rganishga qaratilgan⁴⁷. Loyiha rahbarlari – A.E. Berdimuradov, Uno Takao.

⁴⁵ Раҳимов К. “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2015 йилда ўтказилган археологик тадқиқотларга бағишланган ҳисобот сессияси” хусусида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2016, 2(13)-нашри, 99-бет.

⁴⁶ Раҳимов К. “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2015 йилда ўтказилган археологик тадқиқотларга бағишланган ҳисобот сессияси” хусусида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2016, 2(13)-нашри, 99-бет.

⁴⁷ Пардаев М. Х. “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2008-2009 йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар натижаларига бағишланган ҳисобот

Arxeologik izlanishlar natijasida Samarqand viloyati Paxtachi tumanida joylashgan Dabusiya yodgorligini o'rganilib, qadim shahar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Arkda, Shahriston va Rabodda olib borilgan izlanishlar yakunida shahar antik va o'rta asrlarda So'g'dning yirik madaniy va iqtisodiy markazi bo'lganligini ko'rsatdi. 2006–2012-yillardagi tadqiqotlar natijalari hamkorlikdagi monografiyada umumlashtirilgan: “Qal'a-i-Dabusiya-Buyuk ipak yo'lidagi So'g'd shahri. Markaziy Osiyoning shahar markazlaridagi ilmiy tadqiqotlar.” Kioto–2013.

2014-yildan arxeologik izlanishlar Samarqand hukmdorlari “ixshidlar”ning rezidensiyasi bo'lmish, Samarqand yaqinidagi Kofirqal'a yodgorligida davom ettirildi. Izlanishlarning asosiy maqsadi yodgorlik va uning atrofini o'rganishdir. Shuningdek, Markaziy Zarafshonning antik va o'rta asrlardagi irrigatsion sistemalarini o'rganish, yodgorliklarni xaritalashtirish, geofizik o'rganish hisoblanadi.

“Toshbuloq (Jizzax viloyati, Baxmal tumani) qadimiy yodgorligi va u bilan bog'liq bo'lgan Jizzax, Samarqand, Navoiy viloyatlardagi qadimiy yodgorliklarda arxeologik izlanishlar” mavzusidagi tadqiqotlar Sent–Lyuis Vashington Universiteti (AQSh) antropologiya Departamenti bilan hamkorlikda. Tadqiqotlar 2015-yilda boshlangan. Ekspeditsiyaning izlanishlari Toshbuloq (Jizzax viloyati, Baxmal tumani) yodgorligi va uning atrofini o'rganishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyatida joylashgan Pomir tog' tizmasi Molguzar qirlaridagi yashagan tog' chorvador qabilalarining madaniyati, atrof muhit bilan munosabatlari,

сессияси” йиғилиши ҳақида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2010, 191-бет.

ekologiyasi, xronologiyasini o'rganishdir⁴⁸. Loyiha rahbarlari – F. Maqsudov, M. Frachetti.

Tadqiqotlarning asosiy natijalari:

- Toshbuloq qadimiy shahrining qurilishlarini Ground Penetrating Radar – GPR yordamida geofizik xaritasi tasvirini yaratish yakunlanganligi;

- Toshbuloq shahar manzilgohini paydo bo'lishi, o'zlashtirilishi va tashlab ketilishiga va atrof-muhit bilan aloqalariga oid masalalar yechimi tugallanganligi;

- Yodgorlikning xronologiyasi, arxitekturasi, dafn etish marosimlari, iqtisodi, ishlab chiqaruvchi sanoati oydinlashtirilganligi hisoblanadi.

“O‘zbekiston hududidagi qadimiy va o‘rta asrlarga oid voha devorlari (Kampirdevor)” mavzusini tadqiq etish N'yu-York Universiteti (AQSh) “Qadimgi dunyoni o'rganish Instituti” bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Tadqiqotlar 2011-yilda boshlangan. Izlanishlarning asosiy maqsadi mudofaa inshootlarining tuzilishini, qurilish bosqichlarini va Dunyoning yetti mo'jizalaridan biri bo'lmish Buyuk Xitoy devoriga o'xshash bo'lgan Buxoro vohasining ushbu devori nima maqsadda qurilganligini aniqlashdan iborat bo'lgan. Loyiha rahbarlari – J.K. Mirzaaxmedov, Soren Stark. O'zbek-amerikan tadqiqotchilarining zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holdagi hamkorlikdagi izlanishlari natijasida devorning Buxoro vohasining Janubiy, Sharqiy, Shimoliy va G'arbiy qismlaridagi qoldiqlari ochildi. Devor ikki bosqichda: V asr va VIII asr oxiri – IX asr boshlarida

⁴⁸ Раҳимов К. “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2015 йилда ўтказилган археологик тадқиқотларга бағишланган ҳисобот сессияси” хусусида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2016, 2(13)-нашри, 99-бет.

qurilganligi aniqlandi. Mudofaa inshooti devori, qal'a, minoralar, darvozalar qurilish tartibi o'rganildi.

“Tyan Shan tog' tizmasining g'arbiy tarmoqlaridagi arxeologik tadqiqotlar” mavzusidagi tadqiqotlar XXR Shimoliy-g'arbiy Universiteti bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar 2014-yilda boshlangan. Ekspeditsiyaning izlanishlari O'zbekiston respublikasining Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari hududlaridagi ko'chmanchilar yodgorliklarini o'rganishga qaratilgan⁴⁹. Loyiha rahbarlari – A.E. Berdimuradov, Vang Szyan Sin.

2014–2015-yillarda Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyati hududlaridagi ko'chmanchilarning qabristonlari joylashgan yodgorliklar monitoringi olib borildi. Bir qancha oldin ma'lum bo'lmagan qabristonlar – Zinak (Samarqand), Qaynar (Qashqadaryo), To'da (Surxondaryo) aniqlangan. Antik davrga oid Sozog'on qabristonlari guruhi kompleks o'rganilmoqda. O'zbek–Xitoy ekspeditsiyasi tomonidan zamonaviy ilmiy tadqiqot usullarida mozor-qo'rg'onlarning o'rganilishi O'zbekistonning xalqlarining qadimgi va o'rta asrlardagi madaniyati, iqtisodi va etnik genezisi haqidagi bilimlarimizni to'ldiradi.

“Markaziy Osiyoning shimoliy-sharqiy hududlari qadim va ilk o'rta asrlarda: qadimgi Sharq sivilizatsiyasi va madaniyatining o'zaro ta'sirlari” mavzusidagi tadqiqotlar XXR Pekin Arxeologiya instituti bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Izlanishlar 2012-yilda boshlangan. Ekspeditsiyaning tadqiqotlari Farg'ona vohasining qadimiy

⁴⁹ Жоу Синг, Б. Сайфуллаев, Грот Тода-1 - новая неолитическая стоянка в Байсунтау (Узбекистан). Археология Узбекистана. 2018. № 2 (17), стр. 148-157.

shahar markazlaridan biri bo'lgan – Mingtepaga yo'naltirilgan⁵⁰. Loyiha rahbarlari B.X. Matbabaev, Ju Yanshi.

2012–2015-yillarda arxeologik izlanishlar qadim shaharning 16 ta nuqtasida olib borilib, qadimgi shaharning mudofaa tizimi tuzilishi, stratigrafiyasiga oid ma'lumotlar olindi. Xususan, Mingtepaning mudofaa tizimlari haqida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Andijon viloyatida Mingtepa yodgorligining arxeologik o'rganilishi Qadimgi Farg'ona davlati Dovon shaharsozligi tarixiga oid yangi ma'lumotlar bergan.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Toshkent shahrida Milliy arxeologiya markazi tashkil etiladi⁵¹. Samarqand arxeologiya instituti esa uning filialiga aylantirilgan edi.

2022-yil 31-avgustda Samarqand arxeologiya instituti qayta tashkil etilishi⁵² bilan arxeologiya tadqiqotlari yangi bosqichga ko'tarilishi kutilmoqda.

Shunday qilib, o'zbek arxeologiyasi maktabi turli murakkab sharoitlarda shakllanganligini kuzatishimiz mumkin.

Bugungi kunda moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyektlarining soni 8208 tani tashkil etib, ularning 4748 tasi arxeologiya merosi obyektlari hisoblanadi⁵³.

⁵⁰ Раҳимов К. “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 2015 йилда ўтказилган археологик тадқиқотларга бағишланган ҳисобот сессияси” хусусида. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2016, 2(13)-нашри, 99-бет.

⁵¹ Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сонли қарори. Lex.uz.

⁵² Ўзбекистон Республикасида археология соҳасидаги тадқиқотларни янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 31 августдаги 485-сонли қарори. Lex.uz.

Arxeologiya merosi obyektlari madaniy meros obyektlarining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, insoniyat tarixini qadimgi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va uzoq asrlar osha bizgacha yetib kelgan moddiy madaniyat manbalari asosi hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston dunyoning eng qadimgi madaniy mintaqalaridan biri bo'lib, uning hududida bir necha ming yillar davomida sivilizatsiyaviy taraqqiyot jarayoni davom etib kelgan. Bu yerda antik Yunonistonga, Rimga, Eron Ahamoniylari davriga tengdosh bo'lgan Baqtriya, So'g'd, Xorazm va Farg'ona kabi davlatlarining shakllanganligi hamda Sharq va G'arbni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li ham aynan shu hududdan o'tganligi tasodifiy hol emas.

Asrlar davomida sivilizatsiyaviy muloqot markazlaridan biri hisoblangan O'zbekiston hududida ilm-fan va boshqa sohalar bilan birga, shaharlar qurish madaniyati ham qadimdan rivojlanib, takomillashib kelgan. Hatto, turli tarixiy davrlarda vayronagarchiliklar keltirgan istilolar ham mintaqaning olg'a qarab dinamik rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

Yuqorida tilga olingan vayronalar ostida ming yillardan darak beruvchi tarix sahifalari yashiringan. Bu sahifalarni birma-bir varaqlab, xalqimizga yetkazish, tariximizni xolisona o'rganish, albatta, arxeologiya sohasi bilimdonlarining mashaqqatli mehnati bilan amalga oshadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish, restavratsiya qilish, ta'mirlash va saqlash borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Tarixiy obidalarni tiklash, konservatsiya va restavratsiya qilish masalalari

⁵³ Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 октябрдаги 846-сонли қарори. Lex.uz.

ilm-fan ahli, hunarmandlar va mutaxassislar oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda, ya'ni tarixiy-madaniy hamda tabiiy obyektlarni muzey obyektlariga aylantirishni taqozo etmoqda⁵⁴.

Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida o'z yechimini kutib yotgan bir qancha muammolar mavjud. Bu muammolarni o'z vaqtida hal qilinmasa, obyektlarga zarar yetishi davom etaveradi, shu bilan birga ularning yo'qolib ketish havfi ortib boradi.

Biz jadal rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Buning albatta, ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Shuning uchun ham hozirgi paytda rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish⁵⁵ zarur.

Hozirgi paytdagi mamlakatimizda mavjud bo'lgan arxeologiya yodgorliklarini saqlashga doir asosiy muammolar:

- Arxeologiya yodgorliklarining qabristonga aylantirib yuborilayotganligi;

- yer ajratishda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan madaniy meros obyektlari hududlaridan xo'jalikda foydalanish uchun joy ajratilishi;

- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan arxeologiya obyektlariga zarar yetkazilishi;

- tabiiy ofatlar natijasida arxeologiya obyektlariga zarar yetishi kabilarni tashkil etadi.

⁵⁴ Ахмедов Ж.З. Фарғона водийсидаги тарихий-маданий ёдгорликларни музейлаштириш (XIX-XXI асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021, 5-бет.

⁵⁵ Яркулов А. Археология мероси объекtlарини муҳофаза қилишнинг долзарб муаммолари ва ечимлари қандай? Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. Uza. <https://uza.uz>. 13:59 / 12.07.2021.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyida ba'zi bir fikr-mulohaza va takliflarni ilgari surmoqchimiz.

1. Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilishning dolzarb muammolari va yechimlari haqida takliflar.

Arxeologiya merosi obyektlarini saqlab qolish va ulardan foydalanish uchun birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Halokat yoqasiga kelib qolgan arxeologiya merosi obyektlarining ro'yxatini shakllantirish va ilmiy-ekspert kengashiga kiritib, ularda bosqichma-bosqich zudlik bilan arxeologiya tadqiqotlarini o'tkazish.

Agar antropogen yoki texnogen sabablar natijasida yo'qolish xavfi ostida qolgan obyektlarni bugun o'rganmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. Ular butunlay yo'q bo'lib ketishi, moddiy madaniyatimizning ma'lum bir qismi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Ularni saqlab qolishning oqilona yo'li bu – ularda arxeologiya tadqiqoti o'tkazib, muzeylashtirish yoki konservatsiyalash bo'lib hisoblanadi. Yangi aniqlangan arxeologiya merosi obyektlarini ilmiy-ekspert kengashiga kiritib, moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritish chorasini ko'rish.

Arxeologiya tadqiqotlari, jumladan, arxeologiya qidiruvlari natijasida aniqlangan yangi obyektlarni ekspertizadan o'tkazib, zudlik bilan moddiy madaniy meros obyektlarining milliy ro'yxatiga kiritish lozim. Shunda ularning muhofazasi ishonchliroq ta'minlangan bo'ladi.

1. Arxeologiya merosi obyektlarining katalogini yaratishni davom ettirish.

Ushbu tadbirning amalga oshirilishi arxeologiya merosi obyektlarining ommalashuviga, ilmiy muomalaga kiritilishiga yo'l ochadi.

2. Qazishma ishlari o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlari ro'yxatini shakllantirish.

Qazishma o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlarini ro'yxatini shakllantirish orqali moddiy madaniy merosimizning o'rganilish darajasi va ularning o'rganilmagan qismi haqida ma'lum bir fikr yuritish uchun kelgusida arxeologiya sohasida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish uchun asosiy yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

3. Qazishma o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish va ularni turizm obyektiga aylantirish.

Hozirgi kunda qazishmalar o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlarining deyarli hech qaysisi to'lig'icha konservatsiya qilinmagan. Bu esa arxeologiya merosi obyektlarining holati yomonligicha qolishiga va qisman yo'qolishiga olib keladi.

Qazishma olib borilgan arxeologiya obyektlarini konservatsiya qilinishini yo'lga qo'yiladigan bo'lsa, birinchidan obyekt saqlanib qoladi, ikkinchidan turizm obyekti sifatida iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar sirasiga quyidagilar kiradi:

4. Arxeologiya merosi obyektlariga muhofaza belgilarini o'rnatishni nihoyasiga yetkazish.

Arxeologiya merosi obyektlariga muhofaza belgilarini o'rnatish bu – fuqarolarga ogohlantirish yoki aniq belgilangan hudud ekanligini ko'rsatish bo'ladi.

5. Aholi punktlari va qishloq xo'jaligi ekin maydonlari orasida qolib ketgan arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza hududi bilan birga to'siqlar yoki sim to'rlar bilan o'rab olish.

Biz jadallik bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Buning albatta ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Shuning uchun ham hozirgi paytda rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish uchun aholi punktlari va qishloq xo'jaligi ekin maydonlari orasida qolib ketgan arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza hududi bilan birga to'siqlar yoki sim to'rlar bilan o'rab olish zarur. Bu tadbir ularning saqlab qolinishini ta'minlaydi. Qabriston sifatida foydalanilayotgan arxeologiya merosi obyektlaridan qabriston sifatida foydalanishga chek qo'yish va qabristonlar uchun boshqa joy ajratish.

Hozirgi kunda ko'plab arxeologiya merosi obyektlaridan qabriston sifatida foydalanib kelinmoqda. Bu holat arxeologiya merosi obyektlarining buzilib ketishiga olib kelmoqda.

Agar bu muammo hal qilinmasa, arxeologiya merosi obyektlari buzilishda davom etaveradi.

1. Arxeologiya ashyolari elektron davlat katalogini yaratish. Uni yaratishga zudlik bilan mablag' ajratish kerak bo'ladi. Shunday qilinsagina arxeologiya ashyolarining qayerda va qanday saqlanishini nazorat qilish osonlashadi.

2. Arxeologiya merosi obyektlarini xaritalashtirish. Har bir obyektning joylashgan joyi haqida ma'lumotlar olish uchun kerak bo'ladi.

3. Arxeologiya obyektlarining 3D maketlarini yaratish. Bu arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish uchun kerak bo'ladi.

4. Arxeologiya tadqiqotlari o'tkazilayotgan paytda madaniy meros boshqarmalaridan yoki arxeologiya ashyolari topshirilishi rejalashtirilgan muzeylardan mas'ul shaxslarni biriktirish.

5. Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish uchun Madaniy meros agentligi va hududiy boshqarmalarning mas'ul xodimlarini avtomashina bilan ta'minlash.

6. Mahalliy hokimiyatlardagi yer ajratish komissiyalari faoliyatida Madaniy meros agentligi yoki hududiy boshqarmalardan vakillar ishtirokini ta'minlash. Hozirgi paytda turli maqsadlarda yer ajratilayotganligi uchun, madaniy meros obyektlari, jumladan arxeologiya merosi obyektlariga zarar yetkazilmoqda yoki ularning hududlari foydalanish uchun berib yuborilmoqda.

7. Arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va saqlashda jamoat nazoratini yo'lga qo'yish va mahalla fuqarolar yig'ini (MFY) rolini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 265-sonli qarorida madaniy meros obyektlariga jamoatchi inspektorlar biriktirish belgilangan⁵⁶. Lekin jamoatchi inspektorlarda moddiy manfaatdorlik bo'lmaganligi uchun yoki kam bo'lganligi uchun ko'zlangan sifat darajasiga erishilmadi.

1. Arxeologiya merosi obyektlari haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.

⁵⁶ Моддий маданий мерос объекtlарини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишга оид айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 мартдаги 265-сонли қарори. Lex.uz.

To'g'ri, arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish ishlarida hamda ularni ommalashtirish maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilinib kelinmoqda. O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasining "O'zbekiston tarixi", "Mahalla", "O'zbekiston 24", "Dunyo bo'ylab" telekanallarida hamda "Mahalla", "O'zbekiston 24" radiokanallarida ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar sekin-asta bo'lsada o'z natijasini bermoqda. Lekin hali bu yetarli deb o'ylamaymiz.

2. Arxeologiya merosi obyektlari kadastr hujjatlarini to'liq shakllantirish.

Hozirgi kunda respublika bo'yicha 97% madaniy meros obyektlarining kadastr hujjatlari rasmiylashtirilgan bo'lsada, ularda obyektning muhofaza tegrasi va qo'riqlanadigan tegralari deyarli aks ettirilmagan.

Arxeologiya merosi obyektlarini aniq chegarasi va muhofaza hududini belgilanmaganligi oqibatida xo'jalik yuritish subyektlari bilan huquqiy muammolar kelib chiqmoqda.

Buning oldini olish uchun albatta birinchi navbatda ularning aniq chegarasi va muhofaza hududini belgilash shart hisoblanadi va bu bugungi kundagi juda ko'p muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

3. Arxeologiya merosi obyektlariga zarar yetkazilganlik bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish. Javobgarlikni kuchaytirish bo'yicha keyingi yillarda bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi⁵⁷.

⁵⁷ Моддий маданий мерос объектларининг муҳофаза қилиниши кучайтирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 август, ЎРҚ-560-сонли қонуни. Lex.uz.

4. Aholi punktlari va qishloq xo'jaligi ekin maydonlari orasida qolib ketgan arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza hududi bilan birga to'siqlar yoki sim to'rlar bilan o'rab olish zarur. Bu tadbir ularning saqlab qolinishini ta'minlaydi.

Ushbu takliflarga yetarlicha mablag' ajratiladigan bo'lsa, arxeologiya obyektlarining saqlanish holati ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin.

Shunday qilib, arxeologiya sohasidagi ba'zi muammolarning yechimini ijobiy hal qilinsa, bu sohadagi yutuqlar sari tashlangan qadam bo'lar edi.

2. Ochiq osmon ostidagi muzeylarni tashkil etish uchun takliflar.

Arxeologiya obyektlarini ochiq osmon ostidagi muzey sifatida muhofaza qilish va saqlash bir qancha imkoniyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin:

- yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratiladi;
- doimiy nazorat ostida saqlanadi.

Arxeologiya obyektlarini ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish uchun:

- ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirishda jahon tajribasini o'rganish;
- arxeologiya obyektlarini konservatsiya qilish;
- ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirishda arxeologiya obyektiga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish;
- investisiya jalb etish;
- yangi texnologiyalardan foydalanish talab etiladi.

Quyidagi respublika bo'ylab eng ko'pchilikka ma'lum bo'lgan arxeologiya merosi obyektlarini ochiq osmon ostidagi muzeylarga

aylantirish taklif etiladi: 1. Andijon viloyatida Mingtepa 2. Farg'ona viloyatida Quva shahristoni 3. Namanganda Qadimgi Pop 4. Toshkent shahrida Chilonzor Oqtepesi 5. Toshkent viloyatida Kanka 6. Sirdaryo viloyatida Eski Xavas 7. Jizzax viloyatida Qaliyatepa 8. Samarqand viloyatida Afrosiyob 9. Qashqadaryo viloyatida Yerqo'rg'on 10. Surxondaryo viloyatida Dalvarzintepa 11. Navoiy viloyatida Nur qal'asi 12. Buxoro viloyatida Poykent 13. Xorazm viloyatida Xumbuztepa 14. Qoraqalpog'iston Respublikasida Akshaxan qal'a⁵⁸.

Keyinchalik tarixdagi ahamiyatiga qarab boshqa arxeologiya obyektlarini ham ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish mumkin.

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya va restavratsiya qilish orqali turizm obyektlarini ko'paytirish hamda yangi yo'nalishlarni tashkil etish mumkin bo'ladi.

3. Sayyohlarning arxeologiya obyektlariga sayohatini tashkil etish va arxeologiya qazishma ishlariga jalb qilish bo'yicha takliflar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi va "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari hamda qonunosti hujjatlariga muvofiq sayyohlarni arxeologiya obyektlariga tashrifi va arxeologiya qazishma ishlarida ishtirokini amalga oshirish mumkin.

⁵⁸ Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрь, ПҚ-4068-сонли қарори. Lex.uz.

2. Sayyohlarning qazishma ishlarida bevosita ishtirok etishi uchun arxeologiya merosi obyekti to'g'risida ko'proq ma'lumot olish imkonini yaratish.

3. Xalqaro tajribada (Misr, Gresiya va Rossiya) sayyohlarning arxeologiya obyektlarida olib borilayotgan qazishma ishlarida qatnashishi yo'lga qo'yilgan. Bunda arxeologiya obyektiga zarar yetkazmaslik choralari ko'rilishi shartligini belgilab qo'yish.

4. Sayyohlarning arxeologiya obyektlariga sayohatini tashkil etish va arxeologiya qazishma ishlarida ishtirok etishi bo'yicha xalqaro tajribalar asosida "Yo'riqnoma" ishlab chiqish.

5. Arxeologiya obyektlari va ularda olib borilishi rejalashtirilgan tadqiqotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni arxeologiya qazishmalari olib boruvchi muassasalar hamda sayyohlik agentliklari saytlariga joylashtirish.

6. Arxeologiya obyektlarida olib borilayotgan qazishma ishlari sayyohlar uchun ochiq bo'lishi va ularga ekspeditsiyada qatnashishga ruxsat etish.

7. Arxeologiya tadqiqotlari olib boriladigan arxeologiya merosi obyektlarini sayyohlik yo'nalishiga kiritish.

8. Arxeologiya tadqiqotlari olib boriladigan arxeologiya merosi obyektlariga olib boruvchi yo'llarni ta'mirlash, yo'l ko'rsatgichlar o'rnatish;

9. Arxeologiya merosi obyektlari yaqinida muhofaza hududi hisobga olingan holda infratuzilmani yaratish (oshxona, mehmonxona, hojatxona qurish).

10. Tarixan katta ahamiyatga ega bo'lgan arxeologiya merosi obyektlari yaqinida muzeylar qurish.

11. Arxeologiya obyektlarining muhofaza hududi hamda muhofaza belgilarini o'rnatish ishlarini mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o'rnida O'zbekiston arxeologiyasining kelgusidagi dolzarb bo'lgan hamda amalga oshirilishi shart bo'lgan tadbirlar quyidagilar hisoblanishini ta'kidlashimiz lozim bo'ladi:

1. Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilgan holda saqlab qolish choralarini ko'rish.

2. Arxeologiya merosi obyektlarini "Ochiq osmon ostidagi muzeylar" ga aylantirish.

3. Arxeologiya merosi obyektlari negizida arxeologiya parklarini yaratish.

4. Arxeologiya tadqiqotlari natijalarini keng xalq ommasiga yetkazish maqsadida ko'rgazmalar o'tkazishni kuchaytirish.

5. Omma orasida arxeologiya merosi obyektlarini targ'ib qilish va xabardorlikni oshirish.

Ushbu chora-tadbirlarni arxeologiya merosi obyektlari uchun keng ravishda qo'llab, amaliyotga tadbiiq etilishi ularni muhofaza qilish va foydalanishni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

I.2. Arxeologiya obyektlarini konservatsiyalash usullari

Arxeologiya fanining vujudga kelishi va arxeologiya tadqiqotlarining rivojlanib borishi bilan o'tmish zamonlar haqida ko'plab bilimlar, yangidan-yangi kashfiyotlar qilinmoqda. Shu bilan birga, arxeologiya tadqiqotlari natijasida ochilgan arxeologiya obyektlarini konservatsiya qilish ishlarini amalga oshirish dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Butun jahonda arxeologiya turizmi tez o'sib borayotgan turizm sohalaridan biri hisoblanadi.

Arxeologiya turizmi (ba'zan arxeoturizm deb nomlanadi) qadimiy va tarixiy joylarni ziyorat qilishga qaratilgan sayohat hisoblandi. Arxeologiya turizmi muzeylar, tarixiy joylarga tashrif buyurishni, arxeologiya tadqiqotlarini o'z ko'zi bilan ko'rishi, ishtirok etishi, an'anaviy ko'rgazmalar, etnografik ma'lumotlar bilan tanishish, festivallar va boshqa tadbirlarda qatnashish imkonining borligi bilan ahamiyatga egadir.

Madaniy meros obyektlariga bo'lgan munosatlarni so'rov orqali aniqlash bo'yicha turli mamlakatlarda tadqiqotlar o'tkazilgan. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi madaniy meros haqida odamlarning fikri, ularga munosabati va xabardorligini bilish bo'lgan.

Shunday tadqiqotlarning bir nechasi 2011, 2015 va 2017-yillarda Polshada madaniy merosga bo'lgan munosabatlarni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rov edi. Yevropa darajasida Yevrobarometr tadqiqotining eng asosiy kuzatuvlari 2017-yil juda optimistik bo'ldi. Yevropaliklarning aksariyati madaniy deb hisoblashgan hamda shaxsan ular uchun madaniy merosni muhim deb hisoblashgan (84% yevropaliklar va polyaklar

“muhim” va “juda muhim” deb javob berishdi) va o‘z mamlakatlarida yevropaliklarning 91%, polyaklarning 89% “muhim” va “juda muhim” deb javob berdi (Evropa komissiyasi 2017, 21-4)⁵⁹.

Xuddi shunday yuqori natijalar ham ikki yil oldin so‘rovida olingan bo‘lib, tegishli javoblar 86% va 85%⁶⁰ bo‘lgan.

So‘rovlar madaniy meros sirasiga kiruvchi 14 ta kompanentlarning har biri bo‘yicha alohida fikr ham so‘ralgan.

Xavotirli tomoni shundaki, respondentlarning 82,5 foizi arxeologik obyektlarni 14 tadan 12-o‘ringa baholagan. Faqat arxivlar va texnik yodgorliklar unchalik qadrlanmagan (Fortuna-Marek va Stepnik 2017, 33-5) va bu ba‘zan umuman yodgorliklar sifatida qabul qilinmaydigan toifalar⁶¹ hisoblanadi.

Shundan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda ham aholi o‘rtasida arxeologiya merosi obyektlari haqida ayniqsa, arxeologiya merosi obyektlari to‘g‘risida to‘liq va keng tushunchalar ommalashmagan. Bu bizning mamlakatimizga ham xos bo‘lgan hodisadir.

Ko‘pchilik hollarda arxeologiya merosi obyektlarini tarixchi yoki arxeolog bo‘lmasa tabiiy tepaliklardan ajrata olishmaydi. Natijada arxeologiya merosi obyektiga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish, zarar yetkazish yoki vandalizm kabi holatlarning guvohi bo‘lamiz.

⁵⁹ Oniszcuk, A. 2021 A Tricky Subject – archaeology in opinion polls on cultural heritage. Recent examples from Poland, Internet Archaeology 57. <https://doi.org/10.11141/ia.57.14>

⁶⁰ Oniszcuk, A. 2021 A Tricky Subject – archaeology in opinion polls on cultural heritage. Recent examples from Poland, Internet Archaeology 57. <https://doi.org/10.11141/ia.57.14>.

⁶¹ Oniszcuk, A. 2021 A Tricky Subject – archaeology in opinion polls on cultural heritage. Recent examples from Poland, Internet Archaeology 57. <https://doi.org/10.11141/ia.57.14>.

Polsha respondentlarining atigi 8 foizi arxeologiya hayot sifatiga hissa qo'shishi mumkin deb o'ylashgan. Boshqa tomondan, polyaklar tomonidan arxeologiyaga tegishli asosiy rollar, ya'ni Polsha tarixini bilish (57%), o'rganish va madaniy merosni himoya qilishda ishtirok etish (47%), tarixni yosh avlodlarga yetkazish (44%), kelajakni yaxshiroq ko'ra bilish uchun o'tmishni tushunish (40%) va o'z madaniyatini hurmat qilish, bizning umumiy o'tmishimiz orqali dunyodagi o'rnini belgilash (30%) juda murakkab jarayon va kundalik hayotga aloqasi yo'qdek ko'rinadi⁶².

Arxeologiyani saqlashdagi asosiy muammolarning aksariyati resurslarni tashkil etuvchi arxeologik boylik materiallarining buzilishi bilan bog'liq. Buzilish manbalari ekologik va texnogen sabablarning ikkalasini ham qamrab oladi. Artefaktlar tabiiy jarayonlar tufayli yomonlashishi mumkin, e'tiborsizlik, vandalizm kabi inson omillari, haddan tashqari noto'g'ri foydalanish va boshqarish, bularning barchasi o'tmishdagi o'rinsiz yondashuvlar va muhofaza qilinmasligi bilan bir qatorda rol o'ynaydi.

Shu o'rinda aytib o'tadigan bo'lsak, arxeologiya merosi obyektlarini saqlash va muhofaza qilishning eng samarali yo'li bu ularni konservatsiya qilish va muzeylashtirish hisoblanadi. Shu bilan birga, targ'ib qilish va ommalashtirish ham muhim rol o'ynaydi.

Konservatsiyaning asosiy maqsadi arxeologik merosni moddiy yo'qotish va shikastlanishdan himoya qilish va uning qadriyatlarini saqlab qolishdir. Bunga holatining yomonlashuv

⁶² Oniszczyk, A. 2021 A Tricky Subject – archaeology in opinion polls on cultural heritage. Recent examples from Poland, Internet Archaeology 57. <https://doi.org/10.11141/ia.57.14>.

sabablarini bartaraf etish yoki yumshatishga qaratilgan profilaktika yoki tuzatuvchi himoya tadbirlari orqali erishiladi.

Shunday qilib, merosning muhofaza qilish mumkin bo'lgan usullariga uni o'rganish va namoyish qilish orqali talqin qilinishi va jamoatchilikka qanchalik ochiqligi bevosita ta'sir qiladi. Xususan, bu to'g'ridan-to'g'ri obyektlarlarning ko'rinishi va vizual holatiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida haqiqiylik haqidagi tasavvurlarni chalg'itishi mumkin⁶³.

Yurtimizda arxeologiya merosi obyektlari madaniy meros obyektlarining 55%idan ortig'ini tashkil etishi bilan birga, ulardan deyarli foydalanilmaydi.

Mamlakatimizda arxeologiya tadqiqotlarini o'tkazish havas qilsa arzigulik darajada rivojlangan. Lekin, shu bilan birga, ayrim hollarda arxeologiya tadqiqotlarining ajralmas bir qismi bo'lgan konservatsiyalashga ko'p ham e'tibor berilmaydi. Natijada qazishma o'tkazilgan obyektlarga zarar yetkazilishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar ularning ko'pchiligida tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramasdan, faqatgina birlamchi konservatsiya ishlari amalga oshirilgan xolos. Bunda qazishmalar ko'mib qo'yiladi xolos. Oxirgi yillarda olib borilgan qazishmalarni kuzatish natijalariga ko'ra, keyingi paytlarda birlamchi konservatsiyalashda polietilen materiallaridan foydalanilmoqda. Polietilen ochib o'rganilgan obyekt qismlarini ko'mish uchun ishlatilgan tuproq qatlamidan ajratib turish uchun qo'llanilgan. Bunday usul aksariyat hollarda obyekt uchun foydadan ko'ra ziyoniga ishlarimoqda. Sababi, polietilen materiallari bilan

⁶³ Ndoro W. Conservation and Management of Archaeological Heritage Resources. Published by the International Centre for the Study of the Preservation and Restoration of Cultural Property (ICCROM), Via di San Michele 13, 00153 Rome, Italy. 2018, page.18.

qoplangan qazishma qismlaridan namlikning yuqoriga tabiiy yo'l bilan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Majoziy ma'noda aytadigan bo'lsak polietilen uning "nafas olishi"ga yo'l bermaydi. Bu esa, obyektning ochib o'rganilgan qismlarida eroziya holatini kuchaytiradi. Doimiy namlik uni tezda yemirilishiga olib keladi.

Shuning uchun, polietilen materiallaridan foydalanmaslik yoki foydalanilgan taqdirda ham pastdan yuqoriga harakatlanayotgan namlikning chiqib ketishi uchun unda teshikchalar hosil qilinishi kerak bo'ladi. Bu ochilgan madaniy qatlamlardagi namlikning oshib ketmasligi, normal holatda saqlanishiga xizmat qiladi.

Ko'pgina arxeologiya merosi obyektlariga zarar yetkazilishi yoki butunlay yo'q bo'lib ketishi holatlari kuzatilmoqda. Albatta, bunga turli omillar sabab bo'lmoqda, jumladan, antropogen va tabiiy ta'sirlar ularning orasida salmoqli o'rin tutadi.

Bunday holatlarning oldini olishning eng samarali yo'li ularni tadqiq qilish va keyingi bosqichda konservatsiyalash yoki muzeylashtirilgan holda turizm obyektiga aylantirish hamda namoyish etish orqali foydalanishni yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish jadallik bilan amalga oshirilishi fonida arxeologiya merosi obyektlarini ham ularni muhofaza qilish va saqlash bilan birgalikda konservatsiya qilish va muzeylashtirilgan holda namoyish obyektlariga aylantirish uchun hukumatimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4068-sonli qarorida bir qator

arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish ko'zda tutilgan edi⁶⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 119-son qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan "2021–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi tomonidan YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxati, Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxati, Jahon xotirasi ro'yxatiga madaniy va tabiiy meroslarni kiritishga ilgari surish bo'yicha milliy reja" qabul qilingan⁶⁵. Unda YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish uchun nomzod arxeologiya merosi obyektlari belgilab qo'yilgan.

Ushbu obyektlarni Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish uchun ularda qat'iy muhofaza qilish va saqlash tartibi o'rnatilishi bilan birga konservatsiyalash ishlari va alohida boshqaruv amalga oshirilishi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5150-sonli qarorining 2-bandi g) kichik

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги "Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4068-сонли қарори, 1-илова, 19-банди.

⁶⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги "Моддий маданий мерос объектлари ва ЮНЕСКОнинг умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган ҳудудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 119-сон қарорининг 5-илоvasи.

bandida⁶⁶ Madaniy meros agentligining vazifalaridan biri sifatida arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, halokat yoqasidagi arxeologiya obyektlarida zudlik bilan tadqiqot o'tkazilishini ta'minlash, arxeologiya obyektlarini konservatsiyalash, muzeylashtirish hamda arxeologiya parklarini yaratish etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-261-sonli qarori 5-bandida arxeologiya yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, konservatsiyalash va ularda ochiq osmon ostida muzey tashkil etish hamda uni turizm obyektiga aylantirish choralarini ko'rish belgilangan bo'lib, 8-ilovasi bilan tasdiqlangan 2023–2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining manzilli rejasi ishlab chiqilgan⁶⁷.

Yuqoridagilar kabi hukumatimiz tomonidan bir qancha qarorlarning qabul qilinishi arxeologiya merosi obyektlariga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Albatta, bu sohadagi jiddiy o'zgarishlarga olib keluvchi dastlabki qadamlardan hisoblanadi.

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash bo'yicha mustaqillik yillarida bir necha ishlar qilingan bo'lib, ular turli yillarda amalga oshirilganligi va turli xil uslublarda amalga oshirilganligi bilan ajralib turadi.

⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилдаги 19 июндаги "Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги хузуридаги маданий мерос агентлиги фаолиятини ташкил этиш ҳамда соҳани инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5150-сонли қарори.

⁶⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 майдаги "Музейларда хизматлар соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-261-сонли қарори 5-банди.

Quyida ularning qanday amalga oshirilganligi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Har bir amalga oshiriladigan ishning o'z oldiga qo'yilgan maqsadi bo'lgani singari arxeologiya obyektlarini konservatsiyalashning ham o'ziga xos maqsadi mavjud. Konservatsiyalash ishlarining asosiy maqsadi obyektni muhofaza qilishdan iboratdir. Ularni kelajak avlodga imkon qadar bizgacha yetib kelgan holatda yetkazishdir.

Shu paytgacha arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalashning bir qancha usullaridan foydalanilgan:

1. Arxeologiya obyekti tadqiqotlar natijasida ochilgan holatda konservatsiya qilish;
2. Arxeologiya obyektining ma'lum bir qismini tiklash orqali konservatsiya qilish;
3. Kimyoviy usulda qotirib qo'yish orqali konservatsiya qilish;
4. Ochilgan holatda ustini yopish orqali konservatsiya qilish.
5. O'z holicha qanday saqlangan bo'lsa, shundayligicha saqlab, ayrim zarar keltiradigan holatlarning oldini olish.

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash O'zbekistonda kam bo'lsada amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin: Termiz shahri yaqinidagi Fayoztepa budaviylik majmuasi, Samarqand shahridagi XV asrga oid hammom, Shahrisabz tarixiy markazidagi XIV asrga oid hammom qoldiqlari, Oqsaroy etagidagi arxeologiya qazishmasi natijasida topilgan hovli sahni, Afrosiyobning qadimiy devorlari va Axsikent mana shunday konservatsiyalash ishlariga misol bo'la oladi.

Afrosiyob devorlari. Ma'lumki, 1970-yilda YUNESKO tashabbusi bilan Samarqandning 2500 yilligi nishonlagan. Bu yubiley o'sha davrda qadimshunoslarimiz qo'lga kiritgan yutuqlar

asosida qayd qilingan edi. Mustaqilik sharofati tufayli Samarqandning paydo bo'lish tarixi yanada ham qadimiyroq ekanligi aniqlandi. O'zbek arxeologlari M. Isomiddinov va A. Otaxo'jaevlarning fransiyalik olimlar Pol Bernar, Frans Grene va Klod Rapenlar bilan hamkorlikda Afrosiyobda olib borilgan tadqiqotlari natijasida uning eng quyi madaniy qatlami o'rganildi. Natijada yer sathidan 10–15 metr chuqurlikda miloddan avvalgi IX–VII asrlarga taalluqli ashyolar topildi. Bular qo'lga yasab rangli naqsh berilgan idishlarning parchalari va shuningdek, guvaladan tiklangan 7 metr qalinlikdagi mudofaa devori qoldiqlaridir. Topilgan ushbu namunalar Fransiyaning Jiv-Syur-Ivst shahridagi radioaktiv laboratoriyasida tadqiq qilindi. Laboratoriyadagi tahlillar bu ashyolar bundan 2750 yil ilgari yaratilganligini ko'rsatdi⁶⁸.

Bu tadqiqotlar 2007-yilda Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi munosabati bilan amalga oshirilgan.

Ushbu mudofaa devorini tarixiyligini saqlab qolish va uning uzoqroq vaqt mobaynida o'z ko'rinishini yo'qotmaslik maqsadida kimyoviy ishlov berish orqali konservatsiya ishlari olib borilgan. Albatta, bunday konservatsiya usuli loydan barpo etilgan inshoot uchun samarali hisoblanadi. Bir necha o'n yillar davomida o'z holatini yo'qotmasdan, qotirilgan holda saqlanadi.

Shu bilan birga, bu usul orqali konservatsiya qilingan inshoot abadiy ham emas, ma'lum vaqtdan keyin yana qaytadan kimyoviy ishlov berilishi kerak bo'ladi. Bu esa uning salbiy tomonlaridan biri sifatida baholanadi.

Fayoztepa. Yana bir arxeologiya yodgorligining konservatsiya qilinishi diqqatga sazovordir. Bu buddaviylik

⁶⁸Samarqand shahar hokimligi rasmiy veb sayti.

inshooti majmuasi xom g'isht va paxsadan qurilgan bo'lib, o'z davrida buddaviylikning Markaziy Osiyodagi eng yirik markazlaridan biri hisoblangan.

Fayoztepa Kushonlar podsholigi tashkil etilganda jamiyatning asosiy diniy e'tiqodlaridan biri sifatida buddaviylikning keng tarqalishi bilan barpo etiladi. Bu saltanat inqirozga uchrashi va sosoniylarning Markaziy Osiyo janubiga suqilib kirishi bilan Fayoztepa ham vayron qilingan. O'z navbatida u diniy markaz bo'lishi bilan birga g'oyaviy va ma'rifiy markazlardan biri ham hisoblangan. Hozirgi kungacha u faqat xaroba holatidagina saqlanib qolgan.

Saqlanib qolgan qismining balandligi 3 metrgachani tashkil etadi⁶⁹.

Bu majmuadagi konservatsiya jarayoni birmuncha murakkabligi va mahalliy uslubdan keng foydalanganligi bilan ajralib turadi.

Fayoztepa loysuvoq bilan suvalib konservatsiya qilingan. Loysuvoqning nisbatan uzoqroq saqlanishi uchun dastlab loy yaxshilab qorishtirib, somon aralashtirilib pishitilgan. Keyin unga bir necha kun davomida "dam" berilgan. Bu holat uning odatdagi loysuvoqlardan nisbatan pishiq va iqlim sharoitiga chidamliroq bo'lishiga yordam bergan.

Shu bilan birga, uning ham Afrosiyob devorlarini konservatsiya qilinishidagi zaif tomoni borligini ko'rish mumkin. Uni ma'lum bir vaqtdan keyin yana qayta ta'mirlash va konservatsiyalashni yangilab turish kerak bo'ladi.

⁶⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. "Ф" ҳарфи «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат илмий нашриёти, Тошкент, www.ziyouz.com кутубхонаси. 8-бет.

Oqsaroy. Shahrisabz shahrida joylashgan Oqsaroy hovli qismida arxeologiya tadqiqotlari natijasida ochilgan koshinli yuza qismini konservatsiyalash jarayoni ham diqqatga sazovordir. Konservatsiyalash ishlari Fransiya bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. rejalashtirilgan tadbirlar grant loyihasi asosida bajarilishi koʻzda tutilgan.

Loyiha 1999-yildagi Oʻzbekiston-Fransiya oʻrtasida hamkorlik negizida boshlangan boʻlib, Oʻzbekiston tomonidan prof. Anatoliy Sagdullayev, Fransiya tomonidan prof. Maks Shvoerer (Bordo universiteti, “Fan va meros” uyushmasi RAST)lar rahbarligida olib borilgan. Bu hamkorlikning maqsadi temuriylar davrida Samarqand va Shahrisabzdagi madaniy meros obyektlarini oʻrganish va muhofaza qilish edi.

Ushbu dasturda boshqa tashkilotlar ham ishtirok etishgan. Jumladan, Dordone universiteti kafedra bosh kengashi, Aquitaine mintaqaviy kengashi, Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, SOCRA kompaniyasi, YUNESKOning Parijdagi bosh shtabi va Toshkentdagi vakolatxonalari qatnashishgan⁷⁰.

Dastlab loyihani amalga oshirish uchun madaniy meros obyekti tanlab olindi. Bu Shahrisabzdagi Amir Temur tomonidan barpo etilgan Oqsaroy edi. Tanlov jarayoni Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan birgalikda amalga oshirilgan.

Natijada 2010-yil dekabr oyida Fransiyaning Dordone universiteti, Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi va Shahrisabz shahar hokimligi oʻrtasida shartnoma

⁷⁰ Ouzbekistan Shahrisabz palais de l’ak saray. Restauration du pavement glagure №3 (185 m 2) Rapport d ’activite (avril - octobre 2012), Avril - Octobre 2012, page. 21.

imzolangan. Ushbu shartnoma hamkorlik yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Arxeologiya tadqiqotlari natijasida koshinli yuzada kimyoviy tarkibi aniqlangan holda restovratsiya ishlari olib borilgan. Keyin uni yo'qolib ketishini oldini olish, saqlash va muhofaza qilish maqsadida konservatsiya qilingan. O'rganilgan koshinli yuza qismining usti oyna bilan yopilgan. O'z navbatida bu uning saqlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ayrim salbiy holatlarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, quyosh nurining oyna orqali o'tishi uning issiqlik darajasini oshiradi. Bu esa koshinlarning rangi tusini o'zgarishiga, o'zining asl holatini yo'qotishiga olib keladi. Bu esa hozirgi paytda o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Samarqanddagi hammom. 2004-yil iyul-dekabr oylarida "Shohi-Zinda" majmuasi hududida keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Majmuaning kirish eshigi ro'parasidagi yo'l yotqizish ishlari davomida janub tomondagi, masjid devoridan taxminan 15,25 m uzoqlikda, XV asrga tegishli hammom qoldiqlari topilgan.

Binoning faqat g'arbiy qismi saqlanib qolgan, taxminan yarmi, o'lchami 11,80x6,30 m, sharqiy qismi vayron qilingan.

Binoga kirish joyi joylashgan asosiy jabhaga qaragan sharqqa Shaxi Zinda ansamblining kirish portalidan janubga olib boradigan yo'lga. Shunday qilib, bino markaziy yo'lning g'arbiy tomonida joylashgan, kvadrat shaklga ega edi; uning rekonstruksiya qilingan o'lchamlari 11,80x11,80 m. bo'lib binoning asosiy nuqtalarga yo'naltirilgan⁷¹.

⁷¹ Насриддинов Ш.Н. Баня XV века у ансамбля Шахи-Зинда. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, «ФАН» нашриёти, Тошкент – 2006, 2004–2005 йиллар, 5-сон, стр.172.

Hammomning boshqa arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash ishlaridan farqi uni dastlab saqlanib qolgan qismini konservatsiya qilib, usti metal konstruksiyaga o'rnatilgan tom qismi bilan yopilganligidir. Uning atrofi ochiq qoldirilgan.

Bunda metal konstruksiyaga o'rnatilgan tom qismi uni yomg'ir-qor suvlari ta'siridan saqlaydi. Boshqa turdagi tabiiy ta'sirlar mavjud, lekin ular juda kam. Bunday konservatsiya usuli odamlar ko'p tashrif buyuradigan joylar uchun ancha samarali. Chunki bu yer doimiy odamlar bilan gavjum joy hisoblanadi. Shohi-zinda ziyorat qilinadigan joy bo'lishi ham uning foydasiga ishlaydi.

Shahrisabz hammomi. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-fevraldagi "Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 31-sonli qarorini bajarish maqsadida O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasining Shahrisabz tumanlararo inspeksiyasi, O'zFA Arxeologiya instituti va Shahrisabz shahar Amir Temur nomidagi moddiy-madaniyat tarixi muzeyi hamkorlikda 2014-yil 1-avgustdan boshlab shahardagi madaniy meros obyektlarini ta'mirlash-tiklash va qurilish, surish, tekislash ishlari olib borilayotgan joylarda arxeologiya nazorati va qazishma ishlari olib bordilar. Natijada XIV asrning 1-yarmiga oid hammom qoldiqlari topilgan edi. Uning ma'lum bir qismida qazishma o'tkazilib, hammom xonalarini isitish uchun imkon beradigan pol osti qurilmalari (mo'rilar) o'rganilgan edi.

Bu yerda dastlab O'zFA arxeologiya instituti ilmiy xodimi A. Raimqulov qazishma ishlarini olib borgan. 2015-yilda ushbu satrlar muallifi tomonidan to'liq ochib o'rganilgan (8-rasm).

Arxeologiya obyektni batafsil o'rganish maqsadida 2015-yil 28-maydan 8-iyungacha ta'mirlash-tiklash ishlari olib borilayotgan hududda nazorat ishlari olib borildi. Hammomni to'liq ochish ishlari ushbu satrlar muallifi tomonidan amalga oshirilgan.

Arxeologiya obyektni ta'mirlash va konservatsiya qilish maqsadida uning atrofi to'liq ochildi. Nazorat amalga oshirilayotgan paytda oldingi qazishma ishlarini yanada to'ldiradigan va boyitadigan qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Inshootning tomonlari janub va shimolda 17,5 metr, Sharq va g'arb tomonlari 20 metr uzunlikda ochib tozalandi. Faqatgina g'arbiy tomoni poydevori to'liq saqlangan bo'lib, qolgan tomonlarining poydevori qisman saqlangan⁷².

Hammomning ochilgan qismlaridagi o'ziga xos jihatlaridan biri bu yerdan oqib chiquvchi suv oqava suv quvurlari orqali chiqarib yuborilganligini tasdiqlovchi tizimning topilishi bo'lgan. Bu tizimga hammom poli ustidan kichik ariqchalar orqali ishlatilgan suv chiqib ketgan.

Bu obyektni konservatsiyalashda usti to'liq g'ishtlar bilan yopib chiqilgan. Faqat suv saqlanadigan xumlar, quduq va eng ahamiyatli joylari yuqori mustahkamlikka ega oynalar bilan yopilgan.

Konservatsiyalashdagi noto'g'ri yondashuvlarning bo'lishi hammomni to'liq namoyish etishga imkon bermagan. Yuqorida aytilganidek, ko'pgina joylari g'isht qoplama bilan yopib yuborilgan (9-rasm).

⁷² Яркулов А.А. Шахрисабз шаҳри тарихий марказидаги археология тадқиқотлари. "Ўзбекистонда анъанавий боғва боғдорчиликсанъати: кеча, бугун ва келажакда" мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. Шахрисабз ш, 9–10 декабрь 2016 йил, Тошкент, «Yangi nashr», 62-бет.

Mingo'rik. Qadimgi I–XIII asrlarga oid shahar xarobasi. Mahalliy aholi o'rtasida Afrosiyob tepaligi nomi bilan mashhur bo'lgan. Qasr (to'rtburchak arkka yondoshgan) va shahristonning tepalikka aylangan hududidan iborat. Salor kanali sohilida joylashgan. Shahar xarobasi o'rnida XIX asrda katta o'rikzor bo'lganligi uchun shunday atalgan⁷³.

Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyi munosabati bilan Mingo'rik arxeologiya merosi obyekti konservatsiya qilingan. Obyektning usti metallokonstruksiya bilan to'liq yopilgan. Shunday bo'lsada, obyektning o'rtasiga qo'yilgan ustunlar paxsa va xom g'ishtdan iborat devorlarni o'yib o'rnatilganligi konservatsiyalash jarayonidagi noto'g'ri yondashuvdan dalolat beradi.

Axsikent. Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Axsikent shahri miloddan avvalgi III–II vujudga kelgan, IX–X asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. 1621-yilgi zilzilada butunlay vayron bo'lgan⁷⁴.

Xitoyliklar bilan hamkorlikda Axsikentdagi qazishmalardan birining usti butunlay yopiq holatda konservatsiya qilingan arxeologiya merosi obyekti hisoblanadi.

Butunlay yopiq inshoot ostida konservatsiya qilinganligi uning saqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin binoning tashqi ko'rinishi arxeologiya merosi obyektiga mos kelmasligi uning eng katta kamchiligi hisoblanadi.

Uchtepa 2. Namangan viloyati, Norin tumanida joylashgan Uchtepa 2 arxeologiya merosi obyekti konservatsiya qilinib,

⁷³ Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. Издательство "ФАН" Узбекской ССР Ташкент-1973, стр. 42.

⁷⁴ Ахраров И. Археологические исследования городища Ахсыкет в 1960 году. Общественные науки в Узбекистане, №8, 1962, стр.53-58.

muzeylashtirilgan. Bu obyektni muzeylashtirish ishlarini ko'pchilik arxeologlar ustози akademik A. Asqarov tomonidan amalga oshirilgan. Obyekt otashparastlarning diniy markazi bo'lgan.

O'ziga xos yaxshi tomonlaridan biri obyektni turli tomonlardan metall konstruksiya asosida qurilgan kuzatish maydonchalariga egaligidir. Aslida arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya yoki muzeylashtirishdan maqsad ham ularni namoyish qilishdir. Shuning uchun bunday usul nihoyatda samarali va kelgusida uni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, mamlakatimizda arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish borasida oz sonli bo'lsada ayrim ishlar amalga oshirilgan. Bugungi kunda oldimizda ularni yanada rivojlantirish, ba'zi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda konservatsiyalash ishlarini amalga oshirish vazifasi turibdi.

Shuningdek, prof. R.X. Suleymanovning 2022-yilda Surxondaryo viloyatida kashf etilgan o'rta paleolit davriga oid Xatak g'or makoni konservatsiyalash va muzeylashtirish borasida bildirgan fikrlarini alohida ta'kidlash lozim:

1. G'orga kirish joyini shisha oyna yoki temir panjara bilan to'sish.

2. Xatak arxeologiya muzeyiga tashrif buyuruvchilar uchun g'or oldida zinapoyalar bilan jihozlangan va to'siqlar bilan o'ralgan yog'och yoki metalldan ishlangan kuzatish maydonchasi qurish zarur⁷⁵.

⁷⁵ Р.Х.Сулеймановнинг Хатак ғор маконини музейлаштириш борасида Маданий мерос агентлигига берган таклифларидан.

Va nihoyat, konservatsiyalash jarayonida rejalashtirilgan ishlarni sifatli bajarish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surmoqchimiz:

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilishda eng muhim o'rin tutuvchi omillardan biri bu obyektning rekonstruksiya qilingan ko'rinishi hisoblanadi. Chunki, obyekt konservatsiya qilinayotganda uning rekonstruksiya shaklini yaratish ham kerak bo'ladi. O'z navbatida konservatsiya qilinayotgan obyekt uning rekonstruksiya shaklini yaratish uchun ham asos bo'ladi;

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash asoslarini yaratish;

Konservatsiyalashning xorijiy tajribalarini o'rganish va ularni mamlakatimizda joriy etish.

I.3. Arxeologiya obyektlarini muzeylashtirishda jahon tajribasi

Muzeylarning tashkil topishi, Arxeologiya merosi obyektlarini muzeylashtirish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab qadimgi ashyolarni kolleksiyalarini to'plashdan boshlanganligini ko'ramiz. Bu asosan, Yevropada uyg'onish davrida antik davr madaniyatiga qiziqishdan boshlanganligini va bu madaniyatni qayta jonlantirishga urinish natijasi o'laroq paydo bo'lganligini bilib olamiz. Muzeylashtirish – moddiy madaniy yoki tabiiy obyektlarni maksimal darajada saqlash va ularning tarixiy-madaniy, ilmiy, badiiy ahamiyatini aniqlash maqsadida ularni muzey namoyishi obyektlariga o'zgartirish va aktual madaniyatga kiritishdan iborat yo'nalishdir⁷⁶.

⁷⁶ Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – М.: Этерна, 2012, – С. 10-13

Aslida noyob va qadimgi asori-atiqalarni yig'ish ishlari Qadimgi sharqda ham bo'lganligini e'tirof etish kerak.

Muzeylarning vazifasi jahon madaniy boyliklariga g'amxo'rlik qilish va ularni ommaga talqin etishdan iborat. Ushbu qadriyatlar xalqaro huquqda alohida maqomga ega va odatda milliy qonunlar bilan himoyalangan. Ular jahon tabiiy va madaniy merosining bir qismi bo'lib, ko'pincha moddiy yoki nomoddiy obyektlar bo'lishi mumkin. Madaniy mulk arxeologiya va tabiatshunoslik kabi ko'plab fanlar uchun ishonchli dalillarni taqdim etadi va shuning uchun bilimlarni rivojlantirishiga ular milliy va xalqaro miqyosda katta hissa qo'shadi⁷⁷.

O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi qonunida muzeylarga shunday ta'rif berilgan: muzey – muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi⁷⁸.

Umuman olganda, kolleksiya deganda jismoniy yoki tashkilot tomonidan to'plangan, tasniflangan, tanlab olingan va xavfsiz joyda saqlangan moddiy yoki nomoddiy narsalar (asarlar, artefaktlar, intellektual faoliyat obyektlari, namunalar, arxiv hujjatlari, dalillar va boshqalar) to'plami tushunilishi mumkin. To'plam shaxsiy yoki ommaviy bo'lishiga qarab, ular odatda kichikroq yoki kattaroq auditoriyaga namoyish etiladi⁷⁹.

⁷⁷ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 1.

⁷⁸ Музейлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. 2008 йил 12 сентябрь, ЎРҚ-177-сон. LexUZ.

⁷⁹ Ключевые понятия музеологии. Составители: André Desvallées и François Mairesse. ИКОМ, "Armand Colin, 2012," стр. 31.

Obyektlar va eksponatlar to'plamlari qadimgi davrlarda yashagan shaxslar va jamoalar haqida ma'lumot bergani uchun tuzilgan. Buning dalili paleolit dafnlaridan olingan ashyolar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, muzeylar yaratish g'oyasi birinchi marta miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida Mesopotamiyadagi Larsa shahar-davlatida paydo bo'lgan, u yerda maktablarda o'qitish uchun eski yozuvlar nusxalari ko'paytirildi. Miloddan avvalgi VI asrga oid arxeologik topilmalar Ur shahrida o'sha kunlarda nafaqat shohlar Navuxadonazar va Nabonid antik buyumlarni yig'ishgan, balki xuddi o'sha davrda ibodatxonadagi xonada qadimiy asarlar to'plami mavjud bo'lib, ular ustidagi qadimgi yozuvlar reproduksiyasi bilan lavhalardan iborat edi. g'ishtlar bu hududdan topilgan. Bu kolleksiyani allaqachon muzey deb atash mumkin.

“Muzey” so'zining qadimiy kelib chiqishiga qaramay, na Gresiya, na Rim imperiyasi bugungi kunda biz bilgan muzeylarni yaratmagan. Ibodatxonalarga, ba'zan maxsus qurilgan xazinalarga qo'yiladigan nazrlar odatda keng omma uchun ochiq edi, ko'pincha nominal haq evaziga. Bunday takliflar san'at asarlari, tabiiy qiziqishlar va ulkan imperiyaning turli qismlaridan olib kelingan ekzotik narsalarni o'z ichiga olgan, lekin asosan diniy xususiyatga ega edi⁸⁰.

“Muzey” so'zini madaniy foydalanishga aynan qadimgi yunonlar kiritgan. Ammo qadimgi davrlarda u biroz boshqacha mazmunga ega bo'lgan. Qadimgi yunoncha "museion" (museion - muzalar ibodatxonasi) atamasi falsafiy institutni bildirgan. Uning mazmuni keyinchalik Rim madaniyatida (lot. Muzey - diplomatik suhbatlar joyi) o'xshash bo'lgan. Muzalar san'at, adabiyot va ilm-

⁸⁰ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 1.

fan homiylari hisoblanib, ijodiy ilhom bag'ishlagan, shuning uchun olimlar jamoalarida Muzalar kul'ti muhim rol o'ynagan. Muzeylar qadimgi yunonlarning intellektual hayotining eng muhim markazlari edi. Falsafiy bahslar, notiqlik musobaqalari, shoirlar, musiqachilar tanlovlari - bularning barchasi intellektual elita orasida, ayniqsa miloddan avvalgi IV asrda qadimgi Yunonistonda paydo bo'lishi bilan bog'liq holda juda keng tarqalgan atoqli faylasuflar rahbarlik qilgan maktablar⁸¹ sifatida vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoda ko'plab shaharlarda o'sha davrning noyob asori-atiqalari to'plangan. Buni misol tariqasida Amir Temur maqbarasi, Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasida, Samarqanddagi Xo'ja Ahrori Valiy majmuasidagi Nodir devonbegi madrasasida ko'rishimiz mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus imperiyasi tomonidan o'rta Osiyoni bosib olish ekspansiyasi boshlanadi. Rus bosqinchilari o'zlaridan keyin faqat xarobalarni qoldirish bilan birga, yurtning talon-taroj ham qilishgan.

Rus zobitlari, ular bilan birga kelgan amaldorlar tomonidan talon-tarojlar tufayli qo'lga kiritilgan juda ko'p madaniy-ma'naviy boyliklar, bezaklar, matolar, yodgorliklar, noyob qo'lyozma kitoblar, miniatyuralar Peterburgga olib ketildi. Keyinchalik bu jarayon sovetlar davrida ham davom etgan.

Olib ketilgan osori-atikalardan alohida "O'rta Osiyo. Qadimda va ilk o'rta asrlarda" nomli alohida bo'lim ham tashkil etilgan⁸².

Mustaqillik yillarida ularning ba'zilari, xususan, Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasida saqlangan qirq quloqli qozon, dastlab Amir

⁸¹ Музееведение. Под редакцией доцента Н.В. Мягиной. Владимир, 2010, стр. 10-11.

⁸² Ўрта Осиё. Қадимда ва илк ўрта асрларда. <https://hermitagemuseum.org/>

Temur maqbarasida, keyinchalik Nodir devonbegi madrasasida saqlangan Usmon mushafi o'z vataniga qaytarildi.

Sharq mamlakatlarida ajdodlarni e'zozlash an'anasi ham qadimiy ashyolarni to'plashga olib keldi, shu bilan birga yodgorliklar Mashhaddagi Imom Rizoga bag'ishlangan ilk musulmon shahidlari qabrlarida to'plangan.

Eronning shimoli-g'arbiy qismida, bugungi kunda qabri yaqinidagi muzeyda saqlanadi. Jamiyat manfaati va diniy maqsadlar uchun mulkni ta'minlash bo'lgan vaqf g'oyasi ham to'plamlarning yaratilishiga olib keldi.

Ijtimoiy-madaniy muassasa sifatida muzeyga aylanish jarayoni Uyg'onish davridan boshlanadi. Italiya bu davrni XIV asrning 2-yarmi – XVI asr oxiri, G'arbiy va Markaziy Yevropada esa XV asrning 2-yarmi — XVII asr boshlarida boshdan kechirgan⁸³.

Yevropadagi kolleksiyalar asosida tashkil topgan muzeylarning eng mashhurlari: Italiyadagi Uffisi galereyasi, Fransiyadagi Luvr, Germaniyaning Myunxen shahrida joylashgan Eski Pinakoteka kolleksiyasi, Angliyada Ashmala, Ispaniyada Prado va Belgiyadagi qirollik muzeylari bo'lib hisoblanadi⁸⁴.

O'rta asrlarda Yevropada kolleksiyalar asosan qirol saroylari va cherkovlar qo'riqxonasi edi. Bunday to'plamlar iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, urushlar va boshqa davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin edi. Boshqa to'plamlar xristian olamidan qolgan qoldiqlar shaklida bo'lgan. Qayta tug'ilish bilan uning qadimiy merosiga qiziqish va yangi savdogarlar va bankirlar sulolalarining paydo bo'lishi, Yevropada ta'sirchan qadimiy kolleksiyalar shakllandi. Eng ko'zga

⁸³ Мягтина Н.В. История музеев мира. Владимир, 2013, Стр. 6.

⁸⁴ Мягтина Н.В. История музеев мира. Владимир, 2013, Стр. 7-18.

ko'ringanlaridan biri Florensiyada Medichilar oilasi tomonidan to'plangan to'plam bo'lib, oxir-oqibat 1743-yilda davlatga vasiyat qilingan va "Toskana aholisi va barcha xalqlar uchun" taqdim etilgan.

Qirollik va olijanob to'plamlar boshqa ko'plab Yevropa mamlakatlarida ham yaratilgan. XVII asrga kelib, ijtimoiy va tabiiy tarixning o'sishi o'sha davr ziyolilari tomonidan ko'plab maxsus to'plamlarning yaratilishiga olib keldi. Xuddi shu davrda birinchi ilmiy jamiyatlar tuzildi, ularning ba'zilari o'zlarining kolleksiyalarini to'pladilar; eng mashhur ilmiy jamiyatlar Florensiyadagi Eksperimentlar akademiyasi (Accademia del Cimento) (1657), London Qirollik jamiyati (1660) va Parijdagi Fanlar akademiyasi (Academie des Sciences) (1666) edi. O'sha vaqtga kelib, tabiiy va texnogen dunyoni tizimli tasniflash usullari kollektorlar uchun mavjud bo'lib, bu ularga o'z kolleksiyalarini tartibga solishda yordam berdi. Bu tizimning ruhini, oqilona izlanish va Yevropada bilimga qomusiy yondashuvni aks ettiradi⁸⁵.

Muzeylar tasnifi – muzeylar tarmog'ini tashkil etish va rivojlantirish va barcha muzey faoliyati uchun zarur bo'lgan xususiyatlariga ko'ra muzeylar guruhidir. Muzeylar tasnifining asosiy toifalari: muzey profili, muzeylar tipologiyasi. Muzeylar tasnifi muzey kolleksiyalari mazmunidagi farqlarni, ushbu kolleksiyalarni o'rganish yo'nalishini, shuningdek, muzey fondlarini o'zlashtirish, ularni ko'rsatish va targ'ib etishni belgilaydi, muzey tarmog'ini qurishning rasionalligini baholash, muzeylarning rivojlanish tendentsiyalari, ma'lum yoki boshqa

⁸⁵ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 2.

bosqichda jamoat ehtiyojlari bilan turli xil muzey guruhlari o'rtasidagi aloqalarni kuzatish imkonini beradi⁸⁶.

Muzeylar tashkil etila boshlashi bilan ular turlarga ajratila boshlanadi. Muzeylarning keng tarqalgan turlari YUNESKOning Xalqaro muzeylar kengashi (IKOM) tomonidan nashr etilgan "Muzeylarni boshqarish: amaliy qo'llanma"da sanab o'tiladi:

1. Ensiklopedik muzeylar 2. Ilmiy jamiyatlar muzeyi 3. Milliy muzeylar 4. Ixtisoslashgan muzeylar 5. Umumiy va mahalliy muzeylar 6. Ochiq osmon ostidagi muzeylar 7. Ishlaydigan muzeylar 8. Muzeylar - diqqatga sazovor joylar 9. Virtual muzeylar (1-rasm).

Shu bilan birga, ularning hozirgi kunda Umumjahon jamiyati uchun umumiy bo'lgan ommaviy muzeylar ta'riflari keltirilgan.

Ensiklopedik muzeylar. Yevropa ma'rifati davrining ensiklopedik ruhidagi mulk jamoat muzeylari paydo bo'ldi. 1683-yilda Oksford universiteti tomonidan ochilgan Ashmal muzeyi jamoat manfaati uchun davlat organi tomonidan tashkil etilgan birinchi muzey hisoblanadi. U Tradescant oilasi tomonidan to'plangan va ilgari Londondagi uylarida keng ommaga namoyish etilgan dunyoning ko'plab burchaklaridan olib kelingan eklektik to'plamlarga asoslangan edi. Bu muzey ensiklopedik xarakterga ega bo'lib, bu dastlabki davrdagi yana ikkita mashhur muzeyning o'ziga xos xususiyatiga aylandi: 1759-yilda Londonda ochilgan Britaniya muzeyi va 1793-yilda Parijdagi Luvr muzeyi; ikkala muzey ham hukumatlar tashabbusi bilan ochilgan, Britaniya muzeyi uchta halol kolleksiyani sotib olish natijasida, Luvr esa

⁸⁶ Третьякова Т.Н. Музееведение. Челябинск, 2011, стр. 5.

qirollik kolleksiyalarini “demokratlashtirish” natijasida yaratilgan⁸⁷.

Ilmiy jamiyatlar muzeyi. Ilmiy jamiyatlar jamoat muzeylarining dastlabki asoschilaridan edi. Bu, ayniqsa, Osiyo mamlakatlari uchun to‘g‘ri keldi. Jakartada Bataviya Fan va San‘at Jamiyatining kolleksiyasi 1778-yildan to‘plana boshlangan. Bu kolleksiya keyinchalik Indoneziya madaniyati markaziy muzeyiga aylangan. Kalkuttadagi Hindiston muzeyi xuddi shunday tarzda tashkil etilgan bo‘lib, uning kolleksiyasi Bengaliya Osiyo jamiyati kolleksiyasi asosida 1784-yildan to‘plana boshlangan.

Ikkala muzey ham san‘at va fan buyumlari kolleksiyasini o‘z ichiga olgan va o‘z mamlakatlari haqidagi bilimlarni tarqatish bilan shug‘ullangan. 1773-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarida Janubiy Karolina shtatining Charlston shahridagi Kutubxona jamiyati amaliy va amaliy ko‘nikmalarni namoyish qilish uchun “hayvon va o‘simlik kelib chiqishi yoki mineral kelib chiqishi tabiiy mahsulotlar” to‘plamini yaratish niyatida viloyatda qishloq xo‘jaligi va tibbiyotning tijorat jihatlarini e‘lon qildi⁸⁸.

Hozirgi kunda ko‘plab ilm-fan, ta‘lim bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning o‘z muzeylari mavjud. Ularning eng mashhurlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli O‘zbekiston tarixi muzeyi, Amir Temur va temuriylar tarixi muzeyi yoki O‘zbekiston milliy universiteti va Samarqand davlat universitetlari muzeylari hisoblanadi.

Milliy muzeylar. Birinchi marta muzeylar milliy o‘zlikni anglash va o‘zlikni anglash rivojiga hissa qo‘shishi haqidagi g‘oya

⁸⁷ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 2.

⁸⁸ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 3.

Yevropada ifodalandi va shu bilan birga muzeylarning roli xalqning tarixiy merosini asrab-avaylashda eng munosib muassasa sifatida e'tirof etildi. Bugungi kunda muzeylar bu vazifani bajarishda davom etmoqda va ko'pincha bu rol yangi tashkil etilgan yoki qayta tiklangan davlatlardagi milliy muzeylarda kuchaytiriladi. XIX asrda bu rolni tan olgan muzeylar orasida Budapeshtdagi Milliy muzey 1802-yilda ixtiyoriy hissalar bilan tashkil etilgan; Keyinchalik bu muzey Vengriya mustaqilligi uchun kurash bilan ajralib turdi. Pragada milliy o'ziga xoslikning tiklanishi 1818-yilda milliy muzeyning shakllanishiga olib keldi va uning 1891-yilda ochilgan yangi binosi Chexiya milliy tiklanishining ramzi bo'ldi. Ikkala muzey ham dastlab san'at va ilmiy to'plamlarni o'z ichiga olgan, ammo kolleksiyalar o'sib borishi bilan ular boshqa binolarga ko'chib o'tgan. Masalan, Vengriyada bu ixtisoslashgan muzeylarning shakllanishiga olib keldi: amaliy san'at, tasviriy san'at, milliy madaniyat va tabiiy fanlar⁸⁹.

XIX asrda ilk milliy muzeylarning paydo bo'lishi ko'pmillatli imperiyalarda yashagan va milliy madaniyatga bo'lgan huquqlarini himoya qilgan xalqlarda milliy o'z-o'zini anglashning uyg'onishi bilan bog'liq. 1802-yilda Budapeshtda Vengriya milliy muzeyi, 1818-yilda Pragada Milliy muzey va boshqalar ochildi. Nyurnbergdagi Germaniya milliy muzeyi (1852) madaniy birlashuv orqali mamlakatning siyosiy birligini oldindan ko'rishni maqsad qilgan⁹⁰.

Ixtisoslashgan muzeylar. Milliy yoki jahon madaniyatining ensiklopedik muzeylari konsepsiyasi XIX asrda tobora ortib

⁸⁹ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 3.

⁹⁰ Третьякова Т.Н. Музееведение. Челябинск, 2011, стр. 14.

borayotgan ixtisoslashuvga ega milliy muzeylarni yaratish g'oyasiga o'z o'rnini bosdi. Bu g'oya, ayniqsa, muzeylar sanoat dizayni va texnologik yutuqlarni targ'ib qilish vositasi sifatida ko'rilgan joylarda mashhur edi.

Sanoat tovarlari va mahsulotlarining xalqaro ko'rgazmalari qator ixtisoslashtirilgan muzeylar, jumladan, Londondagi Viktoriya va Albert muzeyi va Fan muzeyi, Venadagi Texnika muzeyi va Parijdagi Pala de la Decouverte muzeylarini yaratishga xizmat qildi⁹¹.

Ixtisoslashgan muzeylarga Samarqand shahridagi Afrosiyob, Termiz shahridagi Arxeologiya muzeylarini⁹² misol qilib olishimiz mumkin.

Umumiy va mahalliy muzeylar. Hozirda universal muzeylarda o'z ifodasini topgan ensiklopedik muzeylar g'oyasi ko'plab mintaqaviy va mahalliy muzeylarning o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmoqda. Ular asosan XIX asr o'rtalarida xususiy donorlar va jamiyatlar to'plamlari asosida shakllangan. Britaniyada Munisipal muzeylar o'sib borayotgan urbanizatsiyalashgan aholi uchun ta'lim va ko'ngilochar vosita sifatida qaraldi va sanoatlashtirish natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan islohotlar sharoitida rivojlandi.

Bu portlarda yoki xalqaro savdoning boshqa markazlarida ochilgan muzeylar kolleksiyalarida yorqin ifodasini topdi. Fuqarolik g'ururini yuksaltirishda bunday mahalliy va hududiy muzeylar ham muhim o'rin tutadi⁹³.

⁹¹ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 5.

⁹² http://explorers.uz/ru/sights/arheologicheskiy_muzey_termeza.html

⁹³ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 5.

O'zbekiston hududidagi har bir viloyatda o'lkashunoslik muzeylari va alohida shaxslarga bag'ishlangan uy-muzeylari mavjud⁹⁴.

Ochiq osmon ostidagi muzeylar. Shvesiyada 1872-yilda Stokgolmda Skandinaviya muzeyi (Nordiska muzeyi) tashkil etilishi bilan xalqning an'anaviy folklor hayotining jihatlarini saqlab qolish uchun yangi turdagi muzey paydo bo'ldi. Keyinchalik, muzey an'anaviy binolarni yig'ishni boshladi, keyinchalik ular birinchi ochiq muzey bo'lgan Skansenda qayta tiklandi. Ushbu mavzu bo'yicha o'zgarishlar Nigeriyada paydo bo'ldi, bu yerda an'anaviy arxitekturaning aksariyati harakat qilish uchun juda mo'rt. Buning o'rniga hunarmand quruvchilar Nigeriyaning turli qismlarini ifodalovchi namunaviy yodgorliklarni qurish uchun Jisdagi an'anaviy arxitektura muzeyiga taklif qilindi⁹⁵.

Eng mashhur ochiq osmon ostidagi muzeylardan biri Italiyadagi Pompey shahri xarobalaridir. Bu muzeyning o'ziga xos bo'lgan hamda aslligini saqlab qolganligi Vezuviy vulqonining kul va lavalari ostida shaklan buzilmasdan saqlanganligidir.

1748-yil mart kunlarining birida zanjirband qilingan 12 mahkum bilan bu yerda suv quvurlari inspektori ispaniyalik Alcubierre paydo bo'ldi. U rasman qazishma ishlarini boshlashga topshiriq berdi va tez orada uning "ishchilari" yozuvni topdilar: "Pompeyliklar shahri". Shunday qilib, qadimgi Pompey shahrida maqsadli tadqiqotlar boshlandi⁹⁶.

⁹⁴ Meros.uz

⁹⁵ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 5.

⁹⁶ Ионина Н.А. «50 великих музеев». «ВЕЧЕ», 2008, стр.6.

Ko'p o'n yillar davomida qazishmalarning rahbarlari bir-birini almashtirdilar, arxeologik jarayonning o'zi ham muzlab qoldi, keyin yana davom etdi. Qazishmalarga chinakam ilmiy yondashuvni faqat 1868-yilda ish olib borgan mashhur arxeolog Juzeppe Fiorelli ko'rsatdi.

Agar ilgari alohida binolar qazilgan bo'lsa, u butun ko'cha va kvartallardan keng ko'lamli ishlarni boshladi va 14-yildan keyin qadimiy shaharning panoramasi ochildi. Bu o'ziga xos muzeyning boshlanishi edi va endi ko'plab sayyohlar ochiq osmon ostida uning maydonlari va ko'chalarida sayr qilishlari mumkin. Biz uchun Pompey ulkan muzey bo'lib, unda siz yo'qolgan shahar tarixini turli tomonlardan o'rganishingiz mumkin. Unda go'yo yaqinda bu yerda shov-shuvli va shov-shuvli, minglab turli istaklar bilan hayajonlangan butun bir xalqning hayoti tasvirlangan.

Forum shahar markazi, jamoat hayotining diqqat markazi edi. Bu Pompey aholisi uchun muqaddas joy bo'lib, ularning barcha niyatlari, foydalari, umidlari va odatlari markazi edi⁹⁷. Bu hech qanday Pompey yashay olmaydigan element edi.

Hozir Pompeyda 30 ga yaqin ko'cha va yo'laklar mavjud bo'lib, ular uzunligining katta qismi tozalangan: bular Konsullik, Fortuny, Teatralnaya, Savdogar, muyulishlar va boshqalar⁹⁸.

O'zbekistonda Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari tarixiy markazlari ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirilgan. Ularning bunday muzeylarga aylantirilishi o'tgan asrda boshlangan edi.

Buxoro davlat arxitektura va san'at muzey-qo'riqxonasi 1922-yilda tashkil etilgan. 1945-yildan buyon Buxoro muzeyi Ark

⁹⁷ Ионина Н.А. «50 великих музеев». «ВЕЧЕ», 2008, стр.7.

⁹⁸ Ионина Н.А. «50 великих музеев». «ВЕЧЕ», 2008, стр.9.

qal'asida joylashgan. Buxoro muzeyida o'zbek xalqining madaniy, moddiy va ma'naviy merosidan 100 mingdan ziyod eksponatlar mavjud. 1985-yilda Buxoro muzeyi davlat muzey-qo'riqxonasi maqomiga ega bo'ldi⁹⁹.

Ichon qal'a majmuasi me'moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan (1967)¹⁰⁰.

Samarqand davlat muzey qo'riqxonasining tarixi 1874-yilda arxeologik, numizmatik, etnografik va geologik kolleksiyalar asosida tashkil etilgan Samarqandning birinchi muzeyiga borib taqaladi.

Muzeyning rasmiy ochilishi 1896-yilda bo'lib o'tgan¹⁰¹.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekiston hukumatining 1982-yil 26-maydagi 397-sonli qarori bilan tashkil etilgan. Uning tarkibiga Samarqand viloyati hududidagi barcha me'moriy yodgorliklar va tarixiy hududlar kiritildi. Umumiy muhofaza etiladigan hududlar 798 gektarni tashkil etib, shundan Afrosiyob shaharchasi 218 gektar, o'rta asr Samarqand shahri (eski shahar) 320 gektar va "Yangi shahar" 260 gektarni tashkil etgan. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tashkil etilganidan bir yil o'tib, ya'ni 1983-yilda Samarqand viloyatida 1642 ta moddiy madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasiga olingan. Ulardan 214 tasi me'moriy yodgorliklar, 335 tasi monumental san'at yodgorliklari va 1093 tasi arxeologik yodgorliklar edi¹⁰².

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi "Sarmishsoy", "Shahrisabz", "Termiz" va "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonalari

⁹⁹ <https://www.bukharamuseums.uz/uz/>

¹⁰⁰ Ичан қалъа музей-қўриқхонаси тўғрисида. Ўзбекистон ССР Министрлар советининг 61-сонли қарори. 1967.

¹⁰¹ <https://legacy.uz/uz/samarkandskij-gosudarstvennyj-muzej-zapovednik/>

¹⁰² Юнусов М. Самарқандга музей-қўриқхона керакми? <https://uza.uz/posts/345178>.

faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qaroridan so'ng respublikamizdagi muzey-qo'riqxonalar soni yettitaga yetdi¹⁰³.

Ishlaydigan muzeylar. Boshqa muzeylar muzey manfaati uchun ba'zan tijorat maqsadlarida ishlatiladigan an'anaviy hunarmandchilikni namoyish etadigan ustaxonalarni tashkil etdi. Boshqa joylarda ustaxonalar va sanoat obyektlari saqlanib qolgan va qayta tiklangan. Bunday hollarda mahsulot ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalarni namoyish qilishdan ko'ra, ishlab chiqarishning an'anaviy usullarini saqlash va saqlashga e'tibor qaratiladi va bu bilan an'anaviy malakalarning uzluksizligi ta'minlanadi.

Ana shu darajada merosning nomoddiy jihatlar va ularni asrab-avaylash zarurati namoyon bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun olingan batafsil bilim va ko'nikmalar eng yaxshi og'zaki va vizual vositalar orqali yetkaziladi va mul'timedia vositalari orqali saqlanadi.

Bunday usullarni turli muzeylarga keng tatbiq etish mumkin¹⁰⁴.

Bunday muzeylarga O'zbekistonda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva va "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonalar faoliyatini misol qilsa bo'ladi. Ushbu tarixiy shaharlarda an'anaviy turmush tarzi qisman bo'lsada saqlanib qolgan bo'lib, hozirgi kunda davom etayotgan hunarmandchilik, fol'klor, savdo-sotiq turlarini kuzatish mumkin.

¹⁰³ Юнусов М. Самарқандга музей-қўриқхона керакми? <https://uza.uz/posts/345178>. «Сармишсой», «Шахрисабз», «Термиз» ва «Қўқон» давлат музей-қўриқхоналари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 30.05.2019 йилдаги 443-сонли қарори.

¹⁰⁴ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 5.

Muzeylar – diqqatga sazovor joylar. Arxeologik joylar yoki tabiiy yashash joylari kabi maxsus muhofaza qilinadigan joylarda turli mezonlar qo'llaniladi. Atrof-muhit omillari, jumladan, iqlim va tashrif buyuruvchilarning mumkin bo'lgan ta'sirini hisobga olgan holda yodgorlikni saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu obyektlar, shuningdek, diqqatga sazovor joylarning joylashishiga ham, topilmalarga ham xalaqit bermaydigan maxsus ishlov berish va saqlash usullariga muhtoj¹⁰⁵.

Virtual muzeylar. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari turli xil muzey talqinlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Madaniy va tabiiy merosni taqdim etish va talqin qilish, ularni keng ommaga yetkazish uchun turli manbalardan olingan raqamli tasvirlarni birlashtirish qobiliyati muzeylarning muhim vazifasi sifatida qaralishi kerak¹⁰⁶.

Dunyodagi global muammolarning biri bu butun jahonga xavf solayotgan pandemiya bo'lib qoldi. Odamlar endilikda xavfga duch kelmasligi uchun ko'chaga iloji boricha chiqmaslikka harakat qilishmoqda.

Londonlik dasturchi Mak Grenfell yaratgan yangi – Virtual Museums sayti esa virtual sayohat qilish mumkin bo'lgan onlayn muzeylarni o'zida jamlashni maqsad qilgan. Endi internetingiz bo'lsa bas – uydan chiqmagan holda smartfon, noutbuk, planshet yoki komp'yuter orqali turli muzeylarni 3D formatida tomosha qila olasiz!¹⁰⁷

¹⁰⁵ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 5.

¹⁰⁶ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 5.

¹⁰⁷ <https://www.terabayt.uz/post/Дунёдаги барча виртуал музейларга энди битта сайтдан кира оламиз!>

Odamlarning madaniy hordiq chiqarishining yo'llaridan biri muzeylarga tashrif buyurishdir. Ular bu yerda turli yo'nalishlar bo'yicha bilimni oshiradi, ayrim eshitgan lekin, o'z ko'zi bilan ko'rmagan narsalari bilan tanishadi.

Muzey profili – muzeylar tasnifi, ularning ixtisoslashuvi toifasi bo'lib, muzey kolleksiyasi tarkibini, muzey fondlarini egallash tamoyillarini, ekspozisiya ishi va ilmiy-ma'rifiy ishlarning predmetini belgilaydi¹⁰⁸.

Jeyms Meysi Smitson "xalq orasida bilimlarni kengaytirish va tarqatish" institutini yaratish istagini bildirdi. Shunday qilib, dunyoga mashhur ilmiy va ta'lim muassasasi Vashingtonda Smison instituti tashkil etildi. San'at galereyasi, kutubxona, kimyo laboratoriyasi, ma'ruzalar zallari va muzey galereyalari joylashgan va Amerika Qo'shma Shtatlari Qurilish kompaniyasiga tegishli "barcha san'at va tabiiy tarix, o'simliklar, geologik va mineralogik namunalarni" joylashtirish uchun mo'ljallangan binoning Smisonianning birinchi binosi 1855-yilda qurib bitkazildi va uch yildan so'ng Amerika Qo'shma Shtatlari Milliy muzeyi ochildi. Bino tez orada kolleksiyalar uchun tor bo'lib qoladi. Bugun Vashingtondagi markaziy park xiyobonida bir nechta binolar bor. Ular Smison instituti ixtisoslashgan muzeylarining binolari¹⁰⁹.

Janubiy Amerikadagi birinchi muzeylardan biri 1812-yilda Buenos-Ayresda tashkil etilgan va 1823-yilda milliy muzey sifatida omma uchun ochilgan. Ko'p yillar davomida muzey universitet binosida joylashgan edi. 1937-yilda Argentina tabiiy tarix muzeyi hozirgi binosiga ko'chirilgan. Uning kolleksiyalari

¹⁰⁸ Третьякова Т.Н. Музееведение. Челябинск, 2011, стр. 6.

¹⁰⁹ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 3.

tabiat va insoniyat tarixining barcha sohalarini qamrab oladi, ammo paleontologiya, antropologiya va entomologiya sohasidagi kolleksiyalar alohida ahamiyatga ega¹¹⁰.

1835-yilda Misr hukumati arxeologik yodgorliklarni himoya qilish va artefaktlarni saqlash uchun qadimiy yodgorliklarni saqlash xizmatini tuzadi. Muzey 1858-yilda tashkil etilgan, ammo 1902-yilda Qohiradagi Misr muzeyi ochilgunga qadar uning kolleksiyalari doimiy binoda namoyish etilmagan.

Ko'p o'tmay, ba'zi kolleksiyalar ikkita yangi binoga ko'chirildi, ular negizida mashhur Islom (1903) va Koptlar (1908) muzeylari tashkil etildi¹¹¹.

Mustaqillikdan bir necha yil o'tgach, Nigeriya hukumati Milliy muzeylar va yodgorliklar komissiyasini tuzdi, uning mas'uliyati mamlakatning asosiy shaharlarida milliy muzeylarni tashkil etish edi. Muzeylar tashkil etish madaniy o'ziga xoslikni rivojlantirish va milliy birlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatning bir qismiga aylandi. Ushbu muzeylarning ba'zilarida an'anaviy hunarmandchilikni namoyish etadigan ustaxonalar tashkil etilgan.

Birinchi milliy muzeylardan biri bo'lgan Jos muzeyida an'anaviy arxitektura muzeyi tashkil etilgan¹¹².

Yamayka instituti 1879-yilda Yamaykada adabiyot, fan va san'at rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. 1891-yilga kelib ilmiy muzey tashkil etildi, keyingi yili esa portret galereyasi ochildi. Hozirda ushbu institut orolning turli

¹¹⁰ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 3.

¹¹¹ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 4.

¹¹² Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 5.

hududlarida joylashgan bir qancha tarixiy-etnografik muzeylarni boshqaradi. Fan muzeyi – tabiiy tarixning hozirgi bo‘limi – Kingstondagi institutning bosh qarorgohi binosida joylashgan¹¹³.

Britaniya muzeyi Parlament akti bilan tashkil etilgan bo‘lib, unda muzey "nafaqat olimlar va qiziquvchilarni tomosha qilish va o‘yin-kulgi uchun, balki jamiyatning umumiy foydalanishi va manfaati uchun" ekanligi ta’kidlangan. U 1759-yilda Montagu binosida ochilgan. Bloomsbury binosi shu maqsadda sotib olingan. Ushbu asos solingan birinchi kundan boshlab keng jamoatchilikka kirish bepul edi, garchi dastlab kirish uchun chipta so‘rash kerak bo‘lsa-da. 1784-yilda Fransiyadan kelgan bir tashrifchi "Ommaviy ta’lim va qoniqish" sababi muzey xizmat ko‘rsatganligini ta’kidladi. Muzey kolleksiyalarida antik dunyo buyumlari, noyob madaniy meros buyumlari, qo‘lyozmalar, shuningdek, etnografik, numizmatik va badiiy materiallar mavjud edi. Ushbu muzeyga asos solingan qonunda o‘sha davrning qomusiy tafakkuri o‘z aksini topgan va “barcha fan san’ati bir-biri bilan bog‘liq” deb ta’kidlangan.

Ammo tabiiy fanlar kolleksiyalari keyinchalik 1881-yilda ochilgan Tabiiy tarix muzeyini yaratish uchun muzeydan olib tashlangan¹¹⁴.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda muzeylar soni jadallik bilan oshib borishi kuzatilmoqda. Bu albatta, madaniy meros sohasidagi ishlatilmay turgan resurslardan foydalanish natijasida erishilmoqda.

¹¹³ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 4.

¹¹⁴ Джеффри Л. Роль музеев и кодекс музейной этике. Управление музеем: практическое руководство. ИКОМ, Париж, 2004, стр. 2.

Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2021-yil 1-yanvar holatida Oʻzbekistondagi muzeylar soni 105 tani tashkil etgan¹¹⁵.

Shu bilan birga, har yili turli yoʻnalishlar boʻyicha bir necha muzeylar ochilmoqda.

- uzoq muddat uchun texnik vositalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ko'chmas yodgorliklarni saqlash shartlari

(xavfsizlik tizimlari) arxivlash (iqlim, saqlash sharoitlarini kuzatish tizimlari);

– muzeylarni nogironlar uchun muzey dasturlariga tashrif buyurish va ishtirok etish imkoniyatlarini beradigan uskunalar bilan jihozlash.

III BOB. ARXELOGIYA MUZEY, PARK VA MUZEY-QO'RIQXONALARI RESURLARI VA ULARNI BOSHQARISH

III.1. Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalari resurslari

Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalari resurslarini funksiyalariga qarab bir necha turga bo'lish mumkin. Arxeologiya merosi obyektlarini boshqaruv funksiyasiga ko'ra, insoniy, moliyaviy va intellektual turlarga bo'lsa bo'ladi. Lekin, muzeylashtirish nuqtai-nazaridan ularni ko'char va ko'chmas arxeologiya merosi resurslariga ajratsak bo'ladi.

Resurslar – funksional imkoniyatlarni rivojlantiruvchi va jarayonlarning bajarilishini osonlashtiradigan insoniy, moliyaviy va intellektual hissa.

Resurslar funksional potensialning asosini tashkil qiladi va uchta asosiy shaklda taqdim etiladi: insoniy, moliyaviy va intellektual. Resurslar institusional tuzilmaga huquqiy asosda belgilangan vakolatlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ular institusional tuzilma yoki qonunchilik bazasidan ko'ra ko'proq o'zgarishlarga duchor bo'ladi.

Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalari resurslarini to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1. Arxeologiya resurslari.
2. Boshqaruv resurslari.
3. Moliyaviy resurslar.
4. Huquqiy resurslar (6-rasm).

Arxeologiya resursi deganda arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan, kamida 50 yil bo'lgan inson hayoti yoki faoliyatining har qanday moddiy qoldiqlari tushuniladi.

Arxeologik meros resurslarining ikkita asosiy komponenti:

- landshaftdagi arxeologik joylar va yodgorliklar;
- muzeylarda va xususiy mulkda saqlanadigan ashyolar kolleksiyalari mavjud.

Ushbu tasnifdan asosiy xususiyatiga ko'ra bir hil bo'lgan obyektlar to'plamini o'rganish usullaridan biri sifatida (bizning holatda, keng qamrovli arxeologik meros, tarixiy yodgorlik sifatida) muzeylashtirish nuqtai nazaridan foydalanib, biz quyidagi gradasiyani taklif qilamiz. bu arxeologik meros.

I. Arxeologik joylar. Bularga: aholi punktlari, qabristonlar, irrigatsiya tizimlari, ishlab chiqarish va hunarmandchilik majmualari kiradi.

II. Arxeologik obyektlar. Bu arxeologik yodgorliklarning barcha alohida tuzilmalarini va ushbu obyektlardan tashqaridagi barcha alohida tuzilmalarni o'z ichiga oladi.

III. Arxeologik topilmalar (narsalar). Ushbu turkumga arxeologik yodgorliklar va arxeologik obyektlarning ichida va hududida joylashgan barcha narsalar, shuningdek, arxeologik yodgorlik va arxeologik obyektning butun harakatlanuvchi qismi kiradi¹⁸³.

Artefakt – bu inson tomonidan yaratilgan, o'zgartirilgan yoki hatto oddiygina foydalanilgan har qanday narsa va buyumlar¹⁸⁴.

¹⁸³ Н. М. Булатов. Принципы организации археологических музеев-заповедников. Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры. Вып. III. .81 ., 1976г.

¹⁸⁴ Archaeology Frequently Asked Questions. Santa Clara University. www.scu.edu

Bizda faqatgina arxeologiya fani bir xil yo'nalishda rivojlangan bo'lsada, g'arbda u bir necha yo'nalishlarda taraqqiy etgan.

AQShda ma'lum bo'lgan arxeologiyaning turlari:

- dengiz arxeologiyasi – bu suv ostidagi odamlarning artefaktlarini, odatda kema halokatlarini o'rganadi.
- landshaft arxeologiyasi – bu joylarning geografik tartibini o'rganadigan fan.
- osteologiya suyaklarni, odamni va hayvonlarni o'rganadi.
- paleopatologiya arxeologik yodgorliklarda topilgan odamlar va hayvonlarning eski kasalliklarini o'rganadi.
- paleoetnobotanika – arxeologik yodgorliklardan topilgan eski o'simliklar va o'simlik materiallarini o'rganadigan fan¹⁸⁵.

Arxeologiya boyliklarni saqlashdagi asosiy muammolarning aksariyati resurslarni tashkil etuvchi materiallarning buzilishi bilan bog'liq. Buzilish manbalari ekologik va texnogen sabablarning ikkalasini ham qamrab oladi. Artefaktlar yomonlashishi tabiiy jarayonlar tufayli, e'tiborsizlik, vandalizm, haddan tashqari foydalanish, o'tmishdagi noto'g'ri ta'mirlash va to'g'ri saqlamaslik va noto'g'ri boshqarish kabi inson omillari ta'sirida sodir bo'ladi.

Konservatsiyaning asosiy maqsadi arxeologik merosni moddiy yo'qotish va shikastlanishdan himoya qilish hamda uning qadriyatlarini saqlab qolishdir. Bunga yomonlashuv sabablarini bartaraf etish yoki yumshatishga qaratilgan profilaktika yoki tuzatuvchi himoya tadbirlari orqali erishiladi.

Shunday qilib, muhofaza qilish usullariga uni o'rganish va namoyish qilish orqali talqin qilinishi hamda jamoatchilikka

¹⁸⁵ Archaeology in Oklahoma. Oklahoma history center education department. <http://www.ou.edu/cas/archsur/counties/counties.htm>

ochiq ekanligi bevosita ta'sir qiladi. Xususan, bu to'g'ridan-to'g'ri obyektlarning vizual ko'rinishiga ta'sir qilishi, bu esa o'z navbatida haqiqiylik haqidagi tasavvurlarni o'zgartirishi mumkin.

Arxeologiya merosi obyektlarida o'tkazilgan qazishmalarni tadqiqot tugagandan keyin ko'mib qo'yish lozim. Bu u yerda qazishmalarni davom ettirish yoki obyektning saqlanishi uchun muhim hisoblanadi. Keyingi paytlarda qazishmalarni polietilen materiallari bilan yuza qismini yopib, keyin ko'mish holatlari ko'p uchramoqda.

Bunday usulda yer ostidan chiqib ketayotgan namlik ushlab qolinadi hamda tuproq qatlamining tezroq eroziyaga uchrashiga olib keladi. Natijada ochib o'rganilgan madaniy qatlamlar buzilishi mumkin. Bunday usuldan voz kechish yoki havo o'tkazadigan, namlikning chiqib ketishiga to'sqinlik qilmaydigan material bilan yopilishi yoki polietilen materialida bir-biriga yaqin teshikchalar hosil qilinishi kerak bo'ladi.

Arxeologik yo'l bilan topilgan ashyolarga konservativ ishlov berishdan oldin har tomonlama chuqur izlanishlar olib borish zarur. Bular artefaktlar mavjud bo'lgan muhitga tiklanganligi, obyektlarning holati yoki ular topilgan vaqtidagi holati va ularning yangi ekologik kontekstiga e'tibor qaratishlari kerak. Materialni tushunishdan tashqari, nimani o'rganish ham bir xil darajada muhimdir. Ashyolardan foydalanish muddati davomida o'zgarishlar yuz berishi qazishdan va foydalanishdan keyin har qanday buzilish yoki vaziyat o'zgarishi sodir bo'lishi mumkin. Ma'lumotni aniqlash, tegishli atrof-muhit sharoitlari (harorat, namlik, yorug'lik va boshqalar) ashyolarni saqlash yoki hatto ko'rgazma qilish uchun foydalidir.

Shuningdek, qazish natijasida yetkazilgan zarar yoki buzilish qayd etilishi kerak. Hozirgi vaqtda saqlash shartlari va

foydalanish huquqlari ham ko'rib chiqilishi kerak. Manfaatdor tegishli shaxslar bilan maslahatlashish barcha jarayonlarda talab qilinadi.

Biroq, ko'pgina artefaktlarning ishlab chiqarish usullari topilgan arxeologik qazishmalarda ma'lum qayta tiklash usullari mos kelmasligi va an'anaviy bo'lmasligi mumkin. Bu artefaktlar allaqachon fizik va kimyoviy o'zgarishlarga duchor bo'lgan va degeneratsiyaning turli bosqichlarida bo'ladi. Bu obyektlarni muhofaza qilishda zamonaviy ilm-fandan to'liq foydalanadigan strategiya va rejani talab qiladi. Shuning uchun arxeologik boyliklarni asrab-avaylashda ko'plab fanlar mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlik muhim shartdir¹⁸⁶.

Arxeologiya ashyolarini muhofaza qilishdagi qiyinchiliklardan yana biri bu ashyolarning noqonuniy savdosi bo'lib hisoblanadi. Bu ko'pincha arxeologiya merosi obyektlarida "qora arxeolog"lar tomonidan qazishmalar o'tkazilishi natijasida topilgan topilmalarni o'zlashtirish oqibatida sodir bo'ladi.

Boshqaruv resurslari. Kerakli harakatlarni amalga oshirishga imkon beruvchi faoliyat tuzilmasi va ish usullarini o'rnatadigan tashkiliy model.

Madaniy merosni boshqarish bo'yicha tashkiliy va qarorlar qabul qilish ehtiyojlari ko'pincha institusional tuzilmalarni yaratishga olib keladi. Bunday tuzilmalar tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishni tashkil etish, shuningdek, ish uslublarini doimiy ravishda ko'rib chiqish va takomillashtirish imkonini beradi.

¹⁸⁶ Ndoro W. Conservation and Management of Archaeological Heritage Resources. <https://www.researchgate.net/publication/326804347>

Arxeologiya muzey, park va qo'riqxonalari o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun resurslardan – tarixchi, arxeolog, muzeyshunoslar, ekskursavodlar mehnatidan foydalanadi.

Har qanday korxonani rivojlantirishning strategik vazifalari va qisqa muddatli rejalarini amalga oshirish uning personal (xodimlari) tomonidan, ya'ni jalb qilinadigan inson resurslari tomonidan ko'pincha ishlab chiqarish funksiyalari deb ataluvchi muayyan sa'y-harakatlarning bajarilishini nazarda tutadi¹⁸⁷.

Moliya resurslari – iqtisodiy subyekt ixtiyorida, uning tasarrufida bo'lgan jami pul mablag'lari, moliyaviy aktivlari majmui¹⁸⁸.

Madaniy meros obyektlarining moliya resurslarini davlat davlat, viloyat byudjetlari va Madaniy meros jamg'armasi, jismoniy va yuridik shaxslar xomiyligi hamda investisiya mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

Respublika byudjeti hisobidan madaniy meros obyektlariga:

2019-yilda jami 59 125,05 mln. so'm (2018-yilga nisbatan 127 foiz ko'proq) byudjet mablag'lari ajratilgan.

Ajratilayotgan mablag'lar doirasida:

– 77 ta madaniy meros obyektlarini ta'mirlash-tiklash, konservatsiya va arxeologiya tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

2020-yilda amalga oshirilgan ishlar:

Jami 66 843,808 mln. so'm (2019-yilga nisbatan 130 foiz ko'proq) byudjet mablag'lari ajratiladi, shundan 85 ta madaniy

¹⁸⁷ Базаров Ф.О., Маъмуров Б.Х. Инсон ресурсларини бошқариш. Маърузалар матни. Тошкент, 2016, 12-бет.

¹⁸⁸ QOMUS.INFO > М ҳарфи > МОЛИЯ РЕСУРСЛАРИ

meros obyektlari ta'mirlash-tiklash, konservatsiya va arxeologiya tadqiqot ishlari amalga oshirilgan¹⁸⁹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4068-sonli qarori asosida 2020–2025-yillarda arxeologiya merosi obyektlarida bajariladigan ishlar rejasi ishlab chiqilgan.

2020-yilda Respublika byudjetidan arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun – 630 mln, arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari uchun – 6,5 mlrd so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan edi.

Pandemiya sharoitida Respublika byudjetida mablag' yetishmaganligi sababli ilmiy tadqiqot hamda konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari uchun mablag' ajratilmagan.

Hozirgi paytda Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi Mingtepa, Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Yerqo'rg'on arxeologiya merosi obyektlarida arxeologiya ilmiy tadqiqot ishlari hamda yodgorlikni konservatsiya va muzeylashtirish ishlari boshlangan. Ushbu arxeologiya obyektlaridagi ilmiy tadqiqot hamda konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari mahalliy byudjetdan amalga oshirilmoqda.

2021-yilda Respublika byudjetidan arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun – 730 mln, arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari uchun – 5 mlrd so'm mablag' ajratilgan.

¹⁸⁹ Маданий мерос агентлиги архиви материаллари. 2019-2020 йиллар.

2022-yilda Respublika byudjetidan arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun – 720 mln, arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari uchun – 6,6 mlrd so'm mablag' ajratilgan.

2023-yilda Respublika byudjetidan arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun – 710 mln, arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari uchun – 5,4 mlrd so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan.

2024-yilda Respublika byudjetidan arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun – 640 mln, arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari uchun – 5,6 mlrd so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan.

2025-yilda Respublika byudjetidan arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun – 580 mln, arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish va muzeylashtirish ishlari uchun – 5,6 mlrd so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan¹⁹⁰.

Huquqiy resurslar. Har bir mamlakatda madaniy meros obyektlarini aniqlash, muhofaza qilish va saqlash, shuningdek, ularga kirishni ta'minlash bo'yicha qandaydir tartibga solish shakllari mavjud. Tartiblarning bu shakllari rasmiy huquqiy asoslardan tortib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yozilmagan an'analargacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu xalqaro konvensiyalar va xartiyalar, milliy qonunchilik, mintaqaviy normativ hujjatlar, mahalliy qonunosti hujjatlari va hududiy

¹⁹⁰ Madaniy meros agentligining arxiv materiallari. Bu taxminiy dastlabki hisob-kitoblar hisoblanib, kelgusida ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

rejalashtirish normalari. Shaklidan qat'iy nazar, bunday reseptlar tizimning mavjudligini tartibga soluvchi huquqiy asosni tashkil qiladi. Obyekt boshqaruvi va a'zolariga muayyan harakatlarni amalga oshirish huquqini beradi.

Jismoniy shaxslar va tashkilotlarga harakat qilish huquqini beruvchi direktivalar. Huquqiy baza meros mulki nima ekanligini va bunday mulkni saqlash va boshqarish mezonlarini belgilaydi; qoida tariqasida, bu qonun hujjatlaridan foydalanish orqali sodir bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining quyidagi qonun va qarorlari, rezolyusiya va boshqa normativ hujjatlari asosida davlat muhofazasiga olingan: «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» (2001), «Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» (2009), «Muzeylar to'g'risida»gi (2008), «Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida»gi (1998), «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» (2002), «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» (2014).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan YUNESKO konvensiyalari:

Qurolli majoro chiqqan holda madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (1954-yil, 14-may, Gaaga) – 1995-

йил 22-декабрда О'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan, 1996-йил 21-майдан kuchga kirgan¹⁹¹.

Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqaga o'tkazishning oldini olish va ta'qiqlashga qaratilgan choralar to'g'risidagi konvensiya (1970-йил, 14-noyabr, Parij) – 1995-йил 22-декабрда О'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan, 1996-йил 15-iyundan kuchga kirgan¹⁹².

1970-yilda YUNESKO tomonidan Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va ularga egalik huquqini o'tkazishni taqiqlash va oldini olish vositalari to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan. Konvensiya YUNESKOga a'zo davlatlarni quyidagilarga chaqiradi:

a. madaniyat obektlarining noqonuniy savdosining oldini olishda hamkorlik qilish;

b. noqonuniy olib qo'yilgan madaniy boyliklarni qaytarishda boshqa mamlakatlar (restitutsiya) bilan hamkorlik qilish;

c. ularning madaniy boyliklarini asrash¹⁹³.

Ba'zi hukumatlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, Konvensiyani ratifikatsiya qilgan, lekin ko'pchilik hali buni

¹⁹¹ Куролли можаро чиққан ҳолларда маданий бойликларнинг ҳимоя қилиниши тўғрисида Конвенция. 1954 йил 14 май, Гаага. Ўзбекистон Республикаси учун 1996 йил 21 майдан кучга кирган. Lex.uz.

¹⁹² Маданий бойликларни ноқонуний равишда олиб келиш, олиб кетиш ва уларга бўлган эгалик ҳуқуқини ўзгага беришни ман этиш ва олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида Конвенция. 1970 йил 17 ноябрь, Париж. Ўзбекистон Республикаси учун 1996 йил 15 июндан кучга кирган. Lex.uz.

¹⁹³ Маданий бойликларни ноқонуний олиб кириш, олиб чиқиш ва эгалик ҳуқуқини бошқага ўтказишнинг олдини олиш ва тақиқлашга қаратилган чоралар тўғрисидаги конвенция. ЮНЕСКО, 1970 йил 14 ноябрь. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. Конвенциялар, битимлар, протоколлар, тавсияномалар, декларациялар (тўплам). Тошкент, "Адолат", 2004. 161-170 бетлар.

amalga oshirmagan. Xalqaro bo'lishiga qaramay sa'y-harakatlari natijasida ko'plab mamlakatlar qimmatbaho arxeologik meros obyektlarini yo'qotishda davom etmoqda.

Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (1972-yil, 16-noyabr, Parij) – 1995-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan, 1996-yil 15-iyundan kuchga kirgan¹⁹⁴.

Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar tomonidan xalqaro shartnoma qoidalari tan olinadi va unga amal qilishi shart hisoblanadi. Konvensiya talablariga muvofiq madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish YUNESKO (Birlashgan Millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti) bilan maslahatlashgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki, YUNESKO Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlarda faqatgina milliy qonunlar emas, balki a'zo davlatlar tomonidan tan olingan qoidalar ham amalda qo'llaniladi. o'rtasidagi tafovutni kamaytirish maqsadida Milliy qonunchilik va konvensiya implementasiya qilinadi.

Ko'pchilik mamlakatlarda madaniy merosni to'liq himoya qilishga qaratilgan qonun yoki qonunosti hujjatlari ishlab chiqilmagan.

Masalan, Afrika mamlakatlaridan biri bo'lgan Angolada so'nggi o'n yillikda huquqiy sohada amalga oshirilgan ulkan sa'y-harakatlarga qaramay, amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, arxeologik merosni boshqarishning o'ziga xos sohasida hamon kamchiliklar mavjud. Dunyoning aksariyat davlatlarining arxeologik merosini himoya qilish bo'yicha davlat

¹⁹⁴ Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida Konvensiya. 1972 йил 23 ноябрь, Париж. Ўзбекистон Республикаси учун 1996 йил 15 июндан кучга кирган. Lex.uz.

siyosatidan farqli o'laroq, Angola bu masala bo'yicha aniq qonun yoki farmon ishlab chiqmagan¹⁹⁵. Buni yanada aniqroq ifodalash maqsadida aytadigan bo'lsak, MDH mamlakatlarida ham arxeologiya merosini saqlash bo'yicha alohida qonun yo'q.

Bunday mamlakatlarda asosan xalqaro huquq normalaridan, misol uchun, 1990-yil arxeologik merosni boshqarish bo'yicha ICOMOS Xartiyasi va YUNESKOning 2001-yil suv ostini muhofaza qilish bo'yicha konvensiyalaridan foydalaniladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan farqli o'laroq, O'zbekistonda bu sohaga oid 2009-yilda "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Arxeologik inventar, arxeologik manbalar mavjudligini aniqlash, ularning meros ahamiyatini baholash, zarurat tug'ilganda obyekt va uning ashyolarini muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar berish uchun arxiv tadqiqotlari va (yoki) qazishmalar o'tkazishdan iborat.

Arxeologik resurslar inventarlari arxeologik resurslarning joylashuvi va tabiati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ular menejerlarga rivojlanish, qayta kapitallashtirish yoki boshqa loyihalar bo'yicha qaror qabul qilishda yordam beradigan vositalardir. Inventarizasiya hududdagi boshqa resurslarni topish ehtimolini bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, yer boshqaruvchilari arxeologik manbalar potensial bo'lgan joylarda ham resurslar topilishi mumkinligini yodda tutishlari kerak deb hisoblanadi. Shuningdek, menejerlar ushbu sohalarda

¹⁹⁵ Ziva Domingos. Public policies for the management of the Angolan archaeological heritage. Archaeological Heritage Policies AND Management Structures Proceedings of the XVII UISPP World Congress (1-7 September 2014, Burgos, Spain) Volume 15 / Sessions A15a, A15b, A15c, page.7.

resurslarni topish uchun yuqori salohiyat mavjudligini hisobga olishlari kerak arxeologik inventarizasiya to'liq bo'lmagan, mavjud bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan obyekt yoki park. Shuning uchun Arxeologik manbaning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan loyiha yoki faoliyatning ta'sirini baholash uchun har doim arxeologlar bilan maslahatlashish kerak.

Arxeologik resurslarni baholash ularning tarixiy qiymati bilan bevosita bog'liq bo'lib, butun resursni ham, uning tarixiy qiymatini ham hisobga oladi.

Arxeologik resurslarni ularning tarixiy qiymati va ahamiyatiga ega yoki yo'qligini aniqlash uchun baholaydi.

Arxeologik manbalar quyidagi tahdidlarga duch kelishi mumkin:

- insoniy ta'sirlar (masalan, tashrif buyuruvchilardan foydalanish, arxeologik joylarni talon-taroj qilish yoki vandalizm; noto'g'ri boshqaruv amaliyoti va arxeologik obyektlar bilan noto'g'ri ishlash);

- tabiiy kuchlar (masalan, eroziya va arxeologik joylar uchun tabiiy ta'sirlar);

- arxeologik obyektlarni korroziya va yomon saqlash sharoitlari, kolleksiyani boshqarish masalalari;

- taqdimot va namoyish;

- rivojlantirish, qayta kapitallashtirish yoki texnik xizmat ko'rsatish faoliyati¹⁹⁶.

Maqsadga qarab inventarizasiyaning bir necha turlari mavjud (obyekt salohiyati haqida ko'proq ma'lumot olish, resurslarning mavjudligi yoki yo'qligini tekshirish, butun obyektga keng qamrovli so'rov o'tkazish va obyektning artefaktlarini yig'ish).

¹⁹⁶ Parks Canada, guidelines for the management of archaeological resources. Her Majesty the Queen in Right of Canada, 2005.

Ushbu turdagi inventarizasiya odatda mantiqiy ketma-ketlikda, birinchi navbatda, obyekt haqida dastlabki ma'lumotlarni olish va kerak bo'lganda, keng qamrovli so'rov o'tkazish uchun amalga oshiriladi.

Ontario Madaniyat vazirligi arxeologik inventarlarning quyidagi to'rt turini belgilaydi.

1-bosqich. Inventarizasiyaning dastlabki bosqichi, uning davomida arxeolog obyekt atrofidagi sektorga tegishli mavjud tarixiy va/yoki o'rganishdan oldingi hujjatlarni obyektning o'ziga aralashmasdan ko'rib chiqadi. Bu bosqich og'zaki so'rovni ham o'z ichiga olishi mumkin.

2-bosqich. Dastlabki dala ekspertizasi, 1-bosqichda aniqlangan resurslar haqiqatda obyektida mavjudligini tekshirish uchun ishlatiladi.

U yer yuzasida artefaktlarni izlash uchun vizual maydon tekshiruvini yoki belgilangan vaqt oralig'ida chuqurlarni bir qator tekshiruvdan o'tkazishni va artefaktlarni izlash uchun madaniy qatlamni aniqlashni o'z ichiga olishi mumkin¹⁹⁷.

3-bosqich. Batafsil inventarizasiya, 2-bosqichda artefaktlar yoki inshootlar aniqlanganda amalga oshiriladi. 3-bosqich inventarizasiyasining maqsadi arxeologik joyning meros qiymatini va uning saqlanish darajasini baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, tegishli yumshatish choralarini aniqlashdir. Arxeologik joyning qiymatini aniqlash uchun arxeologdan artefaktlarning davri, hajmi va rangi yoki materiali haqida yetarli ma'lumot talab qilinadi. Ushbu bosqich odatda artefakt konsentratsiyasi yoki ijobiy tadqiqotlar maydonini xaritalash va, ehtimol, ma'lum miqdordagi qo'shimcha tekshiruv

¹⁹⁷ Guide for the Management of Archaeological Resources. National Capital Commission. Canada. February 2008. Page.17.

qazishmalarini (har biri taxminan bir kvadrat metr) qazishni o'z ichiga oladi.

4-bosqich. To'liq qazish bu 3-bosqichda muhim meros qiymatiga ega bo'lgan arxeologik obyekt aniqlangan, ammo joyida saqlanib qolmagan hollarda amalga oshiriladi. Ushbu bosqich arxeologik joyni hujjatlashtirish va abadiy yo'qolib ketadigan artefaktlarni olish uchun butun obyektни arxeologik qazishni (yoki o'rganishni) o'z ichiga oladi¹⁹⁸.

Arxeologik resurslar uchun asosiy tahdidlar orasida tabiiy jarayonlar, masalan, ob-havo va yemirilish kiradi. Ba'zi tabiiy jarayonlar darhol va halokatli bo'lishi mumkin, masalan, toshqinlar va zilzilalar. 2005-yil 26-dekabrda Janubi-Sharqiy Osiyodagi sunami natijasida ko'plab arxeologik joylar vayron bo'ldi. Hatto iqlim o'zgarishlari ham arxeologiya resurslarga ta'sir qiladi:

Dengiz sathining ko'tarilishi qirg'oqbo'yi joylarini yuvib ketmoqda, yog'ingarchilikning ko'payishi loy g'ishtli xarobalar eroziyasini kuchaytirmoqda, ko'chib yuruvchi cho'l qumlari qadimiy sivilizatsiyalar izlarini yo'qotib yubormoqda, muzning erishi esa ming yillik organik qoldiqlarning chirishiga sabab bo'lmoqda¹⁹⁹.

Arxeologlar global isishni to'xtata olmaydilar, lekin uning oqibatlarini oldini oladigan yoki kechiktiradigan echimlarni topishlari kerak. Shunday bo'lsa-da, himoya tomlarini o'rnatish va mavjud bo'lgan narsalarni hujjatlashtirish kabi oddiy choralar obyektlarni saqlashga yordam beradi – yoki hech bo'lmaganda

¹⁹⁸ Guide for the Management of Archaeological Resources. National Capital Commission. Canada. February 2008. Page.18.

¹⁹⁹ Ndro W. Conservation and Management of Archaeological Heritage Resources. August 2018. Page. 16. <https://www.researchgate.net/publication/326804347>.

ular yo'qolishidan oldin ularning yozma ma'lumotlarini saqlab qoladi.

Zamonaviy dunyoda aholi sonining ko'payishi bilan birga sanoat va iqtisodiy rivojlanish yangi tahdidlardir hamda to'g'onlar, yo'llar va uy-joy kabi infratuzilmani rivojlantirish masalalari loyihalari haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Insoniyat qurolli mojarosi ham arxeologik resurslarni yo'q qilinishiga olib keladi. Ehtimol, eng mashhuri – 2001-yilda Tolibon tomonidan VI asr monumental haykallari bo'lgan Bomiyondagi Budda haykallarining yo'q qilinishi bo'lishi mumkin. Suriya va Liviyadagi keyingi mojarolarda ham arxeologik joylar yo'q qilingan.

Arxeologiya resurslarini saqlashdagi asosiy muammolarning aksariyati arxeologik boylik bo'lgan resurslarni tashkil etuvchi materiallarning buzilishi bilan bog'liq. Buzilish manbalari ekologik va texnogen sabablarning ikkalasini ham qamrab oladi. Artefaktlarning yomonlashishiga tabiiy jarayonlar tufayli, e'tiborsizlik, vandalizm kabi inson omillari, haddan tashqari foydalanish va noto'g'ri boshqarish kabi omillar sabab bo'ladi. Bularning barchasi o'tmishdagi noto'g'ri munosabatda bo'lish va saqlash natijasidir.

Konservatsiyaning asosiy maqsadi arxeologik merosni moddiy yo'qotish va shikastlanishdan himoya qilish va uning qadriyatlarini saqlab qolishdir. Bunga yomonlashuv sabablarini bartaraf etish yoki yumshatishga qaratilgan profilaktika yoki tuzatuvchi himoya tadbirlari orqali erishiladi. Shunday qilib, muhofaza qilish uni o'rganish va namoyish qilish orqali talqin qilinishi va jamoatchilikka qanday ochiqligi merosni saqlash uchun mumkin bo'lgan usullariga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, bu obektlarning ko'rinishi va vizual qiyofasiga to'g'ridan-to'g'ri

ta'sir qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida haqiqiylik haqidagi tasavvurlarni shartli qilib qo'yish mumkin²⁰⁰.

1-tamoyil: Tarixiy obyektlarni aniqlash va tadqiq qilish aniq qarorlar qabul qilish uchun talab qilinadigan darajada amalga oshiriladi.

2-tamoyil: Identifikasiya tadbirlari natijalari rejalashtirish jarayoniga integratsiya qilinadi.

3-tamoyil. Identifikasiya faoliyati hujjatlar va ma'lumotlarni yuritishning aniq tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi.

4-tamoyil: Tadqiqot faoliyati manfaatdor aholi qatlami, mahalliy hukumatlar, manfaatdor jamoat, professional hamjamiyat va boshqa davlat idoralari bilan samarali maslahatlashuvni o'z ichiga oladi²⁰¹.

III.2. Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalarda ilmiy tadqiqot va amaliy loyihalar

Arxeologiya tadqiqotlari obyekt to'g'risida tarixiy ma'lumotlarni jamlash, shakllantirish va ommalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Arxeologiya muzeylari ilmiy-tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan arxeologiya ashyolarini o'zida jamlash hamda namoyish etish bilan tashrif buyuruvchilarda obyektlar to'g'risida tasavvurlar uyg'otadi. Masalan Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyi Qadimgi zamonlardan XX asr boshlarigacha bo'lgan

²⁰⁰ Ndro W. Conservation and Management of Archaeological Heritage Resources. August 2018. Page. 18-19. <https://www.researchgate.net/publication/326804347>.

²⁰¹ Washington State Standards for Cultural Resources Reporting updated 1/2/2020. Washington State Department of Archaeology & Historic Preservation Olympia, WA, page. 3.

davrlardagi arxeologiya ashyolarini o'zida jamlab, mamlakatimizning turli davrlari, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar haqida ko'plab ma'lumotlarni olishga va ular haqida tasavvur uyg'otishga yordam beradi.

Termiz arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi va loyihasi bo'yicha Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan viloyat hokimining 2001-yil 26-noyabrdagi 218-sonli qarori asosida tashkil etilgan. Muzeyning rasman ochilgan kuni 2002-yil 2-aprel.

Termiz arxeologiya muzeyi mamlakatimizda yagona arxeologiya yo'nalishdagi muzey bo'lib, ixtisoslashgan muzeylar sirasiga kiradi. Bu muzey qadim Surxon vohasining ko'p ming yillik tarixini o'zida jonlantiruvchi shahrimizning eng diqqatga sazovor maskanlaridan biri hisoblanadi ²⁰².

Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi ham asosan shaharning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, moddiy va ma'naviy hayoti haqida hikoya qiluvchi eksponatlar namoyish etiladi. Shu bilan birga, muzeydagi ashyolar butun mamlakatimiz tarixiga oid ko'plab eksponatlar qo'yilganki ular orqali ajdodlarimizning turmush tarzi va urf-odatlar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Afrosiyob qadimiy shahar manzilgohining sharqiy qismida joylashgan Samarqand shahar tarixi Afrosiyob muzeyi Sharof Rashidov tashabbusi bilan 1970-yil 24-oktabrda ochilgan.

Muzeyning eng nodir eksponatlari orasida markaziy zaldagi, muzey binosidan bir-necha yuz metr g'arbda 1965-yilda topilgan VII asrga oid saroy qabulxonasi devorlarini bezab turgan devoriy suratlari alohida o'rinni egallaydi. U VII asrning uchinchi

²⁰² Термиз археология музейи. <https://stam.uz/about/>

choragida Samarqandda hukmronlik qilgan Varxuman oilasining qarorgohi bo'lgan. To'rt devorda to'rt kompozisiya syujetlari – Samarqand hukmdori tomonidan elchilarni qabul qilinishi, maqbaraga tantanali safar, ilvirs ovi va boshqalar tasvirlangan²⁰³.

Arxeologiya muzey-qo'riqxonalaridan biri bu Navoiy viloyatidagi Sarmishsoy davlat muzey-qo'riqxonasidir. O'zbekiston hududidagi eng ko'p va beqiyos qoya tosh rasmlarini saqlab qolgan vodiya Qoratog'ining (Navoiy viloyati) janubiy yon bag'ridagi Sarmishsoy darasi hisoblanadi.

Sarmishsoy darasi qoyatoshlariga o'yib ishlangan rasmlar miloddan avvalgi 4–1 ming yillikka va milodiy I–VII asrlarga mansub bo'lib, qoyalarga bronza, temir va tosh yordamida sxematik, kontur, soya va naqshdor uslublarda tushirilgan. Sarmishsoy darasi va uning atrofidagi soylarda 5 mingdan ortiq petrogliflar borligi aniqlangan. Rasmlarning asosiy qismi soyni o'rta qismida joylashgan 22,5 km uzunlikdagi qoyatoshlarga o'yib ishlangan.

E'tiborlisi, ularning ba'zilari yomg'ir yoqqanda ko'rinsa, ayrimlari quyosh nuri tik tushganda paydo bo'ladi. Shunday suratlar ham borki, uni ko'zingiz yorug'lik qiya tushganda yoki soyada ilg'aydi.

Markaziy Osiyoda eng ko'zga ko'ringan shu xildagi yodgorliklardan biridir. U o'zida 7 ming yillik tarixni mujassam etgan²⁰⁴.

“Sarmishsoy” davlat muzey-qo'riqxonasini samarali muhofaza qilish, kelajak avlodga yetkazish va uning faoliyatini

²⁰³ Афросиёб музейи. https://uz.wikipedia.org/wiki/Afrosiyob_muzeyi.

²⁰⁴ Хўжаназаров М. Сармишсой (қоятош расмлари, илмий тадқиқотлар). “Нурфайз нашриёти”, 2018, 14-бет.

rivojlantirish konsepsiyasi yaratilishi orqali quyidagilarni amalga oshirishni belgilab qo'yish mumkin bo'ladi.

Sarmishsoydagi moddiy madaniy meros obyektlarining eng sarasi qoya tosh suratlari galereyasidir. Bu qoyatosh suratlar qadimgi ajdodlarimiz tomonidan chizib qoldirgan bo'lib, bu tasvirlarda ajdodlarimizning tevarak atrof haqidagi dunyoqarashlari, tasavvurlari va ularning ijtimoiy iqtisodiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan manzaralar aks etgan. Shu jihatdan ular g'oyatda qimmatbaho tarixiy manba hisoblanadi.

Bu beqiyos ma'naviy hamda moddiy madaniy merosimizni asrab-avaylash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazish uchun yangicha yondashuvlar orqali munosabatda bo'lishimiz lozim.

birinchidan, "Sarmishsoy" davlat muzey-qo'riqxonasining moddiy-texnik bazasi zamon talablari va xalqaro standartlarga mos keladigan darajada taminlash lozim, bu esa ularning to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun imkon yaratadi;

ikkinchidan, zamonaviy media makonda "Sarmishsoy" davlat muzey-qo'riqxonasining munosib o'rin egallashi, obyektning faoliyat ko'rsatishiga axborot-kommunikasiya texnologiyalari to'liq joriy etish orqali keng tadqiq va targ'ib etish, xalqaro ilmiy-tadqiqot jarayonlariga talab darajasida integratsiya qilishga yo'l ochish;

uchinchidan, "Sarmishsoy" davlat muzey-qo'riqxonasini xalqaro ilmiy-tadqiqotlarda ishtirokini izchil ta'minlash va undagi qoyatosh suratlarini namoyish etish, ommalashtirish, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yish ham obyektning rivojiga samarali hissa qo'shadi.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va moddiy merosini asrab-avaylash hamda jahon

madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy moddiy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida:

Quyidagilarni amalga oshirish dolzarb vazifalar sifatida qabul qilinishi lozim.

“Sarmishsoy” davlat muzey-qo'riqxonasining normativ-huquqiy bazani, uning boshqaruv tizimi va faoliyatini yanada takomillashtirish;

tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash;

“Sarmishsoy” davlat muzey-qo'riqxonasidan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash;

“Sarmishsoy” davlat muzey-qo'riqxonasida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, moddiy madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish;

“Sarmishsoy” davlat muzey-qo'riqxonasini lozim darajada muhofaza qilish, but saqlanishini ta'minlash va belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan arxeologlar tomonidan arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini tashkil etish;

“Sarmishsoy” davlat muzey-qo'riqxonasida mavjud arxeologiya obyektlarini respublikamiz va xorijdagi turdosh obyektlar bilan taqqoslab mutaxassis va ekspertlar, olimlarni jalb etgan holda atroflicha tadqiq etish, ular haqidagi batafsil ma'lumotlar bazasini yaratish va muntazam yangilab borish, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish, nashr materiallarini

tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalari orqali keng targʻib etish;

tarixiy-ilmiy asoslar boʻyicha qoʻriqxonaning arxeologiya ashyolari, osori-atiqalar, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, kitob va toʻplamlar, video va foto hujjatlar kabi boshqa manbalar hisobidan muzeylashtirilgan ekspozisiya-koʻrgazma yaratish, yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot-resurs markazi faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish;

turistlar, ilmiy tadqiqotchilar va tashrif buyuruvchilar uchun qoʻriqxonaning muhofaza hududidan tashqarisida zamonaviy kompleks dam olish maskanlarini tashkil etish va majmuaning turistik salohiyatini oshirish yuzasidan boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Arxeologiya parklarining yaratilishi arxeologiya merosi haqida omma orasida yanada kengroq tushunchalar paydo boʻlishi uchun xizmat qiladi. Arxeologiya parklari asosan qadimi shaharlarning tarixiy qismida yaratilganligi sababli, aholi madaniy hayotining bir qismiga aylanib borishi kerak. Bu oʻz navbatida tinimsiz ilmiy-tadqiqotlar va amaliy loyihalar natijalariga bogʻliq ravishda rivojlanib borishi lozim.

Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion loyihalarni (keyingi oʻrinlarda davlat buyurtmasi deb ataladi) shakllantirish, bajarish va moliyalashtirish tartibi belgilangan²⁰⁵.

Unga koʻra,

²⁰⁵ Илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг норматив-ҳуқуқий базасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 мартдаги 133-сон қарори.

amaliy tadqiqotlar – amaliy maqsadlarga erishish va aniq vazifalarni hal etish uchun asosan yangi bilimlarni va fundamental tadqiqotlar natijalarini qo'llashga yo'naltirilgan tadqiqotlar;

fundamental tadqiqotlar – tabiat, jamiyat va insonning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy qonuniyatlar haqidagi yangi bilimlarni olishga, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, shuningdek, muayyan faoliyat natijasida yaratilgan obyektlarni o'rganishga qaratilgan nazariy va (yoki) tajriba o'tkazishga qaratilgan tadqiqotlar.

ilmiy-tadqiqot loyihasi – fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar shaklida maqsad va vazifalari, ijrochilari va bajarish muddatlari, manbalari, vositalari (ularning shakllantirish manbalaridan qat'i nazar) ilmiy va (yoki) ilmiy-texnik natijalarni, nou-xau va yangi texnologiyalarni olishga qaratilgan tashkiliy-texnik va boshqa zarur chora-tadbirlar majmui;

maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan davlat siyosati vazifalarining ilmiy yechimini ta'minlashga yo'naltirilgan, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari oldida turgan o'ziga xos muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan, tanlov tashkil qilish uchun al'ternativ loyiha takliflarini shakllantirish imkoni chegaralangan ilmiy-tadqiqot loyihalari;

tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalari – fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ilmiy faoliyat subyektlarining tashabbuslari asosida qabul qilinadigan,

al'ternativ loyiha takliflari talab qilinmaydigan ilmiy-tadqiqot loyihalari;

tematik ilmiy-tadqiqot loyihalari – ilmiy faoliyatning ilg'or yo'nalishlari, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ehtiyojlari va muammolaridan kelib chiqqan holda davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari asosida ishlab chiqiladigan, moliyaviy hajmi ko'rsatilgan, mavzu doirasida olinadigan yakuniy mahsuloti aniq aks ettirilgan muntazam ravishda e'lon qilinadigan, tanlov asosida moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari ²⁰⁶.

Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar tanlov asosida, ayrim hollarda belgilangan tartibda tanlovdan tashqari moliyalashtiriladi ²⁰⁷.

Taklif etilayotgan loyiha mavzusida quyidagi jihatlar aks etishi kerak:

ilmiy-tadqiqot mavzusi dolzarb, mavzuda aniq yakuniy mahsulotga buyurtma aks etgan bo'lishi;

fan va texnologiyalar rivoji uchun ustuvorligi;

iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va respublika hududlarining aniq muammolarini hal etishga qaratilganligi;

loyiha natijasida yakuniy mahsulot yaratilishi asoslanganligi;

ishlanmaning raqobatbardoshligi;

tayyor mahsulotni ishlab chiqishga yo'naltirilganligi;

²⁰⁶ Илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг норматив-ҳуқуқий базасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 мартдаги 133-сон қарори.

²⁰⁷ Отажонов Ш., Эргашева Ш. Илмий-тадқиқот ишларига давлат буюртмаси: танлов мавзулари ва илмий лойиҳалар қандай шакллантирилади? – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» 2020, 6-бет.

loyiha natijalarining tijoratlashtirish imkoniyati mavjudligi;
loyihaning natijadorligi (mahsulot yoki takomillashtirilgan texnologiya);

loyihaning moliyalashtirish prognoz hajmlari belgilanganligi²⁰⁸.

Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalarda quyidagi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot va amaliy loyihalarni amalga oshirish mumkin:

1. Arxeologiya ashyolari katalogini yaratish.
2. Arxeologiya ashyolarini konservatsiyalash.
3. Innovatsion texnologiyalar yordamida arxeologiya ashyolarining 3D modellarini yaratish.
4. Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash va muzeylashtirish uchun individual konsepsiyalarni ishlab chiqish.
5. Konservatsiya qilingan va muzeylashtirilgan arxeologiya merosi obyektlarini ommalashtirish.
6. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish.

Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda raqamli axborot texnologiyalarini moddiy madaniy meros obyektlarini o'rganish, saqlash va ularni muhofaza qilish uchun tadbiriq etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini o'rganish, saqlash va ularni muhofaza qilish jarayonida raqamli fotosuratlar, 3D formatdagi rekonstruksiya, virtual ko'rinish va geografik axborot tizimlaridan foydalanish obyektlarni nazorat qilinishini, ma'lumotlar bazasini to'plash, yangilash, tadqiqotlar o'tkazish,

²⁰⁸ Отажонов Ш., Эргашева Ш. Илмий-тадқиқот ишларига давлат буюртмаси: танлов мавзулари ва илмий лойиҳалар қандай шакллантирилади? – Т.: «Иновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» 2020, 8-бет.

restavratsiya, konservatsiya qilish ishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Geografik axborot tizimidan moddiy madaniy meros obyektlarining joylashgan o'рни topografik xaritasini yaratish, hujjatlarini rasmiylashtirish, tadqiq qilish va tahlil qilish uchun ishlatiladi. Loyihani amalga oshirish davomida Moddiy madaniy meros obyektlarini havodan suratga olish, raqamli xaritalar yaratish va sun'iy yo'ldosh orqali suratgaolingan tasvirlar orqali ma'lumotlar to'planadi. Aslida yuqoridan suratga olish ishlari O'zbekistonda samolyotlar yordamida 1940-yildan boshlab amaliyotda qo'llanilgan. Ushbu loyihani amalga oshirishda uchuvchisiz uchish moslamalaridan (dron) foydalanish rejalashtirilgan. To'plangan surat va tasvirlar ma'lumotlar bazasini yaratish va arxivlashtirish uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, sun'iy yo'ldosh orqali olingan tasvirlari, uchuvchisiz uchish moslamalaridan (dron) foydalanib tushirilgan suratlar yordamida moddiy madaniy meros obyektlarining geografiyasi, arxitektura va arxeologiya yodgorliklarining, arxeologiya ashyolarining 3D modellarini yaratish imkoniyati bo'ladi. Moddiy madaniy meros obyektlarining 3D modellari ularni saqlash, muhofaza qilish ishlarida, ilmiy tadqiqot o'tkazish ishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini 3D modellarini yaratishda raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribalarini Gresiya va Italiyaning qadimiy shaharlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Ko'plab xorijiy mamlakatlarda moddiy madaniy meros obyektlarida ilmiy tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi firma va kompaniyalar mavjud. Masalan: Qozog'istonda: ТОО (Товарищество с ограниченной ответственностью)

«Археологическая экспертиза», Rossiyada: Археологическая фирма «САТОР», Fransiyada: Evexa (Éveha) kompaniyasi, AQShda “SEARCH” kompaniyasi faoliyat olib borishadi. Moddiy madaniy meros obyektlarini tadqiq etish va ma'lumotlarini to'plash ushbu davlatlar tajribasini o'rganish asosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonda arxeologik yodgorliklarni yangi texnologiyalarni qo'llash orqali moddiy madaniy meros obyektlarini ro'yxatga olish ishlari 2000-yildan boshlangan bo'lib, bu borada Yaponiyaning ilg'or texnologiyalari va uskunalari yordamida 2002-yildan buyon amalga oshirilib kelinmoqda. Shunday bo'lsada hozirga qadar qo'lga kiritilgan ma'lumotlar yagona bazaga birlashtirilgan emas.

Moddiy madaniy meros yodgorliklarni ro'yxatga olish ishlari XX asr boshidan tizimli ravishda olib borilgan. O'tgan vaqt mobaynida ma'lum bir yodgorliklarning 3D modellari yaratilgan, rekonstruksiya ko'rinishlari tiklangan. Ularning ayrimlarining koordinatasi, maydoni, balandligi, saqlanish holati, joylashgan joyi, qisqacha tavsifi, o'rganilish tarixi va unga doir adabiyotlar ro'yxati, davri hamda uning hozirgi holatini namoyon etuvchi fotosurat, topoplan va yodgorlikning joylashgan joyi aks etgan xarita bilan ta'minlangan.

Lekin hozirga qadar Respublikada jumladan, Navoiy viloyatida ham mavjud moddiy madaniy meros yodgorliklarni raqamli axborot bazasini elektron ko'rinishi shakllantirilmagan. Raqamli axborot bazasining bir qator qulayliklarga ega. Xususan, tizimga yangi yodgorliklarni qo'shish, tahrirlash, baholash, prognozlash kabilar bir qatorda GIS dasturlarini qo'llagan holda o'tgan asrning 60–90-yillaridagi kosmik fotosuratlar, topografik xaritalar, Google Earth dasturidagi hozirgi vaqtdagi kosmik

suratlarni qatlamma-qatlam qo'yish va shu orqali yodgorliklardagi o'zgarishlarni kuzatish imkoniyatlari mavjud. Bu jarayonda o'tgan asrda buzilib ketgan moddiy madaniy meros obyektlarining o'rnini aniqlash, u yoki bu darajada buzilgan yodgorliklarni o'sha davrdagi holati haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Raqamli axborot bazasiga shuningdek, nafaqat mavjud yoki hozirgi kungacha saqlanmagan moddiy madaniy meros yodgorliklari balki tasodifan topilgan topilmalar, madaniy qatlamlar borasidagi ma'lumotlar, turli hududlarda o'tkazilgan qazishma va shurflar bilan bog'liq ma'lumotlar kiritib boriladi. Ayni vaqtda tizimga geologik, tuproq, qazilma boyliklari, irrigatsiya kabi xaritalar ham kiritilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu holat kelajakda ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish tizimlarini amalda qo'llash imkonini beradi.

Loyihadagi ishlar ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish raqamli axborot bazasini yaratish va uni ishlashini nazorat qilish hisoblanadi. Raqamli axborot bazasi dasturiy ta'minotida quyidagi elektron shakldagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi ko'zda tutiladi.

1. Moddiy madaniy meros obyektlariga doir ma'lumotlar. Ya'ni yodgorlik nomi, tavsifi, saqlanish holati, o'rganilishi, davri kabi ma'lumotlar kiritiladi.

2. Moddiy madaniy meros obyektlariga doir hujjatlar. Yodgorlik bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar ro'yxati, shuningdek, kadastr hujjatlari va boshqa ma'muriy hujjatlar.

3. Moddiy madaniy meros obyektlariga oid kartografik ma'lumotlar. Koordinatalar, joylashgan joyi, maydoni, o'lchami, hamda Google earth tizimidagi yodgorlikning joylashgan o'рни (online tartibda).

Grafik ma'lumotlar. Moddiy madaniy meros obyektlari fotosurati (mavjud bo'lsa), topografik xaritasi (mavjud bo'lsa), topilmalar fotosurati (mavjud bo'lsa).

1. Boshqaruvga oid ma'lumotlar. Ma'lumotlar kim va qaysi tashkilot tomonidan kirgizilganligi, qachon o'zgartirilganligi, yodgorlikni mahalliy yoki respublika ahamiyatiga doirligi borasidagi ma'lumotlar.

2. Pasporti.

3. Ilmiy o'rganilganligi.

4. Moddiy madaniy meros obyektlariga doir mavjud adabiyotlar.

Raqamli axborot bazasiga kirish va undan foydalanish huquqi mehmon, foydalanuvchi, administrator kabilarga bo'linadi. Foydalanuvchlarning funksiyalari maqomlariga qarab chegarlangan bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalish Moddiy madaniy meros obyektlarining 3D modellarini yaratish bo'yicha olib boriladi. Bunda ilg'or axborot texnologiyalaridan, uchuvchisiz uchish moslamalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Moddiy madaniy meros obyektlarining 3D modellarini yaratishda tarixiy manbalar, chizmalar, yozma ma'lumotlar, arxeologiya tadqiqotlari natijalaridan keng foydalaniladi. Barcha amalga oshirilgan ishlar raqamli axborot bazasiga kiritib boriladi.

Moddiy madaniy meros yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish, ularni ilmiy o'rganish hamda ularning xaritasi va raqamli axborot bazasini yaratish ustida ish olib boriladi. Shu bilan bir qatorda Moddiy madaniy meros yodgorliklarning asosiy xususiyatlarini o'zida jamlagan Moddiy madaniy meros yodgorliklarining raqamli axborot bazasi asosi yaratiladi.

Ushbu masalalarni hal etishda ikkita yoʻnalishda ish olib boriladi. Birinchi navbatda raqamli axborot bazasining asosi yaratiladi. Ikkinchi yoʻnalishda mavjud maʼlumotlar tahlil qilinib, Moddiy madaniy meros yodgorliklarga oid maʼlumotlar tizimlashtiriladi, raqamli axborot bazasiga bosqichma-bosqich kiritib boriladi. Bu borada Madaniy meros agentligi arxivida keng koʻlamdagi ilmiy arxivlardan iborat maʼlumotlar bazasi mavjud boʻlib, ularni tahlil qilishda yetarli darajada ilmiy salohiyat mavjud. Shu bilan bir qatorda mutaxassislar tomonidan joylardagi Moddiy madaniy meros yodgorliklarni bevosita joyida oʻrganiladi va ularning maʼlumotlari shakllantiriladi. Qoʻlga kiritilgan maʼlumotlar raqamli axborot bazasining asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot strategiyasi doirasida, ayniqsa, mahalliy hamjamiyatga asoslangan guruhlar tomonidan soʻralishi mumkin boʻlgan joylarda, bir sohaga oid maxsus tadqiqot loyihalari uchun har doim imkoniyat mavjud. Ilmiy tadqiqot muassasalar xodimlari bunday loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish boʻyicha tasdiqlangan tajribaga ega boʻlishadi²⁰⁹.

Hududga asoslangan koʻp davrli landshaft loyihalari Strategiya elementida belgilangan koʻplab tadqiqot yoʻnalishlariga toʻgʻri kelishi mumkin.

Tadqiqot strategiyasining asosiy yoʻnalishi hamkorlikda ishlash boʻladi.

Arxeologik tadqiqotlar uchun mablagʻlar turli manbalardan, ayniqsa, akademik va mahalliy hamjamiyatlarning hamkorlarini birlashtiradigan loyihalar uchun shakllantiriladi.

²⁰⁹ Dr Robert Young Paul Frodsham Iain Hedley Steven Speak. An Archaeological Research Framework for Northumberland National Park Resource Assessment, Research Agenda and Research Strategy. Page. 434.

Bunday tadqiqotlar yakka holda amalga oshirilmaydi, balki kelajakdagi obyektни muhofaza qilish va talqin qilish tashabbuslarini ishlab chiqish uchun ishlatiladi.

O'zbekistondagi yetakchi arxeolog olimlardan biri T.Sh. Shirinov tomonidan tadqiqotlar yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekistonda tarixiy ongni rivojlantirish, Mustaqil O'zbekistonning yosh ozod fuqarosini tarbiyalash borasida o'zbek arxeologiyasi amalga oshirishi lozim bo'lgan asosiy fundamental va amaliy tadqiqotlarni quyidagi bloklarga ajratish lozimdir.

A. Arxeologiyaning nazariy-metodologik asoslarini yaratish

B. Tosh davri, bronza, ilk temir davri, antik va o'rta asrlarga oid arxeologik madaniyatlarni, Markaziy Osiyoni ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilishini o'rganish.

V. Etnos, jamiyat va odamzotning kelib chiqishi, urug'larning shakllanishi, Janubdagi o'troq dehqonchilik madaniyati bilan Shimoldagi ko'chmanchi dasht madaniyati o'rtasidagi o'zaro aloqalar, o'zbeklarning kelib chiqishida Oltoy-Turon va Hindu Yevropa xalqlarining o'zaro hissasini (sintez) aniqlash²¹⁰.

O'zbekistondagi arxeologiya tadqiqotlari olib boradigan davlat muassasalari ichida Samarqand arxeologiya institutining alohida o'rne bor. Bu institutni biz sohaning bayroqdori desak xato qilmagan bo'lamiz.

Bu yerda 50-yildan ko'proq vaqt mobaynida arxeologiya tadqiqotlari, izlanishlari olib borilgan bo'lib, o'ziga xos arxeologiya maktabi yaratilgan. 2022-yilda u qaytadan tashkil etilishi ham uning fan olamida o'ziga xos o'rne borligidan dalolatdir.

²¹⁰ Ширинов Т.Ш. Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон моддий маданият тарихи. (ЎММТ). 32-нашри, Тошкент, 2001, 8-9-бетлар.

Samarqand arxeologiya instituti 1970-yil 19-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 426-sonli qarori bilan O'zR FA Tarix va arxeologiya instituti bazasida tashkil etilgan. 1970-yil 30-sentyabrdan Samarqand shahrida o'z faoliyatini boshlagan institutga 1988-yilda uning tashkil etilishida katta hissa qo'shgan olim, O'zR FA akademigi Yahyo G'ulomov nomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti deb nomlandi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-sonli qarori asosida Institut Milliy arxeologiya markazining filiali shaklida Samarqand arxeologiya instituti nomi bilan qayta tashkil etilgan. 2021-yil 19-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5150-sonli qarori bilan Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy agentligi tarkibida yuridik maqomga ega Samarqand arxeologiya instituti sifatida qayta tashkil etilishi belgilab berildi²¹¹.

Samarqand arxeologiya institutining noyob ilmiy obyekti Muzey, Arxiv, Ilmiy kutubxona va arxeologik topilmalar fondidan iborat.

Ilmiy qutubxonada ibtidoiy jamiyat moddiy madaniyati, qadimda O'zbekiston Respublikasi xududida joylashgan antik va

²¹¹ Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги хузуридаги маданий мерос агентлиги фаолиятини ташкил этиш ҳамда соҳани инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 июндаги ПҚ-5150-сонли қарори.

oʻrta asr davlatlari tarixiga oid 30 mingga yaqin kitoblar, davriy nashrlar va dissertatsiyalar mavjud.

Ilmiy arxiv yurtimizdagi ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan mahalliy va chet ellik arxeologlarning ilmiy hisobotlari, ish materiallar, chizmalar, kundaliklar, negativlar va qazishma natijalarini ifodalovchi fotosuratlardan iborat. Arxivning katta qismini XX asr 40-yillaridan – XXI asr boshlarigacha boʻlgan ilmiy hisobotlari tashkil qilib, bugungi kunda bu yerda 1,5 mingga yaqin ilmiy hisobotlar va kundaliklar saqlanadi.

Bundan tashqari Institutda hozirgi kunda “Oʻzbekiston arxeologiyasi (2010-yildan)” jurnali, “Oʻzbekiston moddiy madaniyati tarixi (1959-yildan)”, “Oʻzbekistonda arxeologik tadqiqotlar”(2000-yildan), “Turon arxeologiyasi va tarixi” (2013-yildan) davriy toʻplamlari nashr qilib kelinmoqda.

Samarqand arxeologiya instituti olimlari tadqiq qilayotgan barcha ilmiy muammolar 4 asosiy ilmiy-tadqiqotlar mavzularida oʻz aksini topgan boʻlib, ular quyidagilardir:

1. Oʻzbekistonning qadimgi tosh asri ildizlari va atrof muhit.
2. Oʻzbekistonning qadimgi va oʻrta asrlardagi davlatchiligi, moddiy-madaniyati va mafkuraviy hayoti (arxeologiya manbalari asosida).
3. Oʻzbekistonning oʻrta asr davlatchiligi va sivilizatsiyasi arxeologiya manbalari asosida.
4. Qadimgi hunarmandchilik mahsulotlarini fizik, ximik, arxeologik tadqiqotlar asosida oʻrganish va arxeologiya obidalarida kimyoviy konservatsiyalash usullarini tadbiq qilish²¹².

²¹² Ширинов Т.Ш. Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон моддий маданият тарихи. (ЎММТ). 32-нашри, Тошкент, 2001, 9-бет.

Respublika mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng asosiy e'tibor xalqaro aloqalarni kengaytirish, qo'shma loyiha va ekspeditsiyalarni tashkil qilishga qaratildi.

Shu o'rinda Samarqand arxeologiya instituti tomonidan keyingi yillarda erishilgan yutuqlarning ayrimlariga to'xtalmoqchimiz.

2017-yilda Kofirqal'a yodgorligida (Samarqand viloyati) noyob topilma aniqlandi. Arkning shimoliy qismidagi saroy majmuasining markaziy xonalaridan birini ochish jarayonida O'zbekiston fani va tarixi uchun favqulodda bo'lgan, VII-VIII asrlarga oid, yog'ochdan o'yib ishlangan – panno aniqlandi. Bu kabi yog'ochga o'yilgan, ko'p personajli kompozisiya xalqaro ahamiyatdagi noyob kashfiyot bo'lib, Markaziy Osiyo arxeologiyasi tarixida ilk bora uchradi.

2020-yilda Qizilqum cho'lining janubiy-sharqida joylashgan Oyoqog'itma botig'i atrofida olib borilayotgan tadqiqotlar davomida neolit davriga oid yangi neolit makoni topdi. Oyoqog'itma-2 nomi bilan atalgan ushbu makonda 370 ta tosh buyumlar, mikrofauna, oxra va gulxan qoldiqlari aniqlandi. Shu bilan birga Qorasigir botig'i yaqinida paleolit davriga oid bir qator (7 ta punkt) yangi toshga ishlov berish ustaxonalari topildi.

G'o'bdin tog'ining Bulung'ur tumaniga qarashli bo'lgan Yetimsoy darasi hududidan qoyatosh suratlari bilan birga Bot-bot qishlog'i xududida tosh davriga oid makon aniqlandi. Yer yuzasidan tosh davriga oid chaqmoqtosh, slanes va kvarsdan ishlangan bir nechta tosh buyumlar qo'lga kiritildi.

Buxoro viloyati Peshku tumaniga qarashli Jonkeldi qishlog'i atrofi hududlarida (2 ta hudud: 23500 ga va 6700 ga maydonda) arxeologik yodgorliklarni aniqlash va xaritalashtirish maqsadida dastlabki dala-qidiruv ishlarini olib bordi. Jonkeldi qishlog'i

hududidan yangi tosh davriga oid yangi yodgorlik – toshga ishlov berish ustaxonasi topildi va O'zbekiston tarixi neolit davriga oid yangi bir yodgorlik bilan boyitildi.

Luvr muzeyi xodimlari bilan birgalikda Kofirqal'a yodgorligida aniqlangan yog'ch panno 2022-yilda Luvrda namoyish qilinishi uchun restavratsiya qilinmoqda.

O'zbekiston arxeologik yodgorliklari kataloglarini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Shu paytgacha Qashqadaryo viloyatidagi Yakkabog', Shahrisabz, Kitob tumanlari (2014–2016-yy.), Samarqand viloyatining Nurobod, Jomboy, Bulung'ur, Oqdaryo va Urgut tumanlari (2017–2021-yy.) arxeologiya yodgorliklari kataloglari yaratildi.

Shuningdek, arxeologiya tadqiqotlarini amalga oshiradigan boshqa muassasalar ham bor. Ularga Milliy arxeologiya markazi, San'atshunoslik instituti, tarkibida tarix va arxeologiya yo'nalishlari bor oliy ta'lim muassasalari hamda ayrim ixtisoslashgan muzeylar kiradi.

III.3. Muzeylashtirishda arxeologiya merosi obyektlarining ahamiyatini baholash

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish va muzeylashtirishda ularning ahamiyatini aniqlash va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, arxeologiya merosi obyektlarining hech qaysisi aynan bir-birini takrorlamaydigan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega hisoblanadi.

Bu xususiyatlarni saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazish uchun tadqiqotlar davomida hamda keyingi bosqichlar bo'lgan konservatsiyalash, muzeylashtirish jarayonida unga zarar yetkazib qo'ymaslik kerak.

Avstraliya ICOMOSining muhim joylarni saqlashga qaratilgan Xartiyasi (Burra Xartiyasi)dan kelib chiqadigan bo'lsak, madaniy merosning ahamiyati – bu joy, obyekt yoki obyektning madaniy qiymatining ifodasi sifatida ta'rif berilgan²¹³.

Merosning, shu jumladan arxeologiya merosining ham ahamiyatini aniqlash quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. Ahamiyatini tekshirish
2. Ahamiyatini baholash
3. Muhimligini tushunish va boshqarish²¹⁴.

Mamlakatimizda madaniy meros obyektlari ahamiyati uchta darajada aniqlash mumkin: mahalliy, respublika va umumjahon merosi. Shundan kelib chiqib, obyektlar ahamiyatini baholashda maxsus, yuqori, o'rtacha, biroz va kam ahamiyatli sifatida belgilash mumkin. Bunda, maxsus mezoniga obyekt butunligining yuqori darajasi, nodirligi, mashhurligi va oson tushunilishi hisobga olinadi. Yuqori mezoniga asl ko'rinishining yuqori darajasi, asosiy elementlarining saqlanib qolganligi, o'zgartirishlar uning ahamiyatini pasaytirmasligi hisobga olinadi. O'rtacha mezoniga obyektga o'zgartirish kiritilganligi yoki elementlarning o'zgartirilganligi, tarixiylik qiymati kamayganligi, ammo umumiy ahamiyatining saqlanib qolganligiga e'tibor qaratiladi. Biroz mezoniga o'zgarishlar natijasida ahamiyati deyarli yo'qotilgan hamda talqin qilish qiyin bo'lgan jihatlari tushuniladi. Kam ahamiyatli mezoniga merosning ahamiyati yo'q

²¹³ The Burra Charter. The Australia ICOMOS Charter for Places of Cultural Significance 2013. Australia ICOMOS Incorporated International Council on Monuments and Sites.

²¹⁴ HERITAGE BRANCH. Assessing Significance for Historical Archaeological Sites and 'Relics'. Department of Planning. Heritage Council of New South Wales. First published 2009, page 1.

qilinganligi, ba'zi qismlari aniqlanganligi, saqlash imkoniyati yo'q bo'lgan holatdagilar hisoblanadi.

Maxsus, yuqori, o'rtacha mezonlari bilan baholangan obyektlarni mahalliy, respublika yoki umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish mumkin. Lekin, biroz va kam ahamiyatli deb baholanganlarini bunday ro'yxatlarga kiritib bo'lmaydi. Ularning aksariyati tasodifiy aniqlangan yoki yer tuzish, qazish va qurilish jarayonlarida aniqlangan, qisman saqlanib qolgan madaniy qatlamlarda uchraydi. Ulardan faqatgina ayrim ma'lumotlarni olish va hisobotlarda qayd etib qo'yish mumkin, xolos.

Saqlash metodologiyasi obyektlarning har qanday turdagi ta'sir qilish usulini hisobga olishi kerak. Biroq, obyektlar "ochiq havo"da saqlanishida eng jiddiy ta'sirlarga duchor bo'ladi.

Ushbu tur eng jozibali bo'lishiga qaramay, obyekt tabiiy landshaftga kiritilganligi sababli, tabiiy muhitga mos kelmaydigan pavil'onlar va inshootlar bo'lmaydi. Aynan shu tur bilan yodgorlik atrof-muhitning iqlim sharoiti ta'sirida muqarrar ravishda zarar ko'radi.

Eng samarali konservant tarkibini aniqlash uchun mutaxassislar shamollar, yog'ingarchiliklar, yer osti suvlarining yaqinligi, kimyoviy va termal ifloslanish, obyekt materialining fizik tarkibi kabi omillarning butun majmuasini va boshqalarni hisobga olishlari kerak.

Materiallarni yo'q qilish, qoida tariqasida, muqarrar jarayondir, ammo uning tezligi tabiiy yoki antropogen sabablarga ko'ra atrof-muhit omillarining agressiv ta'sirining kuchayishi natijasida ko'p marta oshishi mumkin. Bino joylashgan iqlim zonasiga qarab, tabiiy namlik, sovuq, shamol, biodegradantlar,

yer osti suvlari tuzlari ta'sirida jinslarning qarishi turli tezliklarda sodir bo'lishi mumkin²¹⁵.

Shuning uchun ham merosni muhofaza qilishning umumiy yechimi yo'q. restavratorlar uchun usullar, har biri individual ko'rib chiqish va barcha iqlim va tabiiy muhit sharoitlarini hisobga olishni talab qiladi. Yodgorlikni saqlashning ustuvorligi ba'zi hollarda pavil'on yoki yopiq turdagi ochiq ko'rgazmadan voz kechishni talab qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ochiq ko'rgazma sharoitida, obyektlarning jismoniy xavfsizligi nuqtai nazaridan, qazishmaning yon tomonlari devorlarining qulashiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'rish platformalari qiyalik tizimini yaratish tavsiya etiladi. Albatta, nishab tizimi katta maydonni talab qiladi, bu har doim ham mumkin emas. Shu sababli, har qanday muzey-qo'riqxonaning asosiy sharti - bu iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lgan zonalar chegaralarini belgilash, xizmat ko'rsatish binolari va infratuzilmalarini qurish, shuningdek, bufer zonasini ajratish bilan hududni rayonlashtirishdir. Bundan tashqari, obyektlarni saqlash talablari bo'lgan taqdirda, turistik oqim cheklanishi mumkin²¹⁶.

Arxeologiya merosini saqlash bilan shug'ullanadigan ko'pchilik tadqiqotchilar muzeylashtirish konservatsiyaning eng samarali shakli ekanligini ta'kidlaydilar. O'z navbatida, arxeologiya merosini muzeylashtirish bir nechta modellar,

²¹⁵ Постникова О.Н. Причины разрушения каменных памятников архитектуры./ URL:

http://www.standartov.ru/norma_doc/50/50886/index.htm#i1405384

²¹⁶ Булатов Н.М. Принципы организации археологических музеев заповедников // Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры. Вып. 3. НИИК. Труды 28. М., 1975. С. 97

jumladan arxeologiya muzey-qo'riqxonasi, noyob hududni yoki alohida yodgorlikni muzeylashtirish bilan ifodalanishi mumkin. "Arxeologiya parki" va "arxeodrom" tushunchalarini ham eslatib o'tish kerak, ular nazariy darajada arxeologik meros obyektlarini muzeylashtirish tizimida hali o'ziga xos o'rinni egallamagan, chunki bu modellar haqida aniq fikr haligacha mavjud emas. professional muhitda shakllangan.

Arxeologiya yodgorligini turizm va ekskursiyaning alohida obyekti sifatida muzeylashtirish shahar sharoitida eng keng tarqalgan yechimdir, chunki ko'pincha tarixiy markazlarning madaniy qatlami katta darajada shikastlangan va tarixiy landshaft zamonaviy binolar tomonidan o'zgartirilgan. Bu holat juda xarakterlidir, chunki yodgorliklarning shahar shakllantiruvchi funksiyasiga qaramay, shahar hayotning zamonaviy talablariga mos ravishda rivojlanishi kerak. Biroq, yagona yodgorlikni muzeylashtirish uchun atrof-muhitni ma'lum bir tarzda tashkil qilish kerak, bunda uning saqlanishi va tashqi kontekstning muvozanati kuzatiladi. Hech kimga sir emaski, shahar tarkibida joylashgan yagona muzey yodgorligi umumiy iqlim sharoitlaridan tashqari kimyoviy va fizik ifloslanishlarga ham duchor bo'ladi.

Shuning uchun ba'zi himoya tuzilmalarini yaratish va bufer zonasini ajratish kerak. Shu bilan birga, ushbu tuzilmalar tufayli obyektlar o'zining tarixiy kontekstidan chiqib ketmasligi ma'qul, buni kuzatish juda qiyin. Shu bilan birga, yuridik nuqtai nazardan, yagona arxeologiya yodgorliklarini muzeylashtirish mahalliy muzeylashtirish nazariyasi va amaliyotining eng kam rivojlangan jihatlaridan biridir²¹⁷.

²¹⁷ Ефремова Е.В. Музеефикация объектов археологического наследия в свете современного Российского

Merosni muhofaza qilishni rejalashtirish an'anaviy boshqaruvni rejalashtirishdan farq qiladi, chunki u meros qiymatini saqlash uchun maxsus ishlab chiqiladi. Obyektni muhofaza qilishni rejalashtirish foydalanish va ahamiyati o'rtasidagi muvozanatni saqlaydigan hamda tarixiy joy haqida qaror qabul qilishda foydali asosni ta'minlaydigan siyosatni belgilaydi. Merosni muhofaza qilishni rejalashtirish jarayoni har doim tarixiy resursning barqarorligi va uzoq umr ko'rishini rejalashtirishning asosini tashkil qilishi kerak.

Merosni muvaffaqiyatli muhofaza qilish rejasi bu joyning meros qadriyatlarini, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik qadriyatlarni konseptual hal qilishni talab qiladi. Agar yaxshi yozilgan bo'lsa, u ko'pincha qiymatni aniqlash va boshqarishdagi noaniqlikdan kelib chiqadigan salbiy ta'sirlarni yumshatishi kerak. Va albatta, u tarixiy joydan barqaror foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, o'zgartirish va boshqarish uchun siyosat asoslarini ta'minlashi kerak.

Merosni muhofaza qilish rejasi ta'mirlash jadvali yoki moslashtirilgan qayta foydalanish uchun texnik-iqtisodiy asoslash emas. Bu joy eski degan hujjat ham emas, biz obyekt haqida hamma narsani bilganimizda, uni qayta tiklash kerak. Bu merosni muhofaza qilish va boshqaruv qarorlari yo'nalishini bildiruvchi siyosat bayonotidir. Ideal holda, bunday qarorlar qabul qilinishidan oldin u mavjud bo'lishi kerak. Amalda, tarixiy

joy uchun qaror qabul qilish zarurati merosni muhofaza qilish rejasini ishlab chiqishga turtki bo'lad²¹⁸.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shun aytish mumkinki, madaniy merosni muhofaza qilish, konservatsiyalash va muzeylashtirish ishlaridan asosiy maqsad:

1. Arxeologiya merosi obyektlarining ahamiyatini saqlab qolish.
2. Foydalanishni o'zgartirish yoki mavjud ta'sirlarni yumshatish.
3. Tarixiy joydan samarali va barqaror foydalanishni yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Shunday qilib, arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish va muzeylashtirishda ularning ahamiyatini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va saqlashdagi mezonlar asosida amalga oshirilishi ularning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

III.4. Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalarini boshqarish

Meros - bu keng qamrovli effektlarga ega bo'lgan zamonaviy faoliyat. Bu bo'lishi mumkin uzoqni ko'radigan shahar va mintaqaviy rejalashtirish elementi. Bu platforma bo'lishi mumkin siyosiy tan olish, madaniyatlararo muloqot vositasi, axloqiy vosita aks ettirish va mahalliy iqtisodiy rivojlanish uchun potensial asos.

²¹⁸Conservation Planning Methodology Developing policies for the conservation of historic places. www.for.gov.bc.ca/heritage.

U bir vaqtning o'zida mahalliy va o'ziga xos, global va umumiydir²¹⁹.

Arxeologik meros o'tmishdagi insoniyatning moddiy yozuvi ekanligini hisobga olsak u o'tmishni yaxshiroq bilish va madaniy xilma-xillikni ta'kidlash uchun ajoyib vositadir. hozirgi siyosiy kontekstdan qat'i nazar, tarix davomida har qanday hududda paydo bo'lgan. Uning himoyasi va to'g'ri shuning uchun boshqaruv juda muhim²²⁰.

Konservatsiyaning asosiy maqsadi arxeologik merosni moddiy yo'qotish va shikastlanishdan himoya qilish va uning qadriyatlarini saqlab qolishdir²²¹.

Hozirgi kunda butun dunyoda ko'plab ochiq osmon ostidagi muzeylar mavjud bo'lib, ular ko'pincha tirik tarix muzeylari sifatida ham tanilgan. Ularning aksariyati qishloq uylari va qimmatli binolar, ayniqsa, madaniyat, urf-odatlar va ma'naviy meros bilan bog'liq bo'lgan qimmatli binolar. Ochiq osmon ostidagi muzey tushunchasiga Ichan qal'a, Buxoro tarixiy markazi, Samarqand, Shahrisabz tarixiy markazi, Qo'qon tarixiy markazi, Qadimiy Termiz va Sarmishsoylarning davlat muzey-qo'riqxonalar sifatida tashkil etilishi misol bo'la oladi.

²¹⁹ Webber Nodoro. Conservation and Management of Archaeological Heritage Resources. Published by the International Centre for the Study of the Preservation and Restoration of Cultural Property (ICCROM), Via di San Michele 13, 00153 Rome, Italy. 2018 ICCROM, page. 15.

²²⁰ ICOMOS. 1990. Charter for the protection and management of the archaeological heritage [online]. Charenton-le-Pont. [Cited 5 October 2017]. http://www.icomos.org/charters/arch_e.pdf.

²²¹ Webber Nodoro. Conservation and Management of Archaeological Heritage Resources. Published by the International Centre for the Study of the Preservation and Restoration of Cultural Property (ICCROM), Via di San Michele 13, 00153 Rome, Italy. 2018 ICCROM, page.18.

Bunday misollardan biri Artur Hazelius tomonidan ochilgan ochiq osmon ostidagi muzeydir 1891-yil oktyabrda Skansen orolida (Shvesiya). Bu katta ahamiyatga ega, chunki bu dunyodagi birinchi ochiq osmon ostidagi muzey bo'lib, "Ochiq osmon ostidagi muzey" atamasini haqiqiy ma'noni ifoda etdi²²².

Djurgardendagi Nordic muzeyi (Nordiska Muset) ochiq havoda muzey bo'linmasini tashkil qiladi va u Artur Hazelius tomonidan asos solingan. U 1907-yilda ochilgan.

Bugungi kunda Yevropaning ko'plab mamlakatlarida, shuningdek, Shimoliy Amerika, Yaponiya, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda ochiq osmon ostidagi muzeylar ko'p. Birinchi jahon urushidan keyin Tarixda ochiq osmon ostidagi muzey butun dunyoda keng tarqalgan hodisaga aylandi dunyo.

Evropa ochiq osmon ostidagi muzeylar uyushmasi (AEOM) ICOM va butun dunyo bo'ylab odamlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladigan ochiq osmon ostidagi muzeylarning direktorlari va yuqori martabali xodimlaridan iborat. Uning maqsadi – almashinuv ochiq osmon ostidagi muzeylar va ularning faoliyatini targ'ib qilish bilan bog'liq ilmiy, texnik, amaliy va tashkiliy tajriba. Shu maqsadda assosiasiya ikki yilda bir marta konferensiyalarni tashkil qiladi.

1970-yilda ALHFAM (Amerikada tirik tarix, fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi muzeylari uyushmasi) tashkil etilgan.

Ochiq osmon ostidagi muzeylar ta'rifi 1957-yilda ICOM tomonidan e'lon qilingan bayonotda aniqlangan. Butunjahon muzeylar assambleyasi 1957-yil iyul oyida Daniyada tashkil etilgan.

²²² Pedram B., Emami M., Khakban M. Role of the open-air museum in the conservation of the rural architectural heritage. Conservation science in cultural heritage. Page.106.

Muzeyshunoslikka oid xalqaro harakat tamoyillari 1984-yilda “Kvebek deklaratsiyasi” bilan tuzilgan²²³.

Rossiyada birinchi arxeologik muzeylar 19-asr boshlarida yosh arxeologiya faniga boʻlgan ishtiyoq ostida tashkil etilgan. Ular Qrimda paydo boʻlgan, u erda Rossiyaning boshqa mintaqalariga qaraganda ertaroq qadimiy shaharlarni qazish va tarixiy yodgorliklarni himoya qilish boʻyicha tadbirlar boshlangan. 1800-yillarning boshlarida Nikolaevda, 1811-yilda Feodosiyada, 1825-yilda Odessada, 1826-yilda Kerchda muzey tashkil etilgan.

1960–70-yillarda arxeologik yodgorliklarga qiziqishning yangi toʻlqini, ularni saqlash va tiklashning ilgʻor usullarini yaratish bir qator arxeologik muzeylarning, shu jumladan, yangi turdagi muzeylar: qoʻriqxonalar muzeylari va ochiq osmon ostidagi muzeylar yaratilishiga yordam berdi. Noyob arxeologik muzey-qoʻriqxonalar yaratilgan: Voronej viloyatidagi “Kostenki”, Tataristondagi Bolgar, Krasnodar oʻlkasidagi Anap, Qrimdagi Xerson, Rostov viloyatidagi “Tanais”, Tyumen viloyatidagi Andrev koʻlidagi “Oq dengiz”, Kareliyada petrogliflar²²⁴.

Hozirgi kunda Rossiyadagi qoʻriqxona muzeylarining 18,5 foizi arxeologik hisoblanadi²²⁵.

Umumjahon madaniy merosini boshqarish boʻyicha maʼlumot yoʻriqnomasida boshqaruvda keng qoʻllaniladigan elementlarning

²²³ Pedram B., Emami M., Khakban M. Role of the open-air museum in the conservation of the rural architectural heritage. Conservation science in cultural heritage. Page.112.

²²⁴ РОССИЙСКАЯ МУЗЕЙНАЯ ЭНЦИКЛОПЕДИЯ. Музеи под открытым небом (museum.ru) [hppt://www.museum.ru/rme/sci_openairasp](http://www.museum.ru/rme/sci_openairasp).

²²⁵ Ефремова Е.В. Проблемы музеефикации объектов археологического наследия в России в отечественных исследованиях 1961–2012 гг. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Тюмень – 2016, стр.3.

to'qqiztasi sanab o'tilgan. Bunga quyidagilar kiradi: huquqiy asos, institusional tuzilma, resurslar, Rejalashtirish, amalga oshirish, Monitoring, Oraliq natijalar (maxsus jarayon), yakuniy natijalar (maqsadlarga erishish) va boshqarish tizimlarining takomillashtirilishidan (7-rasm) iborat bo'ladi²²⁶.

1. Merosni boshqarish tizimining uchta elementini aniqlash: Har qanday yirik merosni boshqarish tizimida bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta asosiy muhim element mavjud. Ushbu bayonot milliy merosni boshqarish tizimlari uchun ham, obyektlar guruhi yoki hatto bitta obyekt uchun maxsus ishlab chiqilgan tizimlar uchun ham to'g'ri keladi.

2. Huquqiy asos. Jismoniy shaxslar va tashkilotlarga harakat qilish huquqini beruvchi direktivalar. Huquqiy baza meros mulki nima ekanligini va bunday mulkni saqlash va boshqarish mezonlarini belgilaydi; qoida tariqasida, bu qonun hujjatlaridan foydalanish orqali sodir bo'ladi.

Har bir mamlakatda madaniy meros obyektlarini aniqlash, muhofaza qilish va saqlash, shuningdek, ularga kirishni ta'minlash bo'yicha qandaydir tartibga solish shakllari mavjud. Tartiblarning bu shakllari rasmiy huquqiy asoslardan tortib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yozilmagan an'analargacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu xalqaro konvensiyalar va xartiyalar, milliy qonunchilik, mintaqaviy normativ hujjatlar, mahalliy qonunosti hujjatlari va hududiy rejalashtirish normalari. Shaklidan qat'i nazar, bunday tarkiblar tizimning mavjudligini tartibga soluvchi huquqiy asosni tashkil qiladi. Obyekt boshqaruvi

²²⁶ Управление объектами всемирного культурного наследия. Всемирное наследие информационное руководство. ЮНЕСКО / ИККРОМ / ИКОМОС / МСОП, 2013 г. Стр. 114.

va a'zolariga muayyan harakatlarni amalga oshirish huquqini beradi.

Ko'pgina tadqiqotlar, masalan turli xalqaro ko'rsatmalar orqali merosni boshqarishni rejalashtirish modellarini aniqlashga harakat qiladi (1972-yildagi Umumjahon merosi konvensiyasi²²⁷, 1999-yildagi Burra Xartiyasi²²⁸, 1990-yildagi ICOMOS Xartiyasi²²⁹).

1. Institutional tuzilma. Kerakli harakatlarni amalga oshirishga imkon beruvchi faoliyat tuzilmasi va ish usullarini o'rnatadigan tashkiliy model.

Madaniy merosni boshqarish bo'yicha tashkiliy va qarorlar qabul qilish ehtiyojlari ko'pincha institutional tuzilmalarni yaratishga olib keladi. Bunday tuzilmalar tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishni tashkil etish, shuningdek, ish uslublarini doimiy ravishda ko'rib chiqish va takomillashtirish imkonini beradi.

2. Resurslar. Funktsional imkoniyatlarni rivojlantiruvchi va jarayonlarning bajarilishini osonlashtiradigan insoniy, moliyaviy va intellektual hissa²³⁰.

Resurslar funktsional potensialning asosini tashkil qiladi va uchta asosiy shaklda taqdim etiladi: insoniy, moliyaviy va intellektual. Resurslar institutional tuzilmaga huquqiy asosda

²²⁷ Конвенция об охране всемирного культурного и природного наследия. Принята 16 ноября 1972 года Генеральной конференцией Организации Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры.

²²⁸ The Burra Charter. (The Australia ICOMOS Charter for Places of Cultural Significance, 2013).

²²⁹ Хартия по охране и управлению археологическим наследием. Лозанне в 1990.

²³⁰ Управление объектами всемирного культурного наследия. Всемирное наследие информационное руководство. ЮНЕСКО / ИККРОМ / ИКОМОС / МСОП, 2013 г. Стр. 137-138.

belgilangan vakolatlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ular institusional tuzilma yoki qonunchilik bazasidan ko'ra ko'proq o'zgarishlarga duchor bo'ladi.

Arxeologiya resurslarini boshqarish jarayonining quyidagi bosqichlariga e'tibor qaratish kerak:

1. Arxeologiya resurslarini inventarizasiya qilish.
2. Arxeologiya resurslarini baholash.
3. Arxeologiya resurslariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.
4. Arxeologiya resurslarini monitoring qilish.

Ushbu bosqichlarni to'g'ri amalga oshirish arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalaridagi arxeologiya resurslarini saqlanishi hamda muhofaza qilinishida muhim rol o'ynaydi.

Arxeologik resurslar inventarlari arxeologik resurslarning joylashuvi va tabiati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ular menejerlarga rivojlanish, qayta kapitallashtirish yoki boshqa loyihalar bo'yicha qaror qabul qilishda yordam beradigan vositalardir. Inventarizasiya hududdagi boshqa resurslarni topish ehtimolini bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, obyekt boshqaruvchilari arxeologik manbalar potensial bo'lgan joylarda ham resurslarni topish kam deb hisoblanishi mumkinligini yodda tutishlari kerak. Shuningdek, menejerlar ushbu sohalarda arxeologik inventarizasiya to'liq bo'lmagan, mavjud bo'lmagan obyekt yoki park resurslarini topish uchun yuqori salohiyat mavjudligini hisobga olishlari kerak. Zaxiralarda cheklovlar mavjudligi uchun arxeologik manbaning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan loyiha yoki faoliyatning ta'sirini baholashda har doim arxeologlar bilan maslahatlashish kerak²³¹.

²³¹ Parks Canada, guidelines for the management of archaeological resources. her majesty the queen in right of Canada, 2005.

Arxeologiya resurslarini baholashda ularning tarixiy ahamiyati, davri, qiymatliligi, aslligi va butunligi hisobga olinishi kerak bo'ladi.

Madaniy meros obyektlari respublika va mahalliy ahamiyatga ega bo'lganidek, arxeologiya resurslarini ham umummilliy yoki mahalliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Arxeologiya ashyolariga nisbatan noyob arxeologiya ashyosi sifatida tasniflanishi maqsadga muvofiqdir.

Ayrim g'arb davlatlarida esa arxeologiya resurslari darajalarga bo'lib tasniflanadi:

I darajali arxeologik manba milliy tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, arxeologik manbaga berilgan eng yuqori daraja hisoblanadi.

Milliy tarixiy ahamiyatga ega bo'lmagan arxeologik manbalar tarixiy ahamiyatga ega bo'lishi va shuning uchun II darajali qiymat berilishi mumkin²³².

Arxeologik resurslarni boshqarish amaliyotida mas'uliyatli Madaniy merosni boshqarish siyosati qarorlarini qabul qilish quyida ko'rsatilgan to'rtta elementga bog'liq:

- Resurslarni inventarizasiya qilish;
- Madaniy resurslarni aniqlash uchun resurslarni baholash va ularning tarixiy qiymatini aniqlash;
- resurslarni boshqarishda madaniyatga ta'sir qiluvchi harakatlarda tarixiy qadriyatni hisobga olish;
- Amaldagi faoliyatni monitoring qilish va ko'rib chiqish²³³.

²³² Parks Canada, guidelines for the management of archaeological resources. her majesty the queen in right of Canada, 2005.

²³³ Parks Canada Guidelines for the Management of Archaeological Resources. Her Majesty the Queen in Right of Canada, 2005, page. 14.

Merosni boshqarish tizimining uchta jarayonining ta'rifi: yuqorida ko'rsatilgan uchta element boshqaruv tizimining ishlashi va natijalarni berishi uchun birlashadi. Quyidagi jarayonlarni merosni boshqarishning barcha tizimlari uchun umumiy deb aytish mumkin:

1. Rejalashtirish. Qarorlarni kim qabul qilishini tushunish, qanday maqsadlarga erishish kerakligini, qanday harakatlar va qachon amalga oshirilishini aniqlash va ular haqida boshqa tomonlarni xabardor qilish va har bir bosqichda ishning borishini tahlil qilish uchun bunday takliflarni hujjatlashtirish.

Boshqaruv tizimiga qarab va hatto bir tizim doirasida rejalarni tayyorlash va qayta ko'rib chiqishning turli mexanizmlari qo'llaniladi. Ba'zi tashkilotlar o'z ishining boshidan buyon xuddi shunday tartibdan foydalangan, ammo ko'plab nisbatan yangi yondashuvlar qabul qilinmoqda.

Rejalashtirish, amalga oshirish va monitoring qilish boshqaruv tizimiga ma'lum natijalarga erishish imkonini beruvchi uzluksiz siklni yaratib, tez-tez bir-biriga mos keladigan muhim jarayonlardir. Amalga oshirishning muvaffaqiyati va monitoringning samaradorligi ko'p jihatdan rejalashtirish bosqichida amalga oshirilgan investisiyalarga bog'liq. Shu bilan birga, aynan monitoring jarayonida hosil bo'ladigan fikr-mulohazalar to'g'ri rejalashtirish uchun asos bo'lib, boshqaruv tizimi va yangi usullarni takomillashtirishga olib kelishi mumkin.

Manfaatdor shaxslar va guruhlar bilan puxta va keng qamrovli maslahatlar meros resurslarini boshqarish rejasini ishlab chiqishning muhim qismidir. Jamoatchilik vakillari va tarixiy resurslarni saqlashdan manfaatdor bo'lgan boshqa guruhlar

jarayonning boshida bog'lanishi va rejani ishlab chiqish va amalga oshirish davomida ishtirok etishi kerak²³⁴.

2. Amalga oshirish. Rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish, ularning har bir bosqichda talab qilinadigan oraliq natijalarni ta'minlashini tekshirish, shuningdek, boshida belgilangan kengroq maqsadlarga erishish. Agar nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa, ular bajarilayotgan harakatlarga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, bunday harakatlar tegishli va o'z vaqtida bajarilganligini baholash.

Amalga oshirish yondashuvlari sezilarli darajada farq qiladi, chunki ularga asosan qonunchilik bazasi, shuningdek, resurslarni boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha mahalliy amaliyot ta'sir ko'rsatadi. Rejalashtirish jarayonida bo'lgani kabi, merosni boshqarishning ko'plab tizimlari amalga oshirish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Bu shuni anglatadiki, quyida keltirilgan "umumiy asos" qisman Konvensiyaga a'zo bo'lgan ba'zi davlatlarning obyektlari uchun kamroq qo'llaniladi, lekin kelajakda tegishli bo'lishi mumkin.

Belgilangan uchta jarayondan amalga oshirish qolgan ikkitasiga juda bog'liq: amalga oshirish samarali bo'lishi uchun to'g'ri rejalashtirish zarur, bu esa o'z navbatida samarali monitoringga bog'liq. Biroq, rejalashtirish va monitoring amalga oshirishni osonlashtirish va optimallashtirish uchun xizmat qiladi. To'g'ri rejalashtirish tartib-qoidalari samaradorlikni tekshirishning yetarli emasligi sababli samarasiz bo'lishi mumkin.

Amalga oshirish bosqichi fundamental ahamiyatga ega, chunki madaniy meros obyekti, uni boshqarish tizimi va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlar rejalashtirilgan tadbirlarni

²³⁴ Scott Anfinson. Shpo Manual for Archaeological Projects in Minnesota. July 2005, page. 47.

amalga oshirish jarayonida ta'sir qiladi yoki o'zgartiriladi. "O'zgartirish" istalmagan o'zgarishlarning salbiy ta'sirini yaxshilash yoki boshqarishni anglatishi mumkin, ammo jarayon sikli samarali ishlamasa, u zararli bo'lishi mumkin.

3. Monitoring. Boshqaruv tizimining samaradorligini nazorat qilish va kerakli natijalarni olish, shuningdek, kamchiliklar yoki yangi imkoniyatlar yuzaga kelganda tuzatish choralarini aniqlash uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish²³⁵.

Monitoring muayyan maqsadlar uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni, shuningdek ularni quyidagi maqsadlarda baholashni o'z ichiga oladi:

- Boshqaruv tizimining samaradorligini tekshirish (bu jarayonlarni va boshqaruv tizimining boshqa jihatlarini kuzatishni talab qiladi);
- Boshqaruv tizimi tegishli natijalarni (oralik va yakuniy) olishiga ishonch hosil qilish, bu boshqa narsalar qatori obyektning o'zini kuzatishni talab qiladi;
- Agar biron-bir kamchilik yoki imkoniyatlar aniqlansa, qanday tuzatuvchi harakatlar yoki yangi tashabbuslar amalga oshirilishi kerakligini aniqlanadi.

Monitoring madaniy meros menejerlari o'zlarining obyektning muhofaza qilish siyosati, ehtiyojlari va qarorlarini asoslashlari mumkin bo'lgan dalillarni taqdim etadi. Monitoring nafaqat dastlabki ma'lumotlar to'plami, balki, masalan, obyektning holati yoki boshqaruv tizimining samaradorligi bo'yicha ma'lum

²³⁵ Управление объектами всемирного культурного наследия. Всемирное наследие информационное руководство. ЮНЕСКО / ИККРОМ / ИКОМОС / МСОП, 2013 г. Стр. 178-179.

xulosalar olish uchun ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan jarayon bo'lishi kerak.

Turli merosni boshqarish tizimlarida bu uchta jarayon ko'p jihatdan farqlanadi. Ular bir-birining ustiga chiqadigan bir nechta ish davrlarini tashkil qiladi va ko'pincha bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, shuning uchun ularni bir-biridan ajratish qiyin bo'lishi mumkin. Taqdim etilgan jarayonlar ushbu bo'limda tasvirlangan.

Jamiyat va uning xizmatidagi notijorat, doimiy muassasalar ishlab chiqish, ommaga ochiqalaydigan, sotib oladigan, saqlaydigan, tadqiq qiladigan, insoniyatning moddiy va nomoddiy merosi va uning atrof-muhitini ta'lim, o'rganish va zavqlanish maqsadlarida yetkazadi va namoyish etadi²³⁶.

XIX asr va XX asr boshlarida arxeologiya merosi obektlarini muzeylashtirish boshlangan edi, 20-asrning o'rtalariga kelib, arxeologlar va meros mutaxassislari e'tiborni binolarni in situ holatida saqlash yoki rekonstruksiya qilishga qaratdi²³⁷.

XIX asr va XX asr boshlarida arxeologiya merosi obektlarini muzeylashtirish boshlangan edi, 20-asrning o'rtalariga kelib, arxeologlar va meros mutaxassislari e'tiborni binolarni in situ holatida saqlash yoki rekonstruksiya qilishga qaratdi .

Madaniy merosni boshqarish rejalarini meros joyini saqlash va boshqarish bo'yicha asosiy yo'naltiruvchi hujjatdir. Bu egalari, menejerlari va tasdiqlash organlariga meros joylari haqida to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beruvchi vositadir.

²³⁶ ICOM (2007): 'Museum Definition,' in: http://icom.museum/the-vision/museum_definition/ (July 15, 2015)

²³⁷ Kristin M. Barry. Constructing for History Archaeological Parks Through Landscape and Architectural Design. See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/319913910>. January 2015, page. 169.

Madaniy merosni boshqarish rejalarini joyning meros qadriyatlarini yoki ahamiyatini, o'zgarishlar sharoitida ushbu ahamiyatni himoya qilish uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan merosni muhofaza qilish siyosatini va siyosatni amalga oshirish strategiyasini belgilaydi²³⁸.

Kanada parklari arxeologiya resurslarini boshqarish yo'riqnomasida CMPni tayyorlashning 5 bosqichi tasvirlangan:

1. Muhimligini tushunish
2. Ahamiyatini baholash
3. Muammolarni aniqlash
4. Obyektni muhofaza qilish siyosatini ishlab chiqish
5. Harakat rejasini tayyorlash ²³⁹.

Inson faoliyatining barcha ko'rinishlariga taalluqli hamda saqlanish holatidan qat'i nazar arxeologik, antropologik, etnografik qimmatga yoki o'zga tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy qimmatga ega bo'lgan joy, inshoot (asar), imorat, majmua (ansambl'), ularning bo'laklari, ular bilan bog'liq hududlar arxeologiya obyekti bo'lib, tarixiyligi, aslligi va butunligi uning muhimligini anglatuvchi belgilar hisoblanadi.

Ahamiyatini baholashda Mahalliy hamjamiyatni faol jalb qilgan holda yodgorliklarning ahamiyatini baholash (Qiymatga asoslangan boshqaruv). Tarixiy joyning meros qadriyatlari va ahamiyatini tushunish rahbarlik qilishning ajralmas qismidir. Madaniy merosni muhofaza qilish va boshqarish rejasida

²³⁸ Conservation Management Plans: Managing Heritage Places A Guide Heritage Council of Victoria. Published by the Heritage Council of Victoria, Melbourne, June 2010 at www.heritage.vic.gov.au © State of Victoria, Heritage Council of Victoria 2010, page. 4.

²³⁹ Conservation Management Plans: Managing Heritage Places A Guide Heritage Council of Victoria. Published by the Heritage Council of Victoria, Melbourne, June 2010 at www.heritage.vic.gov.au © State of Victoria, Heritage Council of Victoria 2010, page. 8.

siyosatni ishlab chiqish. Bu eng yaxshi mahalliy hamjamiyat va boshqa manfaatdor tomonlarning bevosita ishtirokida kontekstni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Kontekstni o'rganish jarayonlari ideal tarzda jamoa a'zolari uchun imkoniyatlarni o'z ichiga oladi va manfaatdor tomonlar yakuniy kontekstni o'rganish hisoboti mazmunini taqdim etishlari. Hech bo'lmaganda, bu jamoatchilik maslahati bir kunlik seminar sifatida o'tkazilishi mumkin. Ushbu kunlik seminarining asosiy maqsadi ishtirokchilarni jamiyatning meros qadriyatlarini aniqlashga yordam berishdir²⁴⁰.

Muammolarni aniqlash – obyektlar turli xil xavf-xatarlardan kelib chiqadigan turli xil xavf-xatarlarga duch keladi, tabiiy yoki insoniy (turizm, vandalizm, shaharsozlik va boshqalar). Bunga ham duchor bo'ladi ob-havo yoki ifloslanish natijasida sekinroq, lekin doimiy va kumulatoriy degradasiyalar. To'g'ri tashxis, potensial xavflarni tushunish, ularning yodgorlikka ta'siri to'g'ri va samarali merosni muhofaza qilish strategiyasi hamda javob choralarini ishlab chiqish uchun asosiy hisoblanadi. Buning uchun yodgorlikning integratsiyalashgan xavfni baholash hisobotini tayyorlash va yuqori xavf tahlilini o'tkazish, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy, miqdoriy va sifat usullaridan foydalangan holda munosabat zaifligini²⁴¹ tuzatish talab etiladi.

²⁴⁰ Towards a shared policy and strategy for the conservation and management of minor cultural heritage sites progetto archeomed - cultural and archaeological heritage in the mediterranean basin Cross-Border Cooperation within the European Neighbourhood and Partnership Instrument (ENPI) Mediterranean Sea Basin Joint Operational Programme EC Decision C (2008) 4242. Page. 9.

²⁴¹ Towards a shared policy and strategy for the conservation and management of minor cultural heritage sites progetto archeomed - cultural and archaeological heritage in the mediterranean basin Cross-Border Cooperation within the European Neighbourhood and Partnership Instrument (ENPI) Mediterranean Sea Basin Joint Operational Programme EC Decision C (2008) 4242. Page. 9.

Obektni muhofaza qilish siyosatini ishlab chiqish – qoidalar odatda quyidagilar uchun talab qilinadi:

- Muntazam texnik xizmat ko'rsatish – bu qanday va qachon amalga oshirilishini o'z ichiga oladi.

- Merosni muhofaza qilish va oqibatlarini yumshatish chora-tadbirlariga ustuvorlik berish. Bunga profilaktika, ta'mirlash, tiklash va rekonstruksiya qilish kabi tuzatuvchi konservatsiya xavf va holatni baholashda aniqlangan muammolar ham kiradi.

- Foydalanish – obyektдан foydalanish qanday boshqarilishini va har qanday taklif qilingan yangi foydalanishni o'z ichiga oladi.

- O'zgarishlarni boshqarish – yangi foydalanish, mavjud vaziyatdagi o'zgarishlar qanday boshqarilishini o'z ichiga oladi

- Interpretasiya – bu joyning ahamiyati, potensial joyida qanday yetkazilishidir.

- Manfaaddor tomonlarni jalb qilish – qanday manfaaddor tomonlar (jumladan, davlat idoralari, NNT, xususiy sektor va bu joy bilan muhim aloqaga ega bo'lgan odamlar) jalb qilinadi.

- Monitoring – merosni muhofaza qilish siyosati doirasida amalga oshirilgan harakatlar qanday va qanday hujjatlashtiriladi natijalari monitoring qilinadi

- Menejment va qaror qabul qilish – boshqaruv tuzilmalari, resurslar va qarorlar-obyektni muhofaza qilish siyosatining samarali bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish jarayonlari o'rnatiladi yoki o'zgartiriladi amalga oshirildi²⁴².

Harakat rejasini tayyorlash – Harakat rejasi madaniy merosni muhofaza qilishni amalga oshirish uchun qanday va qachon

²⁴² Towards a shared policy and strategy for the conservation and management of minor cultural heritage sites progetto archeomed - cultural and archaeological heritage in the mediterranean basin Cross-Border Cooperation within the European Neighbourhood and Partnership Instrument (ENPI) Mediterranean Sea Basin Joint Operational Programme EC Decision C (2008) 4242. Page.10.

choralar ko'rishni belgilaydi siyosatlar. Harakatlar rejasi mavjud resurslarni (masalan, mablag'lar, texnik ko'nikmalar yoki inson resurslari), ustuvorliklarni belgilang va amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligini belgilang amalga oshirilgan²⁴³.

Har bir arxeologik yodgorlik va u muzey-qo'riqxonaga tavsiya etilgan vaqtgacha keng ko'lamda o'rganilishi kerak, bu yodgorlikda natija bilan bog'liq bo'lgan asosiy ilmiy muammolarni hal qilish lozim, xususan:

1. Yodgorliklarning sanasi ko'rsatilishi shart.
2. Shu va shunga o'xshash qazishmalar asosida yodgorlikning tarixiy tahlili o'tkaziladi.
3. Yodgorlikning vizual tavsifi ko'rsatilgan o'lchamlari, barcha xarakterli xususiyatlari beriladi.
4. Yodgorlikning hozirgi holatini ko'rsatish, bu borada alohida e'tibor berish kerak uning saqlanishiga, shuningdek, qurilish texnikasiga, yodgorlikning asosiy arxeologik obyektlari yasalgan materialiga e'tibor berdi.
5. Yodgorlikning aniq joylashuvi va unga kirish yo'llari, suv borligi, temir yo'l, keyin esa avtomobil va boshqa yo'llar, yodgorlikning ulardan uzoqligi, shuningdek, uning hududidagi aholi punktlarining joylashuvi aniqlanadi.

Ushbu yodgorlikning madaniy-tarixiy zanjirning tushib qolgan halqasi sifatida, uning ma'lum bir arxeologik madaniyatni

²⁹⁸ Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрда ПҚ-4068-сонли қарори. Lex.uz.

Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 119-son qarori 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "2021–2022-yillarda moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobini yuritish, muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, ommalashtirish va ulardan oqilona foydalanish hamda O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi" 37–49-bandlarida:

Ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, blogerlar va boshqa faol fuqarolar ishtirokida:

har chorakda matbuot anjumani o'tkazish;

har olti oyda info-tur tashkil etish;

har oyda Madaniy meros departamenti faoliyati haqida batafsil hisobot e'lon qilish.

Madaniy merosni himoya qilish va targ'ib qilishdagi faolligi uchun ommaviy axborot vositalari va blogerlar o'rtasida:

kamida 3 ta nominasiya bo'yicha respublika ochiq tanlovini tashkil etish;

tanlovni yilda kamida 2 marta o'tkazish;

har bir nominasiya bo'yicha 1 ta birinchi, 2 ta ikkinchi va 3 ta uchinchi o'rin olganlarni munosib taqdirlash;

tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash, tanlovda qatnashishni keng targ'ib qilish.

Madaniy meros sohasida faoliyat olib boradigan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga grant va ijtimoiy buyurtmalar berish.

Yoshlarning ongida madaniy merosimizga bo'lgan hurmat tuyg'usini kuchaytirish maqsadida ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlarini olib borish.

18 aprel – Yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash xalqaro kuni arafasida:

turli tadbirlar va respublika ko'rik-tanlovlarini o'tkazish hamda g'oliblarni munosib taqdirlash;

har bir tuman (shahar)da kamida 50 nafar madaniy merosni himoya qilish bo'yicha faol fuqarolarni taqdirlash.

Moddiy madaniy meros obyektlari to'g'risida ommabop fil'mlar yaratish.

Moddiy madaniy meros obyektlarining 3D modeli rekonstruksiyalari va raqamli axborot bazasini yaratish.

Moddiy madaniy meros obyektlarining katalogini yaratish.

Ommaviy axborot vositalarida madaniy meros haqida doimiy ravishda turkum materiallar berib borish.

Madaniy meros departamenti bilan telekanallar hamkorligini kengaytirish, har yarim yillik uchun birgalikda Media reja qabul qilish va uni amalga oshirib borish.

Yo'qolib ketish xavfi ostidagi moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati va ularni saqlab qolish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqidagi axborotlarni har yili dekabr oyida Madaniyat vazirligi rasmiy veb-saytida e'lon qilib borish.

Har yili ta'mirlash-tiklash, konservatsiya va restavratsiya qilinadigan moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyektlarining ro'yxatini har yili dekabr oyida Madaniyat vazirligi rasmiy veb-saytida e'lon qilib borish.

Arxeologiya obyektlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish rejalashtirilgan obyektlarni va ushbu obyektlarda ilmiy tadqiqot

olib borish uchun ruxsatnoma olgan arxeologlarning ro'yxatini e'lon qilib borish²⁹⁹ kabi chora tadbirlar belgilangan.

2019-yil 11-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston tarixi» telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4390-sonli qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorning maqsadi Vatanimizning qadimiy va boy tarixini chuqur o'rganish, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik va o'z xalqi bilan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish asosida milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlash va vatandoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirish³⁰⁰ hisoblanadi.

Ushbu qarorning 2-bandida ming yillar qa'riga ildiz otgan O'zbekistonning ko'hna va boy tarixi, xalqimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan g'oyat katta ilmiy, madaniy va ma'naviy hissasi haqida mamlakatimiz aholisini, shuningdek, chet el jamoatchiligini keng ko'lamda xabardor qilish;

har bir voqeaning mazmun-mohiyatini izchil va tizimli ochib berish orqali buyuk tariximizning barcha davrlarini chuqur ilmiy tadqiqotlarning xolisona natijalari asosida ko'rsatib beruvchi axborot-tahliliy va mavzuli teleko'rsatuvlar, tok-shou, «davra

²⁹⁹ Моддий маданий мерос объектлари ва ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган ҳудудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги 119-сон қарори. Lex.uz.

³⁰⁰ «O'zbekiston tarixi» телеканалини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлдаги ПҚ-4390-сонли қарори. Lex.uz.

suhbatlari»ni yuqori professional va g'oyaviy-badiiy saviyada tayyorlashni tashkillashtirish³⁰¹ belgilangan.

Qaror bandlarining ijro talablaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan "O'zbekiston tarixi" telekanali bilan birgalikda har haftada bitta ko'rsatuv tayyorlash rejalashtirilgan.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi tomonidan madaniy meros obyektlari, ularni muhofaza qilish, saqlash va foydalanishga doir 1000 dan ortiq maqolalar e'lon qilingan bo'lib, shundan 390 dan ziyodi arxeologiya merosi obyektlariga tegishli hisoblanadi³⁰².

O'zbekiston boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish, investisiyalarni faol jalb qilish turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, turizm bosqichma-bosqich mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'iga aylanayotganligini hisobga olgan holda mintaqalarning salohiyatini turizm sohasiga to'liq jalb etishni, xizmatlar sohasini rivojlantirishni, Buyuk ipak yo'lida turizm yo'nalishining jozibador markazi sifatida respublikaning ijobiy qiyofasini shakllantirishni ta'minlaydigan, yuqori malakali va jahon turizm industriyasi bozorida raqobatbardosh kadrlarni

³⁰¹ «O'zbekiston tarixi» telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari tўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлдаги ПҚ-4390-сонли қарори. Lex.uz.

³⁰² Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. Uza.uz.

tayyorlash maqsadida Samarqand shahrida «Ipak yo'li» turizm xalqaro universiteti tashkil etildi³⁰³.

Keyinchalik, O'zbekiston Respublikasida turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 1-bandining a) kichik bandiga muvofiq «Ipak yo'li» turizm xalqaro universitetini «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti etib qayta nomlangan³⁰⁴.

2019-yil 21-avgust kuni Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyida "O'zbekiston – buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din, madaniyat" mavzusidagi meros haftaligi (22–27-avgust) oldidan matbuot anjumani tashkil etilgan.

22-avgust kuni Toshkentda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrash va targ'ib etish bo'yicha Butunjahon jamiyatining III xalqaro kongressi ish boshlagan. Kongressda O'zbekiston madaniy merosining dunyo to'plamlarida

³⁰³ «Ипак йўли» туризм халқаро университети ташкил этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.06.2018 йилдаги ПҚ-3815-сонли қарори. Lex.uz.

³⁰⁴ Туризм, маданий мерос ва музейшунослик соҳаларида малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.10.2021 йилдаги ПҚ-5270-сонли қарори. Lex.uz.

saqlanayotgan merosiga bag'ishlangan yangi 20 jildli kitob-al'bom taqdimoti o'tkazilgan³⁰⁵.

Tadbirda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish ishlari bo'yicha olib borilayotgan islohotlar haqida so'zlovchi videorolik namoyish etildi³⁰⁶.

2021-yil 13–21-sentyabr kunlari Toshkent, Xiva va Nukus shaharlarida Madaniy meros haftaligining bir qator madaniy tadbirlari o'tgan³⁰⁷.

Haftalik doirasida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatining «O'zbekiston madaniy merosi – Yangi Renessans poydevori» V Kongressi bo'lib o'tgan.

O'zbekiston hukumati qo'llab-quvvatlashi bilan o'tkazilgan V kongress O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati va O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiasiyasi tomonidan tashkillashtirilgan, YUNESKO, Turizm va sport vazirligi, Madaniyat vazirligi, «Eriell Group» neft servis kompaniyasi ko'magi bilan o'tkazilgan.

Madaniy meros haftaligi doirasida Xiva shahrida "Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro madaniyat forumi, YUNESKO shafeligida "Arxeologiya va turizm: salohiyatni aniqlash va merosni boshqarish" xalqaro anjumani, O'zbekiston

³⁰⁵ Madaniy meros haftaligi: Nima? Qayerda? Qachon? Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали. <https://gov.uz/uz/news/view/23803>.

³⁰⁶ Madaniy meros haftaligi doirasida xalqaro kongress ish bo'shladi. Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали. <https://gov.uz/uz/news/view/23808>.

³⁰⁷ Ўзбекистонда Madaniy meros haftaligi бўлиб ўтмоқда. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/09/14/heritage-week/>

fuqarolari va xorijlik mehmonlarni mamlakatimiz san'atining noyob durdonalari bilan tanishtirish maqsadida o'ndan ortiq ko'rgazmalar o'tkazilgan.

Haftalik doirasida o'tkazilgan O'zbekiston madaniy merosini saqlash, o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha Butunjahon assosiasiyasining beshinchi xalqaro konferensiyasida bo'lib, unda AQSh, Germaniya, Italiya, Vengriya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Yaponiya, Albaniya, Avstriya, Afg'oniston, Qozog'iston, Gresiya, Isroil, Hindiston, Iordaniya, Eron, Xitoy, Livan, Mo'g'uliston, BAA, Niderlandiya, Ukraina va Polsha kabi 40 ga yaqin mamlakatdan 300 dan ortiq olim, ekspert va mutaxassis ishtirok etgan³⁰⁸.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-aprelda chiqargan 68-son qarori 8-ilovasidagi nizomga ko'ra "Muzeylar haftaligi" tadbiri har yili 2–8 sentyabr kunlari o'tkazilishi belgilangan³⁰⁹.

"Muzeylar haftaligi" tadbiri davomida yetti kun mobaynida keng jamoatchilikni jalb etish uchun ayrim muzeylarga kirish bepul etib belgilangan.

Fuqarolar bir hafta, ya'ni "Muzeylar haftaligi" davomida muzeylarga tashrif buyurib, milliy muzey fondiga kiritilgan ashyolar va kolleksiyalar bilan tanishib, tariximizga oid ma'lumotlar bilan tanishishlari mumkin bo'ladi.

³⁰⁸ Madaniy meros haftaligining muhim voqealari Ўмон матбуоти нигоҳида. <https://yuz.uz/news/madaniy-meros-haftaligining-muhim-voqealari-omon-matbuoti-nigohida>

³⁰⁹ Ўзбекистон Республикасининг «Музейлар тўғрисида»ги қонунини рўёбга чиқариш учун зарур бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 12.04.2010 йилдаги 68-сонли қарори, Lex.uz.

Butun dunyoda har yili 18-aprel – Xalqaro yodgorliklar va diqqatga sazovor joylar kuni “Tarixiy vatanimizni asraymiz” shiori ostida nishonlanadi.

Jahon merosi kuni sifatida ham tanilgan bu kun 1982-yili YUNESKOning yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro kengashi (ICOMOS – International Council on Monuments and Sites) tomonidan ta'sis etilgan.

Mazkur sana 1984-yildan buyon jahon madaniy merosini asrab-avaylash va shu masalaga jamoatchilik e'tiborini qaratish maqsadida nishonlab kelinmoqda³¹⁰.

Yu.R. Rahmatullayev madaniy meros obyektlarini targ'ib qilishdagi muzeylarning rolini shunday ta'riflaydi: Tarixiy-madaniy yodgorliklarni ommalashtirishda muzeylarning roli ham katta bo'ldi. Ular tarixiy yodgorliklarni o'rganish yuzasidan ekspeditsiya tashkil etish hamda maxsus ekspozitsiyalarni namoyish qilish yo'li bilan madaniy-oqartuv markaziga aylandilar va arxitektura yodgorliklariga nisbatan xalqning muhabbatini va qiziqishini qozondilar³¹¹.

Sobiq sovet hukumati davrida ham madaniy yodgorliklarni muhofaza va targ'ib qilish sohasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash ishining ahamiyatini targ'ib etish sohasida viloyatlarda ancha ishlar qilingan. 1967-yilda tashkil etilgan “O'zbekiston SSR tarixiy va moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyati” a'zolari “Bilim” jamiyati bilan birgalikda kinofil'm va ko'chma

³¹⁰ Маҳмирзаев У. 18 апрель – Жаҳон мероси куни. 29.01.2023. <https://uza.uz/posts/365212>. UZA.

³¹¹ Раҳматуллаев Ю.Р. Ўзбекистон меъморчилик обидалари давлат муҳофазасида. Тошкент, Ўзбекистон КП МКнинг нашриёти, 1969, 35-бет.

fotoko'rgazma namoyish qilib, ikki ming besh yuz ma'ruza va dokladlar o'qiganlar³¹².

Respublika, viloyat va tuman gazetalarida ushbu jamiyat a'zolarining moddiy madaniyat yodgorliklarini ommaga keng tushuntiruvchi 500 dan ortiq maqolasi bosilib chiqdi. Respublika va mahalliy radio eshittirish tarmoqlarida 70 ta ma'ruza o'qildi, televidenie orqali 20 marta ko'rsatuvlar tayyorlandi³¹³.

Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyaning 27-moddasi 1-bandida "Mazkur Konvensiyaning tomonlari bo'lmish davlatlar 'archa tegishli vositalarni va xususan, ma'rifiy va axborot dasturlarini qo'llab, Konvensiyaning 1 va 2 moddasida belgilanganidek madaniy va tabiiy merosga o'z xalqlarining bog'liqligi va ehtiromini mustahkamlashga harakat qiladi" deb belgilangan.

2-bandida ular bu merosga tahdid soluvchi xavf to'g'risida, shuningdek, maskur Konvensiyaning bajarilishi yuzasidan qabul qilinayotgan choralar to'g'risida ham jamoatchilikni keng xabardor qilib borish majburiyatini olishi belgilangan³¹⁴.

Arxeologiya resurslarini ommalashtirish va targ'ib qilishda jamoatchilikning o'rni nihoyatda kattadir. Ular bilan mustahkam aloqa bog'lash o'ta muhim hisoblanadi.

Arxeologiya resurslariga nisbatan ayrimlar ba'zida juda salbiy munosabatda bo'lishadi. Bu esa buzg'unchilik, arxeologiya

³¹² Қори-Ниёзий Т.Н. Ўзбекистон ССР моддий маданият ёдгорликларини сақлаш ва ўрганиш. Тошкент, "Фан", 1971, 5-бет.

³¹³ Қори-Ниёзий Т.Н. Ўзбекистон ССР моддий маданият ёдгорликларини сақлаш ва ўрганиш. Тошкент, "Фан", 1971, 5-бет.

³¹⁴ Маданий бойликларни ноқонуний олиб кириш, олибчиқиш ва эгалик ҳуқуқини бошқага ўтказишнинг олдини олиш ва тақиқлашга қаратилган чоралар тўғрисидаги конвенция. ЮНЕСКО, 1970 йил 14 ноябрь. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. Конвенциялар, битимлар, протоколлар, тавсияномалар, декларациялар (тўплам). Тошкент, "Адолат", 2004. 181-бет.

ashyolarining noqonuniy aylanishi, ularning yo'qolishi yoki chet elga chiqib ketishiga sabab bo'ladi.

Raqamli marketing konsepsiyasi madaniy meros sohasida jadal rivojlanmoqda. Facebook, Twitter, Instagram va Snapchat kabi ijtimoiy medianing turli platformalari madaniy meros kabi ko'plab sohalarni ishonchli ma'lumotlar va keng tarqalgan tarqatish bilan modernizatsiya qilishda juda muhim asosiy omillardir. Ushbu ma'lumotlarni turli usullar bilan olish va tahlil qilish mumkin. Ba'zi kerakli ma'lumotlarni olish uchun onlayn so'rovlar o'tkazish shu usullardan biridir³¹⁵.

Ijtimoiy media platformalarining maqsadi hamkorlik, o'zaro aloqalar va kontent almashishni osonlashtirishdir. Madaniy meros Internetning keng tarqalgan imkoniyatlaridan, xususan, ijtimoiy tarmoqlardan aloqa vositasi va o'z aktivlarini bevosita targ'ib qilish uchun marketing vositasi sifatida foydalanishi kerak. Ijtimoiy tarmoqlarda eng yaxshi tarqalishni qo'lga kiritish uchun sotuvchi foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirish uchun marketing kampaniyasida turli media kanallaridan foydalanishda farq qilishi kerak. Adabiyotga ko'ra, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari quyidagi besh sektordan biri yoki bir nechta bilan qoniqishlari mumkin. Ijtimoiy muloqotni izlash uchun ma'lumot qidirish; O'z-o'zini ifoda etish istagi va o'zini o'zi boshqarish Internetga ulanishda istalgan qoniqish omillaridir.

Eng so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, madaniy merosni ijtimoiy tarmoqlar orqali yetkazish, uni o'tmish va hozirgi avlodlarga hech qanday chegara va cheklovlardan qat'iy nazar targ'ib qilish va yetkazish imkonini beruvchi samarali

³¹⁵ Ibrahim S., Ibrahim H. Promoting Cultural Heritage Through Diverse Digital Marketing Channels. *History Research* 2022; 10(1): 54–58, <http://www.sciencepublishinggroup.com/j/history>.

vositalardan biri sifatida amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy media foydalanuvchilari boshqa xalqlarning mazmunini yoqtirish yoki baham ko'rish orqali odatiy aloqalari davomida ushbu uzatishda keng yordam berishlari mumkin. Umuman olganda, ijtimoiy media har qanday mamlakatning madaniy merosini turli kanallar orqali targ'ib qilishning haqiqiy vositasi hisoblanadi³¹⁶.

Raqamli marketing umuman olganda Internet yoki boshqa elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda har qanday mahsulot yoki xizmatni ilgari surish jarayonini anglatadi. Ushbu tadqiqotdagi mahsulot jamoatchilikka yaqinroq bo'lish uchun madaniy merosni targ'ib qiladi. Raqamli marketingning narxi an'anaviy marketing kanallari bilan solishtirganda juda qoniqarli va marketologlar rejalashtirilgan reklama kompaniyalarini hisoblashlari va byudjetni oldindan boshqarishlari mumkin.

Madaniy meros uchun raqamli marketing strategiyasini foydalanuvchilarning turistlar yoki hamjamiyat ehtiyojlariga, tarixiy aktivning qiymatiga, afzal qilingan platformalar va onlayn xatti-harakatlarga muvofiq ishlab chiqish juda muhimdir. To'g'ri platformani tanlash har qanday xabarni yetkazishda muhim kalit ekanligini eslatib o'tish kerak. Ushbu platformalar orasida ijtimoiy media, blog yuritish, qidiruv tizimini optimallashtirish, iloalar yaratish va videolar va fotosuratlar yaratish kiradi³¹⁷.

Facebook madaniy auditoriya bilan mustahkam aloqa o'rnatish uchun kuchli ishlatilishi mumkin bo'lgan kuchli ijtimoiy media platformalaridan biridir. Facebookning haqiqiy boshlanishi

³¹⁶ Hammou, I., Aboudou, S. and Makloul, Y., 2020. Social Media and Intangible Cultural Heritage for Digital Marketing Communication: Case of Marrakech Crafts.

³¹⁷ Erasmus Manual, IO3, 2019 –How to promote cultural heritage tourism, pdf. In Roots Erasmus Project.

sinfdozlarni bir-birini bilishga undash uchun Garvardda boshlangan³¹⁸. Keyinchalik, Facebook eng ko'p ishlatiladigan ijtimoiy media platformasiga aylandi, u butun dunyo bo'ylab kuniga taxminan 1,45 milliard faol foydalanuvchiga ega. Uni ishlatishning eng keng tarqalgan yoshi 25–34, har 20 daqiqada bir millionga yaqin umumiy havolalar. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Facebookda kuniga bir marta soat 13:00 dan 16:00 gacha post qo'yish kifoya qiladi va har kuni post almashish kifoya qiladi³¹⁹.

Twitter - bu mikro kontentni nashr qilish uchun ishlatiladigan ijtimoiy platforma. U faqat 2008-yildan beri boshlangan so'nggi marketing vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Twitter platformasi har oyda 336 ga yaqin foydalanuvchiga ega bo'lib, ular har soniyada 6000 ga yaqin Twit bilan undan faol foydalanadilar. Shuningdek, ushbu platformada Twit yozish har bir postda 140 tadan oshmasligi kerak bo'lgan juda cheklangan belgilarga ega ekanligini ham nazarda tutadi. Meros brendi shaxsiyatini rivojlantiruvchi institutlar Twitterda eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Muvaffaqiyatni saqlab qolish uchun postlaringizda zaif xabarlardan qochish juda muhimdir.

Foydalanuvchining robot emas, balki inson ekanligini ta'kidlaydigan Twitlar tarixiy aktiv haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etish bilan bir qatorda muhim ahamiyatga ega. O'zingizning hashtaglaringizni yaratishga harakat qiling yoki shunchaki trend mavzularini topish uchun mavjudlaridan foydalaning. Tadbirlaringiz, ko'rgazmalaringiz yoki yangi qazishmalaringiz bilan "tahririyat taqvimi"ni ishlab chiqish qaysi

³¹⁸ Levy, J., 2010. Facebook marketing: Designing your next marketing campaign. Pearson Education.

³¹⁹ Ibrahim S., Ibrahim H. Promoting Cultural Heritage Through Diverse Digital Marketing Channels. History Research 2022; 10(1): 54-58, <http://www.sciencepublishinggroup.com/j/history>.

kontentni Twit qilishni oldindan hal qilish uchun muhimdir. Kuniga 3–5 Twit yozish tavsiya etiladi³²⁰.

Boshqa ijtimoiy platformalar orasida Instagram fotosuratlar va videolarni almashish uchun maksimal 60 soniya davomida bo'sh joy yaratadi, bu erda tomoshabinlar vizual kontent bilan qattiq bog'lanadi, chunki u haqiqiy va tajribaviy ma'lumot beradi.

Bepul mobil ilova sifatida Instagram Twitterdan ko'ra yangi ijtimoiy media platformasi hisoblanadi.

Snapchatdagi video va rasmlar ko'rilgandan keyin avtomatik ravishda o'chiriladi. Snapchat va Instagram-dagi hikoyalar juda o'xshash vizual platformalar bo'lib, siz o'zingizning meros saytingiz haqida vizual tasvirni taqdim etishda foydalanishingiz mumkin bo'lgan tomoshabinlarni haqiqiy tashrifga undash uchun kundalik faoliyat yoki hikoyalarni omma oldida nashr etish orqali foydalanuvchilar uchun juda jozibali usul. Ijtimoiy platformalar orasida Snapchatning juda kuchli rollari orasida foydalanuvchilar va foydalanuvchi bo'lmaganlar o'rtasida og'iz dunyosini juda tez o'tkazishga yordam berishini eslatib o'tmaslik kerak, shuning uchun madaniy meros elektron marketingi uchun ushbu xususiyatdan ijobiy foydalanish katta foyda keltiradi³²¹.

Yaqinda raqamli sohada elektron marketing ishini tartibga soluvchi ba'zi qoidalar va qoidalar mavjud. Ushbu qoidalar marketing merosiga qaratilgan maqolaning ushbu qismida muhokama qilinadi. Ushbu qoidalar yaqinda ishlab chiqilganiga

³²⁰ Ibrahim S., Ibrahim H. Promoting Cultural Heritage Through Diverse Digital Marketing Channels. History Research 2022; 10(1): 54-58, <http://www.sciencepublishinggroup.com/j/history>.

³²¹ Alghamdi, E. A. and Bogari, N., 2020. The Impact of Social Media Platforms "Instagram" and "Snapchat" on the Purchasing Decision-Structural Equation Modelling Approach: Social Media Platforms. International Journal of Online Marketing (IJOM), 10 (1), pp. 72-94.

qaramay, ular yangi fan sifatida marketing merosi sohasida o'zlarining samaradorligini isbotladilar. Texnologik taraqqiyot tufayli ushbu qoidalarining qo'llanilishiga qaramay, ularning muvaffaqiyati tomoshabinlarning maqbulligiga bog'liq, chunki har bir iste'molchi meros obyekti bilan yakkama-yakka munosabatda bo'lishni yoqtirmaydi. Bu yakkama-yakka munosabatlar har bir meros obyektining o'z auditoriyasi bilan yakkama-yakka munosabatlarni rivojlantirish istagi tufayli tartibsizlikka olib kelishi mumkin. Marketologlar, shuningdek, agar derazalar zo'rlik bilan ochilgan bo'lsa, onlayn qalqib chiquvchi reklamalar barcha foydalanuvchilar uchun umuman afzal emasligiga e'tibor berishlari kerak; majburiy yuklab olish; va ba'zi elementlarning miltillashi, shuning uchun har qanday meros obyektining marketing rejasi ulardan qochish kerak, chunki foydalanuvchilarga ularni yoqtirmaydi³²².

2005-yildan boshlab marketing adabiyotlarida "auditoriyaning jalb qilish" atamasi tobora ko'proq qo'llanila boshlandi. Adabiyotdagi auditoriyaning jalb qilishning eng keng qamrovli ta'riflaridan biri bu "munosabat almashinuvida ishtirok etish uchun ma'lum darajada tinglovchilarning his-tuyg'ularini, xatti-harakatlarini yoki bilimlarini jalb qilish idrokidir".

Raqamli reklama marketing usullaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalarining mavjudligi tufayli paydo bo'ldi. Raqamli texnologiya marketing jarayonini faqat uzatish jarayonidan interaktiv jarayonga aylantirgan turli xil auditoriya aloqalarini taqdim etdi. Texnologiyaning rivojlanishi, uning narxining pasayishi bilan bir qatorda, hatto televizor qurilmalarida ham Internet mavjudligi bu harakatni kuchaytirishga katta yordam

³²² Smith, K. T., 2011. Digital marketing strategies that Millennials find appealing, motivating, or just annoying. *Journal of Strategic marketing*, 19 (6), pp. 489-499.

berdi. Shunday qilib, har qanday veb-saytni loyihalash muhimligi ko'rinadi, chunki ijodiy va qiziqarli veb-saytlar foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga ko'proq vaqt sarflash va ularning tarixiy mazmunidan bahramand bo'lish imkonini beradi.

Hozirda ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy va madaniy hayotimizda asosiy omil bo'lib, biz uni onlayn dunyomizdan ajrata olmaymiz. Ijtimoiy media madaniy merosni sotishning muhim yondashuvi sifatida meros sektorlarida o'z ishtirokini kengaytirdi. Hozirgi kunda ko'plab odamlar ijtimoiy media, ayniqsa, ko'plab madaniy sohalarning brendi va rivojlanishiga yordam bergan yosh auditoriya haqida gapiradi. Endi buni tushunish juda muhim; ijtimoiy media doimiy o'sib borayotgan past qirg'oq onlayn marketing vositasi sifatida o'zining ajoyib marketing salohiyatiga aylanadi. Meros institutlari madaniy meros marketingining yangi davrini boshlash uchun o'zlarining an'anaviy targ'ibot strategiyalarini qayta ko'rib chiqishlari va ijtimoiy media to'loqiniga dosh berishlari kerak³²³.

Madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishda foydalaniladigan innovatsion yangi media va vositalar quyidagilardir: raqamli taqdimotlar, veb-saytlar, ochiq kirish va hamkorlikka ega onlayn platformalar va kontent, onlayn kutubxonalar va arxivlar, virtual sayohatlar va ko'rgazmalar, ijtimoiy media mavjudligi, 3D ko'rgazmalar, 3D restavratsiyalar, 3D modellar va 3D muzeylardagi multimedia ekranlari, raqamli chiptalarni bron qilish va onlayn-do'konlar, onlayn jonli tadbirlar, onlayn axborot

³²³ Ibrahim S., Ibrahim H. Promoting Cultural Heritage Through Diverse Digital Marketing Channels. History Research 2022; 10(1): 54-58, <http://www.sciencepublishinggroup.com/j/history>.

byulletenlari, multimedia, virtual haqiqat va kengaytirilgan haqiqat, o'yinlar, aqlli va o'quv telefon ilovalari³²⁴.

Marketing yondashuvi bilan madaniy merosni targ'ib qilish va tarqatish bo'yicha 8 bosqichli rejani taklif qiladi:

1. Kampaniya g'oyasini tanlash – odamlar uchun foydali, amaliy, qiziquvchan, ta'lim beruvchi, yangi, yangilangan yoki taniqli shaxslar, siyosatchilar, xorijliklar ishtirokidagi, ajoyib insoniy hikoyalar;

2. Moliyani topish va tegishli jamoani yig'ish;

3. Vazifalarni bajarish va taqsimlashga tayyorgarlik ko'rish;

4. Hamkorlarni topish - kompaniyalar, ommaviy axborot vositalari, muassasalar va boshqalar;

5. Asosiy ommaviy axborot vositalari va tarqatish kanallarini aniqlash va nashr qilish uchun mos materiallarni tayyorlash;

6. Kampaniya/tadbir oldidan va keyin, shu jumladan an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalarida hamda shaxsiy taklifnomalarda press-revizlar chiqarish yoki axborotni yaratish va nashr etish;

7. Tahlil va baholash;

8. Vaqt o'tishi bilan rivojlanish va barqarorlik.

Quyida madaniy merosni taqdim etish va targ'ib qilish uchun tizimlashtirilgan marketing yondashuvlari va yaxshi amaliyot turlari taklif etiladi:

- Madaniyat, an'analar va folklorni targ'ib qiluvchi tadbirlar, yarmarkalar, festivallar va boshqa madaniy yig'inlar (masalan,

³²⁴ Todorova-Ekmekci M. Presenting and Promoting Cultural Heritage with Digital Media, Marketing Approaches and Methods. Good Examples. Cultural and Historical Heritage: Preservation, Presentation, Digitalization. KIN Journal, volume 7, Issue 2, 2021, <http://www.math.bas.bg/vt/kin/>

Cho'ponlar yig'ilishi, Elena hunarmandchilik festivali, Surva, Veliko Tarnovo folklor festivali va boshqalar);

- Raqamli va virtual sayohatlar, ko'rgazmalar, tadbirlar (bepul yoki pullik);

- madaniy meros bilan bog'liq bayramlar, tug'ilgan kunlar, yubileylni nishonlash;

- Yangiliklar va ommaviy axborot vositalari uchun qimmatli bo'lishi mumkin bo'lgan kontent yaratish;

- Filmlar, kitoblar, bloglar, onlayn vloglar (blog, lekin video kontent bilan);

- O'yinlar, jumladan, aqlli ta'lim o'yinlari, interaktiv displeyli multimedia o'yinlari va virtual reallik o'yinlari.

Masalan, Bolgariyada madaniy merosni targ'ib qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan onlayn platformalar va raqamli marketing va media vositalarining yana bir misoli - "Narodoznanie" hisoblanadi³²⁵.

Raqamli ommaviy axborot vositalarida madaniy merosning ochiq va qulay tarzda mavjudligi uning zamonaviy taqdimoti, targ'iboti va barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu narsa marketing yondashuvlari va madaniyatni targ'ib qilish usullarini birlashtirish uchun ham amal qiladi. Ular ko'pincha samaraliroq va Internetda kengroq auditoriyani qamrab oladi³²⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi

³²⁵ Todorova-Ekmekci M. Presenting and Promoting Cultural Heritage with Digital Media, Marketing Approaches and Methods. Good Examples. Cultural and Historical Heritage: Preservation, Presentation, Digitalization. KIN Journal, volume 7, Issue 2, 2021, <http://www.math.bas.bg/vt/kin/>

³²⁶ Todorova-Ekmekci M. Presenting and Promoting Cultural Heritage with Digital Media, Marketing Approaches and Methods. Good Examples. Cultural and Historical Heritage: Preservation, Presentation, Digitalization. KIN Journal, volume 7, Issue 2, 2021, <http://www.math.bas.bg/vt/kin/>

Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5150-sonli qarorining qabul qilinishi ham moddiy madaniy meros obyektlari, jumladan, arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va saqlashning samaraliroq tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgandir.

Shu bilan birga, Madaniy meros agentligining vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib, arxeologiya sohasiga oid ba'zi muammolarning yechimini topishga qaratilishi lozim.

Arxeologiya merosi obyektlarini saqlab qolish va ulardan foydalanish uchun birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Halokat yoqasiga kelib qolgan arxeologiya merosi obyektlarining ro'yxatini shakllantirish va Madaniy meros agentligi ilmiy-ekspert kengashiga kiritib, ularda bosqichma-bosqich zudlik bilan arxeologiya tadqiqotlarini o'tkazish.

Agar antropogen yoki texnogen sabablar natijasida yo'qolish xavfi ostida qolgan obyektlarni bugun o'rganmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. Ular butanlay yo'q bo'lib ketishi, moddiy madaniyatimizning ma'lum bir qismi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Ularni saqlab qolishning oqilona yo'li bu – ularda arxeologiya tadqiqoti o'tkazib, muzeylashtirish yoki konservatsiyalash bo'lib hisoblanadi.

2. Yangi aniqlangan arxeologiya merosi obyektlarini ilmiy-ekspert kengashiga kiritib, moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritish chorasini ko'rish.

Arxeologiya tadqiqotlari, jumladan, arxeologiya qidiruvlari natijasida aniqlangan yangi obyektlarni ekspertizadan o'tkazib, zudlik bilan moddiy madaniy meros obyektlarining milliy

ro'yxatiga kiritish lozim. Shunda ularning muhofazasi ishonchliroq ta'minlangan bo'ladi.

3. Arxeologiya merosi obyektlarining katalogini yaratishni davom ettirish.

Ushbu tadbirning amalga oshirilishi arxeologiya merosi obyektlarining ommalashuviga, ilmiy muomalaga kiritilishiga yo'l ochadi. Qazishma ishlari o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlari ro'yxatini shakllantirish.

Qazishma o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlarini ro'yxatini shakllantirish orqali moddiy madaniy merosimizning o'rganilish darajasi va ularning o'rganilmagan qismi haqida ma'lum bir fikr yuritish uchun kelgusida arxeologiya sohasida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish uchun asosiy yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

1. Qazishma o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish va ularni turizm obyektiga aylantirish.

Hozirgi kunda qazishmalar o'tkazilgan arxeologiya merosi obyektlarining deyarli hech qaysisi to'lig'icha konservatsiya qilinmagan. Bu esa arxeologiya merosi obyektlarining holati yomonligicha qolishiga va qisman iyo'qolishiga olib keladi.

Qazishma olib borilgan arxeologiya obyektlarini konservatsiya qilinishini yo'lga qo'yiladigan bo'lsa, birinchidan obyekt saqlanib qoladi, ikkinchidan turizm obyekti sifatida iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Arxeologiya merosi obyektlarining aniq chegarasi va muhofaza hududini belgilash.

Arxeologiya merosi obyektlarini aniq chegarasi va muhofaza hududini belgilanmaganligi oqibatida xo‘jalik yuritish subyektlari bilan huquqiy muammolar kelib chiqmoqda.

Buning oldini olish uchun albatta birinchi navbatda ularning aniq chegarasi va muhofaza hududini belgilash shart hisoblanadi va bu bugungi kundagi juda ko‘p muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

2. Arxeologiya merosi obyektlariga muhofaza belgilarini o‘rnatish.

Arxeologiya merosi obyektlariga muhofaza belgilarini o‘rnatish bu – fuqarolarga ogohlantirish yoki aniq belgilangan hudud ekanligini ko‘rsatish bo‘ladi.

3. Aholi punktlari va qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari orasida qolib ketgan arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza hududi bilan birga to‘siqlar yoki sim to‘rlar bilan o‘rab olish.

Biz jadallik bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Buning albatta ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Shuning uchun ham hozirgi paytda rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish uchun aholi punktlari va qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari orasida qolib ketgan arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza hududi bilan birga to‘siqlar yoki sim to‘rlar bilan o‘rab olish zarur. Bu tadbir ularning saqlab qolinishini ta'minlaydi.

4. Qabriston sifatida foydalanilayotgan arxeologiya merosi obyektlaridan qabriston sifatida foydalanishga chek qo‘yish va qabristonlar uchun boshqa joy ajratish.

Hozirgi kunda ko‘plab arxeologiya merosi obyektlaridan qabriston sifatida foydalanib kelinmoqda. Bu holat arxeologiya merosi obyektlarining buzilib ketishiga olib kelmoqda.

Agar bu muammo hal qilinmasa, arxeologiya merosi obyektlari buzilishda davom etaveradi.

O'zbekiston hududi insoniyat tarixidagi ilk sivilizatsiyalar vujudga kelgan makonlardan biri hisoblanadi. Bundan 4-5 ming yillar avval shaharsozlik madaniyati vujudga kelib, qadimgi Baqtriya, qadimgi Xorazm davlatlari gullab yashnagan. Vatanimizda yaratilgan "Avesto" kitobi nafaqat xalqimizning balki, butun insoniyatning ma'naviy dunyosi uchun yuksak ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz hududida o'z kuch-qudrati va madaniy saviyasi jihatidan bir necha marta rivojlanishning yuqori pag'onasiga ko'tarila olgan davlatlarning mavjud bo'lishi jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin tabiiy va madaniy boyliklarimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Jumladan, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish borasida ham o'zgarishlar ro'y berdi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishdagi mavjud qonunlar o'rniga Respublikamiz shart-sharoitidan kelib chiqqan holda yangi qonunlar qabul qilindi. 2001-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida", 2009-yil 13-oktyabrda "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida", 1998-yilda 29-avgustda "Madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilish to'g'risida", 2008-yil 12-sentyabrda "Muzeylar to'g'risida"gi qabul qilingan qonunlar shular jumlasidan hisoblanadi.

O'zbekiston Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKOga 1993-yilda a'zo bo'lgan. Mamlakatimiz hukumati

tomonidan “Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya” (16-noyabr, 1972-yil) ratifikatsiya qilingan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi to‘rtta shahar tarixiy markazi Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bular: “Samarqand madaniyatlar chorrahasi”, “Buxoro tarixiy markazi”, “Shahrisabz tarixiy markazi” va “Ichan qal’a” obyektlaridir. Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan obyektlarning mislsiz universal qiymati alohida e’tiborga olingan. Ularning hozirgi kunga qadar yaxlit bir yodgorlik sifatida va asl holicha yetib kelganligi Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritishga asos bo‘lgan. Shahar tarixiy markazining har bir elementi (uy-joy, masjid, madrasa, hammom, hovuz, saroy va barcha tarixiy ahamiyatga ega bino yoki obyektlar) uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularga zarar yetkazish yoki yo‘qotib yuborish esa shaharning tarixiy markazi ahamiyatiga putur yetkazadi. Ushbu madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash esa har bir O‘zbekiston fuqarosining burchi hisoblanadi.

Oddiy va tushunarli muhofaza rejimini yaratish orqali tarixiy muhitga yangi yaxlit yondashuvni ilgari surish lozim. Buning uchun:

- madaniy meros obyektlarini ro‘yxatga olish, ularda bajariladigan ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishning yagona tizimini yaratish;
- barcha muhofaza qilish qarorlari maxsus tarixiy yoki arxeologik qiziqish asosida qabul qilinishini ta’minlash;
- respublika va mahalliy ahamiyatga ega obyektlarning batafsil tanlov mezonlarini ishlab chiqish orqali muhofaza qilish ishlarini tushunishni osonlashtirish.

Nima va qanday himoyalanganligi haqidagi qarorlar qabul qilishda jamoatchilikni jalb qilish hamda jarayonni sodda va tezroq hal qilish orqali madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishni yaxshilash lozim. Buning uchun:

- yangi milliy dasturni ishlab chiqishda jamoatchilikni jalb qilish;
- mavjud madaniy meros obyektlari ro'yxatini doimiy yangilab borish;
- oddiy va aniq muhofaza choralari ko'rish va ularni keng jamoatchilikka tanishtirish uchun ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borish;
- yangi aniqlangan arxeologiya merosi obyektlari uchun muhofaza qilish tizimini takomillashtirish.

Tarixiy muhitni samarali rejalashtirish tizimining markaziga qo'yib, barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash kerak. Buning uchun:

- rejalashtirilgan qurilish va uning ro'yxatga olingan yodgorlikka ta'sirini maqbullashtirish hamda maslahatlashuvlar orqali tartibga solishni soddalashtirish.

Rejalashtirishda qo'riqxonalar imkoniyatlaridan kelib chiqib:

- tarixiy obidalarni boshqarish bo'yicha yangi qonuniy yo'riqnomalar orqali tizimga ko'proq moslashuvchanlikni kiritish;
- noaniqlikni kamaytirish va meros masalalarini erta ko'rib chiqishni ta'minlash uchun ko'lami bo'yicha maslahatlashish;
- jahon merosi obyektlarini himoya qilishni aniq mezonlarini ishlab chiqish va kuchaytirish;
- ekin maydonlarida arxeologik qoldiqlarni muhofaza qilishni kuchaytirish;

- rejalashtirish ishlarini amalga oshirishda madaniy meros obyektlarini himoya qilish uchun yangi vositalar bilan ta'minlash³²⁷.

Shunday qilib, arxeologiya sohasidagi ba'zi muammolarning yechimini ijobiy hal qilinsa, bu sohadagi yutuqlar sari tashlangan qadam bo'lar edi.

³²⁷ HERITAGE PROTECTION FOR THE 21ST CENTURY. Department for Culture, Media and Sport Welsh Assembly Government. Presented to Parliament by the Secretary of State for Culture, Media and Sport By Command of Her Majesty, March 2007, Page 8.

XULOSA

Arxeologiya merosi obyektlari asosida muzey, park va qo'riqxonalar tashkil etishdan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

arxeologiya merosi obyektlarini kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish;

arxeologiya merosi obyektlarini butun holicha saqlab qolish va muhofaza qilish choralarini ko'rish;

arxeologiya merosi obyektlarini tarixiyligini aslligicha saqlash;

mamlakatimizda turizmni rivojlantirish va turizm salohiyatini yanada ko'proq namoyon etishda arxeologiya merosi obyektlaridan samarali foydalanish;

arxeologiya merosi obyektlarining boshqaruv rejasini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish.

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish va muzeylashtirishda butunlik va aslligini saqlash asosiy omil hisoblanadi.

Arxeologiya merosi obyektlarining butunlik va asllik holati qonun va qonunosti hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar orqali baholanadi. Butunlik va asllik holati ularning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq. Ularning ushbu xususiyatlarini saqlab qolish ma'lum bir tarixiy davr madaniyati, aholining turmush tarzi haqida ma'lumot berganligi uchun muhim hisoblanadi. Butunlik va asllik holati tegishli davr uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Turli tarixiy davrdagi aholining etnografik, xalq amaliy san'ati, me'morchilik va boshqa madaniyatning an'analari, ularning turlari, xilma-xilligini kuzatish mumkin bo'ladi.

Arxeologiya merosi obyektlarining madaniy qiymatini mezonlar bo'yicha e'tirof etish uchun, quyidagilarni hisobga olish kerak:

shakli va dizayni;

material va moddiy xususiyatlari;

foydalanishi, vazifasi, an'analari, texnik va boshqaruv tizimlari;

atrof muhitning ta'siri;

arxeologiya merosi obyektlariga nisbatan ma'naviy va jismoniy idrok;

har bir obyektga ichki va tashqi omillarning ta'sir ko'rsatishini oldini olish.

arxeologiya merosi obyektlarining haqiqiyliigi va uning sifatlari yaxlitligini saqlashda:

A) tarixiylik, an'anaviylik universal qiymatini ifodalash uchun zarur bo'lgan elementlarini hisobga olish;

B) obyektning to'liq qiymatini aks ettiradigan xususiyat va tarixiy jarayonlar uchun zarur bo'lgan yetarlicha hajmga ega bo'lishi;

V) salbiy ta'sirlardan, qurilish, iqtisodiy faoliyat va muayyan beparvolikdan aziyat chekishini hisobga olgan holda muhofazasini ta'minlash kerak.

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish va muzeylashtirishda texnogen va antropogen ta'sirlarning oldini olish yoki ular ta'sirini kamaytirish choralari muhim o'rin egallaydi. Bunda:

tabiiy ofatlar ro'y berganda (zilzila, suv toshqini, yong'in, shamol, iqlim ta'siri) zudlik bilan Madaniy meros agentligi hududiy boshqarmalariga murojaat qilish shart;

termit yoki hashoratlar xavfi tug'ilganda zudlik bilan Madaniy meros agentligi hududiy boshqarmalarini xabardor qilish shart;

termit yoki hashoratlar xavfi tug'ilganda tegishli tashkilotlar ishtirokida profilaktik va qirib yo'qotish tadbirlarini amalga oshirish;

termitlar bilan zararlangan, arxeologiya merosi obyektlarida biologik yemiruvchiga qarshi himoya tadbirlarini o'tkazish;

arxeologiya merosi obyektlarida termitlar bor-yo'qligini aniqlash maqsadida nazorat o'tkazish;

arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiya qilish yoki rekonstruksiya qilish zarurati paydo bo'lganda Madaniy meros agentligi hududiy boshqarmalariga murojaat qilish shart;

konservatsiyalash yoki rekonstruksiya qilish paytida asli bilan bir xil yoki asl holatiga mos an'anaviy qurilish materiallaridan foydalanish lozim;

agar arxeologiya merosi obyektlarini rekonstruksiya qilish zarurati paydo bo'lgan bo'lsa, uni asl holatiga mos ravishda qayta qurish (rekonstruksiya) maqsadga muvofiq hisoblanadi;

arxeologiya merosi obyektlarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlashda qiyofasining o'zgarishiga yoki aslligiga putur yetkazmaslik choralarini ko'rish tashqi ta'sirlarning kuchi kamayishiga olib keluvchi omillar hisoblanadi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va saqlash uchun mavjud qonunchilikka rioya etish eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasining 49-moddasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir." – deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi va "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlarida ko'rsatilganidek foydalanish hamda muhofaza qilish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarga rioya qilish lozim.

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash va muzeylashtirish orqali mamlakatimizda turizmni rivojlantirish va turizm salohiyatini yanada ko'proq namoyon etish mumkin bo'ladi.

Ularning boshqaruv rejasini hayotga tadbqiq etilishi hamda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanishi huquqiy asos yaratadi.

